

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**« TARIX FANIDA DAVLATCHILIK MASALALARI: QADIMGI, O'RTA  
ASRLAR, YANGI VA ENG YANGI DAVR »  
MODULI BO'YICHA  
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Toshkent 2022**

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Modulning  
o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7  
dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga  
muvofig ishlab chiqilgan

**Tuzuvchilar:**

**Rozakov A.**

**Taqrizchilar:**

tarix fanlari nomzodi, dotsent

**D.J. Urakov**

tarix fanlari nomzodi, dotsent

**A.G. Xolliyev.**

**O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik  
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2020 yil “30” dekabrdagi 5/4-sonli bayonnomma)**

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR .....	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	11
III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....	14
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....	100
V. KEYSALAR BANKI.....	105
VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI.....	108
VII. GLOSSARIY .....	109
VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	113

# I. ISHCHI DASTUR

## Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdaga tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Mazkur dastur rivojlangan xorijiy davlatlarning oliy ta’lim sohasida erishgan yutuqlari hamda orttirgan tajribalari asosida “Tarix” qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishi uchun tayyorlangan namunaviy o‘quv reja hamda dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur Jahon davlatchiligining hozirgi kungacha bo‘lgan rivojlanishining asosiy omillari va yo‘nalishlarini yoritishga qaratilgan. Taqdim etilgan kurs tarixchi mutaxassislarning nazariy – uslubiy saviyasini oshirishda jahonda ro‘y berayotgan tarixiy jarayonlarni chuqur o‘rganishdagi asosiy konseptual yondashuvlar bilan tanishishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, «Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o‘rta asrlar, yangi va eng yangi davr» fani haqidagi bilimlarni qaror toptirish mavjud ilmiy adabiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o‘rganish, fan bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajribalar, kadrlar buyurtmachilarining fikr, talab va takliflari kabi masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Demak, ta’lim tizimi samaradorligini oshirish, pedagoglarni zamonaviy bilim hamda amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, chet el ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ta’lim amaliyotiga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir «Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o‘rta asrlar, yangi va eng yangi davr» moduli aynan mana shu yo‘nalishdagi masalalarni hal etishga qaratilgan.

Xorijiy mamlakatlar davlatchiligining rivojlanish bosqichlari tarixini o‘rganish muammolari ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni o‘zlashtirish jarayonida tinglovchilar Yevropa, Amerika qo‘shma shtatlari davlatlarning Xorijiy mamlakatlar

davlatchiligining rivojlanish bosqichlari tarixini o‘qitish jarayonining tashkil etilishi, modul-kredit tizimi, fanlarning taqsimlanishi, talabalarning mustaqil ta’limning tashkil qilinishi, yetakchi xorijiy oligohlarida chop etilgan darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Jahon universitetlarida va respublikamizdagi «Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o‘rta asrlar, yangi va eng yangi davr» fanining yutuqlari bilan tanishishadi.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

«Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o‘rta asrlar, yangi va eng yangi davr» modulini o‘qitishdan maqsad: oliv o‘quv yurtlaridagi Xorijiy mamlakatlar davlatchiligining rivojlanish tarixi bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali Xorijiy mamlakatlar davlatchiligining rivojlanish bosqichlari tarixi yo‘nalishidagi ta’lim jarayonini muvofiqlashtirish va mazmunan boyitish, Xorijiy mamlakatlar davlatchiligining rivojlanish bosqichlari tarixini o‘qitish samaradorligini oshirishga yordam beradigan zamonaviy yondashishlar bilan hamda pedagogik va axborot texnologiyalar bilan tanishtirish, Xorijiy mamlakatlar davlatchiligining rivojlanish bosqichlari tarixi soxasida yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini oshirish.

### **Modulning vazifalari:**

- Respublika oliygochlarda “Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o‘rta asrlar, yangi va eng yangi davr” tarixi ta’limi strukturasini muvofiqlashtirish;
- Respublika oliygochlarda «Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o‘rta asrlar, yangi va eng yangi davr» tarixi ta’limining mohiyatini mukammallashtirish;
- Tarix aniqlovchisi va tarixiy tadqiq usullarini eng qadimgi davrdan hozirgi kunlargaCHA bo‘lgan jarayonni va jamiyatning rivojlanishiga qo‘shgan hissasi va ahamiyatini tinglovchilarga yetkazish;
- Respublika oliygochlarda «Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o‘rta asrlar, yangi va eng yangi davr» tarixini o‘qitish metodikasining asosiy muammolari, ta’lim-tarbiya jarayonini zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish;
- Klassik va hozirgi zamon tarix ma’nosiga tarixiy ong va tarixga tarixiy ongning ikki tomonligiga chuqrur yondoshilib tadqiq qilish;
- Respublika oligohlarida jahon sivilizatsiyalari tarixi bo‘yicha ma’ruza, amaliy va mustaqil ishlari darslarini tashkil etish jarayonida zamonaviy ta’lim va axborot texnologiyalaridan foydalanish.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiylariga qo‘yiladigan talablar**

Modulni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

- jahon yetakchi universitetlarining o‘quv metodlar;
- Xorijiy davlatlarida tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o‘rta asrlar, yangi va eng yangi davr tarixi fanlari bo‘yicha darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari strukturasi;

- Jahonda va Respublikamizning “Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o’rta asrlar, yangi va eng yangi davr” tarixi fanining rivoji haqida **bilish** kerak;
- “Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o’rta asrlar, yangi va eng yangi davr” fanini o’qitish bo‘yicha yangi zamonaviy texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash;
- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiytadqiqtolarini o’tkazish;
- tarixiy jarayonlarni to‘g‘ri anglash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish;
- innovatsion faoliyatni tashkil etish;
- ilg‘or tajribalardan foydalanish;
- o‘z ustida ishlab, fanning yangi tadqiqtolarini o’qitish tizimini qo‘llash;
- pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to‘g‘ri qo‘llay olish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.
- “Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o’rta asrlar, yangi va eng yangi davr” mukammal, rivojlanib borish jarayonlari, tarix fanining alohida fan mavqeiga ega bo‘lishi;
- Klassik va hozirgi davrdagi tarix fanining dolzarb muammolari, Yevropa Sharq olimlari, tarixiy nazariyalarini mukammal o‘rganishi;
- fan bo‘yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish; davlatchilik tarixi sohasida jahon hamjamiyati tomonidan to‘plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo‘llash **malakalariga** ega bo‘lishi;
- kreativ yondashuvda davlatchilik tarixini o‘rganishga oid fanlarni o’qitishda qo‘llay olishi;
- “Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o’rta asrlar, yangi va eng yangi davr” rivojlanib borish jarayonlari va dolzarb muammolari oid masalalarni tarix fanlarini o’qitishda qo‘llana olish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o’tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

“Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o’rta asrlar, yangi va eng yangi davr” tarixining o‘rganish muammolari modulini o’qitish davomida modulni mazmuman boyitish tinglovchilar o‘z tajribalardan va internet tarmoqlaridan olgan materiallarni ommaviylashtirmog‘i maqsadga muvofiq.

Modulni o’qitish jarayonida kichik guruxlarda ishslash, auditoriya darslardan oldin ma’mumotlar bilan ta’limning zamonaviy metodlari, ta’lim texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan. Har bir tinglovchi uchun “Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o’rta asrlar, yangi va eng yangi davr” tarixini o’qitishida o‘zini va ilg‘or xorijiy tajribalarni solishtirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o’rta asrlar, yangi va eng yangi davr” moduli mazmuni o‘quv rejadagi mutaxassislik fanlari “Jahon mamlakatlarining fan va texnika taraqqiyoti tarixi”, “Jahon sivilizatsiyasi tarixining dolzarb muammolari” va “Xalqaro munosabatlar tarixining dolzarb masalalari” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

## Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ilg'or xorijiy mamlakatlarda "Tarix fanida davlatchilik masalalari: qadimgi, o'rtasrlar, yangi va eng yangi davr" tarixini o'qitishni tashkil qilishning xorijiy tajribalarni o'rganish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

### Modul bo'yicha soatlar bo'yicha taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya			
		Jami	jumladan		
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1 .	Qadimgi davlatchilikning paydo bo'lish omillari va nazariyalari.	6	2	4	
2 .	Ilk o'rtasrlarda davlatchilik va boshqaruva Rivojlangan o'rtasrlarda davlatchilik taraqqiyoti.	4	2	2	
3 .	Yangi davr davlatlarining paydo bo'lishi.	4	2	2	
4	Hozirgi zamon davlatchiligining asosiy yutuqlari va muammolari.	6	2	4	
<b>Jami: 20</b>		<b>20</b>	<b>8</b>	<b>12</b>	

### NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

#### **Mavzu 1. Qadimgi davlatchilikning paydo bo'lish omillari va nazariyalari.**

Qadimgi davlatchilikning paydo bo'lish omillari va nazariyalari. Qadimgi Sharqda boshqaruva tizimini rivojlanishi. Shahar-davlatlarning tashkil topishining asosiy bosqichlari. Sharq davlatchiligining o'ziga xos xususiyatlari. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston va Xitoyda inson va hukumat. Sharq davlatlarining regional farqlari ilmiy tahlilga ehtiyoji.

## **Mavzu 2. Ilk o‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv va Rivojlangan o‘rta asrlarda davlatchilik taraqqiyoti.**

Frank davlati. Karolinglar davlatida feodal munosabatlar asosining shakllanishi. Vizantiya imperiyasi va uning davlat boshqaruv sohasidagi o‘ziga xos jihatlari. Ilk o‘rta asrlarda Xitoy va Hindistonda davlat boshqaruv shakllari. Arab davlatining paydo bo‘lishi va davlatchilik an’analardagi o‘zgarishlar. Rivojlangan o‘rta asrlarda Yevropada davlatchilik rivoji. Rivojlangan o‘rta asrlarda Osiyo mamlakatlarida davlatchilik an’analari. O‘rta asrlarda davlatchilik masalasi va din tushunchasining uyg‘unlashuvi va Buyuk geografik kashfiyotlar

## **Mavzu 3. Yangi davr davlatlarining paydo bo‘lishi.**

Yangi davr davlatlarining paydo bo‘lishi. Yangi davrda Yevropa, Amerika, Osiyo hamda Afrika mamlakatlarda davlatchilik an’analari. Absolyut monarxiyaning inqirozi. Despotik davlatlar. Milliy prinsiplar asoslangan davlatning tashkil topishi. Milliy davlatlarning turlari.

## **Mavzu 4. Hozirgi zamon davlatchiligining asosiy yutuqlari va muammolari.**

Hozirgi zamon davlatchiligining asosiy yutuqlari va muammolari. Globallashuv davrida milliy davlatlarning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekistonning davlatchilik an’analari va uni zamonaviy xalqaro munosabatlar konteksdagi o‘rni.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1- Qadimgi davlatchilikning paydo bo‘lish omillari va nazariyalari. Sharq davlatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari Yangi pedagogik texnologiya: “aqliy hujum”, «menyu» metodi.**

#### **Reja:**

1. Qadimgi davlatchilikning paydo bo‘lish omillari
2. Shahar-davlatlarning tashkil topishining asosiy bosqichlari..
3. Sharq davlatlarining regional farqlari.

### **2- Amaliy mashg‘ulot. Ilk o‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv va Rivojlangan o‘rta asrlarda davlatchilik taraqqiyoti Yangi pedagogik texnologiya: “aqliy hujum”, «Fikrlar hujumi» metodi.**

#### **Reja:**

1. Karolinglar davlatida feodal munosabatlar asosining shakllanishi.
2. Ilk o‘rta asrlarda Xitoy va Hindistonda davlat boshqaruv shakllari. .
3. Arab davlatining paydo bo‘lishi va davlatchilik an’analardagi o‘zgarishlar.
4. Buyuk geografik kashfiyotlar.

**3- Amaliy mashg‘ulot. Yangi davr davlatlarining paydo bo‘lishi. Milliy davlatlarning turlari. Yangi pedagogik texnologiya: “aqliy hujum”, «FSMU» metodi.**

**Reja:**

1. Yangi davrda Yevropa.
2. Yangi davrda Osiyo hamda Afrika mamlakatlar.
3. Despotik davlatlar.
4. Milliy davlatlarning turlari.

**4- Amaliy mashg‘ulot. Hozirgi zamon davlatchiligining asosiy yutuqlari va muammolari. Yangi pedagogik texnologiya: “aqliy hujum”, “menyu”, “debatlar” metodi.**

**Reja:**

1. Hozirgi zamon davlatlarning asosiy yutuqlari va muammolari.
2. Globallashuv davrida milliy davlatlar.
3. O‘zbekistonning davlatchilik an’analari.

## **KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **Ko‘chma mashg‘ulotni tashkil etish shakli va mazmuni**

Ko‘chma mashg‘ulotlar tayanch oliy ta’lim muassasalarining kafedra va laboratoriyalarda tashkil etiladi. Ushbu laboratoriyalarda tinglovchilar zamonaviy tarix tadqiqot usullarining asbob uskunalar bilan tanishadilar, ularda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Olingan natijalardan davlatchilik masalalari xozirgi zamon muammolari haqida ma’lumotlar olishga ko‘nikma hosil qiladilar.

## **MUSTAQIL TA’LIM**

Tinglovchi mustaqil ishni modulni xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- o‘quv, ilmiy adabiyotlardan va meyoriy xujjatlardan foydalanish asosida modul mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha modul bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan modul bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- fanga oid statistik ma’lumotlarni o‘rganish, ularni tahlil qilish

## **O‘QITISH SHAKLLARI**

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

Ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va interfaol pedagogik (Aqliy xujim, Venn diagrammasi, konseptual jadval) usul va texnologiyalardan foydalaniladi.

O’tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, grafik organayzerlardan, keyslardan foydalanish, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, blits-so‘rovlardan va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

## **JORIY NAZORAT(ASSISMENT)NI BAHOLASH MEZONI**


Joriy nazorat(assismment)ni baxolash O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish Tarmoq (mintaqaviy) markazida tasdiqlangan shakllari va mezonlari asosida amalga oshiradi.

Ushbu modulning joriy nazorat(assisment)ga ajratirlan maksimal ball-**0,8 ball**.

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI**

### **Davra stolining tuzilmasi**

Yozma davra suhbatida stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'limga oluvchiga konvert qog'ozni beriladi. Har bir ta'limga oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'limga oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'limga oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'limga oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbatii" metodining tuzilmasi keltirilgan



### **Xulosalash (Rezyume, Yelpig'ich) metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli harakteridagi mavzularni o'rghanishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rghaniladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### «FSMU» metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

#### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

#### **Namuna.**

**Fikr:** “Zamonaviy geosiyosatning dolzARB muammolari qanday masalalarni yoritadi?”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

### III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

#### 1 Mavzu. Qadimgi davlatchilikni paydo bo‘lishi omillari va nazariyalari

REJA:

- 1.1. Qadimgi davlatchilikning paydo bo‘lish omillari va nazariyalari.
- 1.2. Qadimgi Sharqda boshqaruv tizimini rivojlanishi.
- 1.3. Shahar-davlatlarning tashkil topishining asosiy bosqichlari.
- 1.4. Sharq davlatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari.
- 1.5. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston va Xitoyda inson va hukumat.
- 1.6. Sharq davlatlarining regional farqlari ilmiy tahlilga ehtiyoji.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Qadimgi Sharq, Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy, nom, davlat, firavnlar,davlatchilik, sulola.

##### 1.1. Qadimgi davlatchilikning paydo bo‘lish omillari va nazariyalari.

Mil. av. XXII asr boshlarida Yuqori Misrning markazi bo‘lgan Gerakleopolda 8–sulola bilan bir vaqtning o‘zida Nil vodiysinig o‘rtal qismida yangi 9-sulola hukmronlik qila boshladi. Gerakleopol mamlakat shimolida hosildor tekislikda joylashgan bo‘lib, Nilning g‘arbi Fayum vohasi yaqinida edi. Mil. av. XXII asrda Gerakleopol podsholari butun Misr ustidan o‘z nazoratlarini o‘rnatdilar. Shu bilan birga Gerakleopol podsholari o‘zlarining asosiy ittifoqchisi bo‘lgan Siut shahri, Germopol, Fivaning va bir necha nomlarning avtonomiyasini yo‘qota olmadilar. Hukmron sulola nomlarni to‘la o‘ziga bo‘ysundirishga harakat qildi. Osiyo ko‘chmanchilariga qarshi urush olib bordi. Mil. av. III ming yillik oxirida Misrning xo‘jalik ahvoli mamlakatni birlashtirishni talab qildi. Sug‘orish tizimi tushkunlikka yuz tutdi, aholi ochlikdan qiynaldi. Asrning oxirida Fiva nomining hokimlari mamlakatni janubini o‘z hokimiyatlari ostida birlashtirib, fir‘avn unvonini (XXI sulola) oldilar va shimol podsholarining jiddiy raqibiga aylandilar. Ulardan biri Xeti III (Mil. av. XXI asr o‘rtalari) Fiva bilan hal qiluvchi

to‘qnashuvdan xavfsiraydi va o‘z o‘g‘li Merikaraga nasihatnomasida, Fiva bilan yaxshi munosabatlarni o‘rnatishni maslahat beradi.

## 1.2. Qadimgi Sharqda boshqaruv tizimini rivojlanishi.

Qadimgi Finikiya sivilizatsiyasi O‘rtta yer dengizining sharqiy sohillari bo‘ylab vujudga kelgan edi. Finikiya davlati sharq tomonda quruqlik yerlar bilan deyarli qirg‘oqqa yaqin bo‘lgan Livan tog‘lari orqali ajralib turgan. Uning hududi qadimgi Mesopotamiya, Misr, Fors davlati, qadimgi Rim kabi buyuk davlatlar bilan solishtirganda bor yo‘g‘i bir parcha yerdek ko‘rinar edi. Lekin uning nomi Misr qirg‘oqlarida Sitsiliya, Ispaniya, Shimoliy Afrika, yunon portlarida jaranglab turardi. Finikiya kemalari butun O‘rtta yer dengizida hukmronlik qilgan. Finikiyaliklar butun dunyoda hozirgi yozuv tizimi uchun asos bo‘lgan alifbo, yuqori sifatli dengiz kemalari va ko‘plab boshqa ixtirolari bilan mashhur bo‘lgan.

Finikiya davlatining dastlabki aholisi kim bo‘lganligi bizga noma’lum. Biroq, ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ajdodlari bu yerda mil. avv. III-mingyillikdayoq yashaganlar. To‘g‘ri finikiyaliklar o‘zlarini bunday nomlamaganlar, aksincha o‘zlarini “biror-bir shahar aholisi”: sidonliklar, tirliliklar deb hisoblaganlar. Ular Janubiy Suriya va Falastin atrofini egallagan yerlar aholisi bilan birga “xanaaneylar”, ya’ni Xanaan mamlakati aholisi nomini olganlar va zamonaviy arablar, qadimgi akkad, ossuriyaliklar, misrliklar tiliga qarindosh bo‘lgan somiy tilida so‘zlashganlar.

Gerodot va boshqa qadimgi yunon tarixchilari finikiyaliklarning kelib chiqishi haqida ko‘p yozganlar. Ular finikiyaliklarning dastlabki vatani Fors ko‘rfazidagi orol deb, aytganlar. Zamonaviy tadqiqotchilar ham xanaaney va qadimgi arab tillari o‘rtasidagi katta o‘xshashlikni qayd etadilar. Ular taxminan mil. avv. IV-mingyillikning oxirida ajralganlar. Bu faraz O‘rtta yer dengizining sohilida ushbu sivilizatsiya paydo bo‘lishiga oid bo‘lgan arxeologik topilmalarga mos tushadi. Finikiya shaharlarida eng qadimgi aholi qatlamlarining paydo bo‘lishi taxminan mil. 3000-yil bilan belgilanadi. Shu davrdan shahar sivilizatsiyasi tarixi boshlanadi.

Mamlakat tabiati farovon hayot uchun barcha imkoniyatlarni bergen edi. Yerlar kam bo‘lgan, lekin tomorqa bo‘lgan joylar juda hosildor edi. Nam dengiz shamollari yomg‘irlarni olib kelgan va sun‘iy sug‘orishga ehtiyoj bo‘lmagan. Juda qadimdan boshlab mahalliy aholi zaytun, xurmo, uzum yetishtirgan, chorvachilikda mol va qo‘y boqish bilan shug‘ullangan. Arxeologlar mil. avv. X-mingyillika oid bo‘lgan dehqonchilik izlarini topganlar. Mil. avv. III-mingyillik o‘rtalarida dehqonlar va baliqchilar manzilgohlari o‘rnida shaharlar bunyod bo‘ladi. Ulardan eng yiriklari shimolda Ugarit va Arvad, markazda Bibl, janubda Tir va Sidon bo‘lgan.

Arxeoglarning qazishmalari ularning tashqi ko‘rinishini qayta tiklash imkonini beradi. Shaharlar devor bilan mustahkamlanib, ularning markazida bir-biriga yopishib ketgan paxsa va g‘isht uylar bilan o‘ralgan ibodatxona va mahalliy hukmdor qarorgohi bo‘lgan. Kichik mamlakatda yer eng qimmatbaho boylik bo‘lgan. Shuning uchun shaharlar juda zich qurilgan. Yer yetishmovchiligi ayniqsa Tir va Arvadda qattiq sezilgan. Bu ikki shahar sohildan uzoq bo‘lmagan kichikroq orollarda joylashgan edi.

Qazishmalar finikiyaliklar foydalangan mebellar va uy-ro‘zg‘or buyumlari to‘g‘risida bir qancha tasavvurlar olishga imkon beradi. Qabrlardan metalldan tayyorlangan kalta nayzalar va loydan yasalgan idishlar topilgan. Finikiyaliklar asosan baland bo‘lmagan stol-stullar, kursi va yassi lojalardan foydalanganlar. Xonadondagi faxriy joyni oilaning asosiy boyliklari saqlangan katta yog‘och sandiq egallagan. Boyroq bo‘lganlar uni gilam bilan, kambag‘allar esa bo‘yra bilan yopganlar. Ko‘chalarining markazida maxsus drenaj ariqlar qazilib, ular shaharni toza saqlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Har bir shahar yaqin tevarak-atrofi bilan kichik shahar bo‘lgan. Ulardan hech qaysi biri butun mamlakatni yagona hududga birlashtira olmaydilar. Asrlar mobaynida ular o‘rtasida doimiy ravishda kurash kechgan. Mil. avv. II-mingyillikning o‘rtalariga kelib, shimolda Ugarit, markazda bo‘lsa Bibl hukmronlik qiladi. Mil. avv. XV asrning birinchi yarmida yetakchilik mil. avv. IV-mingyillikda vujudga kelgan Sidonga (Livandagi zamonaviy Sayda shahri) o‘tadi.

Finikiya shahar-davlatlarining tuzilishi va hayotini o‘rganishda mil. avv. II-mingyillikka oid 29 ta mixxat xarflari bilan yozilgan ulkan sopol taxtachalardan iborat arxiv katta yordam beradi. U arxeologlar tomonidan Ugaritdan topilgan

Ugarit jamiyati - amaldorlar va jangchilar kiradigan “podsho odamlari”, “Ugarit o‘g‘illari” ya’ni, dehqonlar va hunarmandlar – barcha erkin fuqarolar hamda qullardan iborat bo‘lgan. Hujjatlardan jamoa soliqlari yig‘ilishi va jamoa a’zolarini umumiy davlat majburiyatlariga chaqirilishi haqida bilish mumkin. Ulardan eng muhimlari harbiy, eshkak eshish va davlat ishlarida mehnat qilish bo‘lib, bu ishlardan bo‘yin tovlash o‘lim bilan jazolangan.

Davlat tepasida podsho turgan, lekin uning hokimiysi kuchsiz bo‘lgan. Uning vakolatlari shahar oqsoqollari kengashi tomonidan chegaralangan. Shaharlarda mansabdor lavozimlarga saylov mulk senzi asosida o‘tkazilgan. Bunday tartib masalan, qadimgi yunon faylasufi Aristotel tomonidan tasvirlangan Karfagen davlat tuzilishida amal qilgan.

Arxiv ma’lumotlari va arxeologik topilmalar Finikiya shaharlarining boyligi va ularning hunarmandlari va zargarlarining mahoratidan darak beradi. Xo‘sish, gullab-yashnashning asoslari nimada edi?

Avvalo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ehtiyojlarni qoplagan, lekin yer yetishmasligi sababli u boylik manbai sifatida xizmat qilmagan. Asosiy foyda savdo orqali bo‘lgan. Bu qadimgi davlatning savdo yo‘llari butun Old Osiyoni qamrab olgan edi. Karvonlar bilan janubda qadimgi Misr va Falastingacha, shimolda – Kichik Osiyo va ikki daryo oralig‘iga qadar borilgan. Kemalar Nil deltasini, egey dengizi orollari va so‘ngra G‘arbgan tovarlarni olib borganlar.

Finikiyaliklarning asosiy tovari yog‘och bo‘lib, qadimgi Misrda unga ehtiyoj kuchli bo‘lgan. Shaharlar, birinchi navbatda Bibl shahri Livan tog‘lari yonbag‘irlarida o‘sadigan kedr, eman va sarv yog‘ochlari bilan savdo qilganlar. Daraxtlardan kema va sarkofaglar tayyorlanib, ularga Misr ayonlarining mumiyolari solingan. Savdoda yuqori sifatli vino katta rol o‘ynagan. Shuningdek, zaytun yog‘i muhim mahsulot hisoblangan.

Finikiyaliklar birinchi bo‘lib mollyuskalarning alohida turidan to‘q qizil bo‘yoq ishlab chiqarishni boshlaganlar. Undan jun va zig‘ir matolarni bo‘yaganlar. Bu matolar

darrov urfga kiradi va butun qo'shni mamlakatlarda unga nisbatan ulkan talab paydo bo'ladi. Qadimgi Finikiya shaharlaridagi arxeologik qazishmalar davomida bo'yoq olingandan so'ng, uning o'rnidan bo'sh chig'anoqlar topilgan.

Jamiyatda ishlab chiqarish miqyosi juda yuqori bo'lgan. O'zining matolari yetishmagan va arzon, bo'yalmagan junlarni Finikiyaga Suriyaning chorvachilik hududlaridan, Kritdan, so'ngra butun Old Osiyodan olib keltirishgan. Qadimda Finikiya hunarmandlarining bronza va kumushdan ishlangan ajoyib buyumlari, shuningdek, mashhur Sidon oynasi ham tashqi savdoda yuqori baholangan. Finikiyaliklar mahalliy ishlab chiqarish tovarlaridan tashqari Kichik Osiyo, Kipr, Krit, Qadimgi Yunonistondan olib kelingan buyumlar bilan ham savdo qilishgan. Ularning shaharlari esa yirik tranzit savdo markazlari vazifasini o'tagan. Kichik Osiyodan kumush va qo'rg'oshin, keyinroq temir keltirilgan. Ular Kritdan badiiy hunarmandchilik buyumlari va boshqa O'rtayer dengizi mamlakatlari mahsulotlarini olganlar. G'arb bilan savdo aloqalarning eng yirik markazi Ugarit, u vayron bo'lganidan keyin esa Tir shahri bo'lgan..

Tirning («Surru») eng qadimgi yozma manbalarda tilga olinishi — Amarna arxivida uchraydi. Misr Tir hukmdori Abimilku bilan diplomatik yozishmalar olib borgan. U Misr fir'avni exnatonni o'z hukmdori deb e'tirof etib, vassal sifatida o'z hududidagi vaziyat haqida hisobot beradi va uni rabisu («general») deb nomlaydi. Bundan tashqari Abimilku ezilgan holda (taxtachalar orasida «Fira'vnga madhiya» ham bor) Misr fir'avnidan Sidon hukmdori Zimreddi va amoriylarga qarshi kurashda yordam so'raydi; uni orolda qurshab olishgan bo'lib, unda na suv, na o'tin bor edi. Anastasi I papirusida (mil. avv. XIII asr) Tir "suvlarida baliq qumdan ko'p bo'lgan suvlar oqib boradigan dengizdagi katta shahar" sifatida tilga olinadi.

Yeng qadimgi manzilgohlar haqiqatdan ham orolda joylashgan bo'lib, materikda shahar atrofidagi qishloq va qabristonlar bo'lgan. Orolorda suv bo'lmagan; Suv Ras-yel-Aindan qirg'oqqa keltirilgan, u yerda kemalarda shaharga olib kelingan (Tell-Mashuk va Ras-yel-Ain o'rtasidagi vodoprovod qoldiqlari hozirgacha saqlanib qolgan); qamal paytlarida yomg'ir suvlarini katta idishlarga to'plashga to'g'ri kelgan. Orol ikki bandargohga — shimolda Sidon va janubiy-g'arbda Misr bandargohlariga ega bo'lgan; so'ngisi hozirda qumlar bilan qoplangan bo'lib, orolning bir qismini dengiz yuvib ketgan.

Mil. avv. XVII asrda filistimliklar tomonidan Sidon vayron qilinganidan so'ng Finikiya shaharlari o'rtasida birinchi o'ringa Tir shahri chiqib oladi. U savdoda asosiy rol o'ynay boshlaydi. O'cta yer dengizining g'arbiy yarmidagi deyarli barcha Finikiya koloniyalari ([Kadis](#), [Utika](#), [Karfagen](#) va ko'plab boshqalari) Tirning gegemoniyasini tan oladilar. Ularning Melkart xudosini o'zlariniki deb tan oladilar va uning ibodatxonasiha har kunlik o'lpon jo'natib turadilar. Tirga qarshi bosh ko'tarishga uringan Utika, shaharning tashkilotchisi va bezatuvchisi hamda dono siyosatchi sifatida mashhur bo'lgan [Xiram II](#) (mil. avv. [969—936 yy.](#)) tomonidan bostiriladi. Xiram 53 yil yashaydi va 34 yillik podsholikdan so'ng vafot etadi. U tashqi siyosatda Sidondan keyin Tir gegemonligini o'rnatadi. Kittiyalar (Kipr aholisi) bilan jang qiladi va Dovud davridan boshlab Isroil-Yahudiy podsholigi bilan ittifoq tuzadi. Aynan Xiramning podsho Sulaymon bilan do'stligi sabab, tirliklar yahudiylargacha Sulaymon ibodatxonasini qurishda yordam beradi.

Undan keyin boshlangan isyonlar taxtga Isroillik Axavaning qaynog‘asi, Iyezavelning akasi uzurpator Ittobal II kelmaguncha davom etadi. Uning davrida Ossuriya podshosi Ashshurnatsirapal II o‘zining yurishlarida G‘arbda Nar-yel-Kelbgacha (mil. avv. 876 yy) yetib boradi. Tir undan katta pul evaziga qutilib qoladi. Ittobal ossuriyaliklardan himoyalanish uchun Botrisga asos soladi, so‘ngra Isroi podshosi Omri bilan ittifoq tuzadi va Liviya Avzuga koloniya jo‘natadi. Uning nevarasi Mattan II davrida Salmanasar III Tirdan sovg‘alar olib turadi (mil. avv. 842 yy), keyingi hukmdor Pigmalion (antik tarixchilar uning singlisi Yelissa, yoki Didonani Karfagennenning asoschisi deb ataydilar) davrida Ramman-Nirarning (mil. avv. 804 va 801 yy.) yurishlari bo‘ladi, bu safar ham hadyalar bilan qutulib qoladi. Ossuriya podshosi Tiglatpalasar I ga Tir 150 talant to‘laydi. Bu haqda Tir podsholari Xiram II va Matton I larning (738 va 734 yy.) annallarida eslatib o‘tilgan. Ulardan so‘ng Tir hukmdori ajralib chiqqan kittiyatlarni bo‘ysundirgan.

Ossuriya podshosi Sargon I Tirni bo‘ysundirgani bilan maqtanadi. Lekin Sinaxxerib Nubiya-Misr fir’avni Taxarka va Yahudiya podshosi ezekiy o‘rtasidagi ittifoqqa suqilib kirgan elulayni bo‘ysundirishni uddalay olmadi. Faqatgina Sinaxxerib tomonidan mil. avv. 701 yilda ossuriyaliklar Tir shahrining materik qismini egallaganida elulay qochib ketadi, tez orada u ushlanadi va qatl qilinadi. Assarxaddon davrida Tir podshosi Vaal I dastlab Ossuriyaga bo‘ysunadi va unga Sidonni egallahida yordam beradi. Mil. avv. 675 yilda Tir boshqaruv ishlarida muhim qarirlarni Ossuriya kuzatuvchi-rezidenti va oqsoqollar kengashisiz qabul qilish huquqidан mahrum qilinadi. Biroq keyinchalik Vaal Misrga qo‘silib oladi. U qamat qilinadi, lekin Assarxaddonning Sendjirlik barelefida Taxarka bilan podshoning oyoqlari ostida arqonda bog‘langan holda tasvirlanganiga qaramay (Berlin muzeyi) aftidan bo‘ysundirilmagan. Lekin Ashshurbanipal davrida Vaal II ossuriyaliklarga itoat etib, qizi va o‘g‘lini garov sifatida berishiga to‘g‘ri keladi.

Doimiy qamallar va urushlar shaharni zaiflashtiradi. Taxminan mil. avv. IX asrda qullar bundan foydalaniib qo‘zg‘olon ko‘taradi va zodagonlar tajovuz qurbaniga aylanadilar. Bu qo‘zg‘olon haqidagi antik an‘analarda (Yustin) saqlanib qolgan kam sonli ma‘lumotlarga ko‘ra qullar qo‘zg‘oloni hukmonron tabaqaning erkak vakillarini to‘liq yo‘q qilinishiga, ayollar va bolalarmi esa qo‘zg‘olonchilar o‘rtasida taqsimlab olinishiga olib keladi; podsho sifatida Abdastart (yunoncha Straton) tanlanadi.

### **1.3.Shahar-davlatlarning tashkil topishining asosiy bosqichlari.**

Mecopotamiya (qadimda yunoncha - “Ikki daryo oralig‘i”) Fors qo‘ltig‘i, Arabiston, Suriya, Armaniston Tavri va sharqda Zagros tog‘lari bilan chegaralangan. Iqlimi sug‘orma dehqonchilikka qulay hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda bog‘dorchilik ham keng tarqalgan hududdir.

Mil. av. XI-VIII ming yilliklarda Dajla va Frot daryolarining vodiylariga qo‘shni tog‘li hududlarda termachilik, hayvonlar va o‘simliklarni ilk madaniylashtirish jarayoni boradi. Ilk paxsa binolar paydo bo‘ladi. Bu davrda Zavi-Chemi-Shanidar, Mifat ziroatchilik manzilgohlari paydo bo‘lgan edi.

Mil. avv. VI ming yillik o‘rtalarida Shimoliy Mesopotamiyada Xassun madaniyati rivojlanadi. mil. av. IV ming yillik oxiri-III ming yillik boshlarida Jamdat-Nasr madaniyati davrida toshdan tashqari mis va bronza mehnat qurollari ishlatila boshlandi.

Mil. av. III ming yillikda Mesopotamiya janubida shumerlar, Dajla va Frot (qadimda “Uruttu” - mis daryo) daryolarining o‘rtalari qadamlar, shimolda xurritlar taraqqiyotda ildam qadam tashladilar. Shimolda yirik shahar markazlari Ashshur, Mari, Nineviya va boshqa shaharlar paydo bo‘ldi. Mil. av. III ming yillikning birinchi yarmida Mesopotamiya janubida qator shahar-davlatlar: Eredu, Ur, Larsa, Uruk, Kish, Nippur, Adab va boshqalar paydo bo‘ladi. Hunarmandchilik yuqori darajada rivojlanadi. Metallurgiya sanoati birinchi o‘ringa chiqib oladi. Metall quyish, kavsharlash, payvandlash usullari o‘zlashtiriladi. Savdo hunarmandchilikdan ajralib chiqadi. Jamoada maxsus savdogarlar-tamkarlar faqat tovar ayrboshlash bilan shug‘ullana boshlaydilar. Yerni sotish va sotib olish boshlanadi. Qulchilik munosabatlari rivojlanadi. Urushlar qulchilikning asosiy manbai bo‘lgan. Qullar “begona mamlakat erkagi (ayoli)” degan ideogrammalar mavjud bo‘lgan. Qullar xo‘jalikning turli sohalarida ishlatilgan. Ulardan asosan qo‘l mehnati uy ho‘jaligida keng foydalanilgan.

Shumer jamiyatida qullardan tashqari, o‘z yeri bo‘lmagan yoki yeridan ajralganlar, boshqa jamoalardan kelganlar, kambag‘al oilaning kichik a’zosi, ibodatxonaga bag‘ishlangan qaram kishilar ko‘p bo‘lgan. Bunday qaram kishilar ibodatxona va xususiy xo‘jaliklarda qullar qatorida mehnat qilganlar. Ilk sulola davrida Shumer jamiyatining hukmron qatlamini quzdorlar tashkil qilgan. Bu qatlamga urug‘ zodagonlari, oliy kohinlar, ma’muriyat vakillari bo‘lgan amaldorlar kirgan. Mayda ishlab chiqaruvchilar qatlamini kichik yer ulushiga ega bo‘lgan hududiy va katta oilalarga birlashgan oddiy jamoachilar tashkil qilgan. Shumer jamiyatida yer egaligi ikki qismdan: jamoa va ibodatxona yerlaridan iborat bo‘lgan.

Shahar hayotida markaziy o‘rinni ibodatxona egallagan. Ilk hokimlar “ensi” (kohin-quruvchi) kohinlardan bo‘lgan. Ibodatxonalar xudo mulki hisoblangan yerlarga egalik qilganlar. Bu yerlar bo‘linmagan va kohinlar ixtiyorida bo‘lgan. Ibodatxonaning bir qism yerlari qaram kishilar tomonidan ishlov berilgan, bir qismi esa, bo‘laklarga bo‘linib, ijaraga berilgan yoki ibodatxona xizmatchilariga, shuningdek, ibodatxonaga xizmat ko‘rsatadigan savdogar-hunarmandlarga xizmatlari uchun foydalanishga berilgan. Ibodatxonaning o‘z harbiy qismi bo‘lib, ularning ta’mnoti ham ibodatxona zimmasida bo‘lgan. Ibodatxonaning katta miqdordagi moddiy mablag‘lari uzoq davom etadigan diniy bayramlarni tashkil qilishga (bu bayramga shaharning barcha aholisi qatnashgan), boshqa qo‘sni shahar-davlatlar bilan mahsulot ayrboshlashga sarflangan. Bir qism mahsulot zaxira sifatida favqulodda vaziyatlar uchun saqlangan. Ibodatxona yer-mulki, uning kirim-chiqimlari qat’iy hisob-kitob qilib borilgan.

Ilk sulola davri (mil. av. XXVIII-XXVII asrlar)da shahar-davlat tepasida «En» (janob) – oliy kohin turgan. Ehtimol, u saylab qo‘yilgan. «En»ning vazifasi kohinlik, ibodatxona ma’muriyatini boshqarish, ibodatxona, shahar qurilishi, sug‘orish inshootlarini barpo qilish va shuningdek, jamoa mulki hamda uning iqtisodiyotini boshqarish bo‘lgan. Mil. av. III ming yillik o‘rtalarida “En” unvoni o‘rniga “Ensi” (“kohin-quruvchi” shahar boshqaruvchisi) va “Lugal” (“ulug‘ odam”, “podsho”, akkadcha “sharru”) paydo bo‘ladi.

«Ensi»ning vazifasi sug‘orish inshootlari va ibodatxonalar qurishga rahbarlik qilish bo‘lgan. Shu sababli, u devoriy tasvirlarda ko‘pincha boshida qandaydir qurilish materiallari bilan to‘ldirilgan savat ko‘targan tarzda tasvirlangan. Jamoa va ibodatxonani boshqarish, soliqlar to‘plash bilan shug‘ullangan, ba’zida ibodatxona harbiy qismini ham boshqargan. «Ensi» vazifasi saylanadigan bo‘lib, shu sababli, uning hukmronligi «navbat» deb atalgan.

«Lugal» funksiyasi «Ensi»dan obro‘liroq va mavqeい kattaroq bo‘lib, yirik shahar, ba’zida shaharlar birlashmasi hukmdoriga nisbatan aytilgan. Ilk sulola davrida oqsoqollar kengashi va yig‘ini hokimni saylagan yoki mansabidan tushirgan. Uning faoliyati ustidan nazorat qilgan. Jamoa a’zoligiga qabul qilgan. Hukmdor oldida maslahat organi bo‘lgan.

Mesopotamiyaning ilk tarixi odatda ikkiga bo‘lib o‘rganilgan ya’ni, suv bosishdan (buyuk to‘fon) oldingi davr va to‘fondan keyingi davr. Afsonalaridan biri podsho Enmebaragesi bo‘lgan.

Mulkiy tabaqalanishning kuchayishi natijasida xalq yig‘inining mavqeい tusha boshlaydi. Hukmdorning iqtisodiy-siyosiy mavqeい o‘sib boradi. Uning asosiy tayanchi qo‘shin bo‘lgan. Bu qo‘shin yaxshi qurollantirilgan 5-6 ming kishini tashkil qilgan.

### **Shumer shahar davlatlari**

Ilk Shumer shahar-davlatlari hududi kichik bo‘lib, odatda u kichik shahar va yaqin atrofdagi qishloq xo‘jalik okrugidan iborat bo‘lgan. Eng qadimgi Shumer shahri Eredu hisoblangan. U bilan birga qadimgi hujjatlarda shimoldagi Sippar, janubdagи Shuruppak tilga olinadi. Mil. ab. 3600 yillarda Shumerda mulkiy tabaqalanish o‘sib, podsho unvoni merosiy bo‘la boshladi.

Mil. av. III ming yillik boshlarida Shumer kichikroq, lekin aholi zinch joylashgan hudud bo‘lgan. Yuqori darajada hosil beradigan sug‘orma dehqonchilik ko‘p sonli aholini ta’minlashi mumkin edi. Uning asosiy markazlari bo‘lgan Ur, Uruk, Larsa, Kish, Lagash va Umma shaharlari bir-biridan bir necha km uzoqlikda joylashgan edi.

Shumer shahar-davlatlari mil. av. III ming yillik boshlaridan shumerlar jezni o‘zlashtira boshladilar. Arxeologlar, shu davrdan Ilk sulola davrini (mil. av. 3000-2300-yillar atrofi) belgilaydilar. Shumer an’anasiga ko‘ra, mamlakat tarixi qaysidir “to‘fon”gacha va “to‘fondan” keyingi davrga bo‘linadi. Haqiqatdan ham, mil. av. 2900-yillar atrofida “to‘fon” yuz bergani Quyi Mesopotamiyada olib borilgan arxeologik qazishmalar orqali o‘z isbotini topdi.

Bir-biriga yaqin joylashgan ikki-uch shahar kichik bir davlatni tashkil qilishi mumkin edi. Shumer tarixini u yoki bu markazning siyosiy yetakchiligiga qarab, mil. av. III ming yillikning birinchi yarmi (Ilk sulola davri)ni uch bosqichga bo‘lish qabul qilingan.

Bu davrda Kish shahri yuksalib, I Kish sulolasi hukmronlik qilgan. Uning hokimlari orasida Shumer afsonalari qahramonlaridan biri etana ko‘zga tashlanadi. Kishning qudrati juda uzoq vaqt xotirada qolib, keyinchalik, ko‘p hokimlar «Kish lugali» unvonga ega bo‘lishga harakat qilganlar. Bu unvonning egasi lugal - “yetakchi” bo‘lgan. Kishning hokimlaridan biri etana (mil. av. XXVIII asr) to‘g‘risida epik rivoyat shakllanib, rivoyatda u ilohiy burgutda o‘zi uchun “tug‘ilish maysasi”ga ega bo‘lish va

voris merosxo‘r olish uchun osmonga xudolar oldiga ko‘tariladi deb hikoya qilinadi (Ilk sulolaning I bosqichi).

Kishning zaiflashuvi Urukning yuksalishi bilan boshlangan. Mil. av. 2600-yillar atrofida Kish shahrining lugali Aggi (yoki Agga) Uruk shahrining eni Gilgamesh tomonidan mag‘lub etiladi. Gilgamesh butun Shumerni birlashtiradi. Rivoyatlarg‘a ko‘ra, u xudoning o‘g‘li bo‘lib, o‘limidan so‘ng, xudo sifatida ulug‘langan (Ilk sulolaning II bosqichi).

Mil. av. 2500 yili Kish podshosi unvoni ulug‘lanadigan bo‘ldi. Shundan so‘ng har bir hukmdor Shumer ustidan nazoratni o‘rnatish uchun Kish lugali bo‘lishi kerak edi.

Ilk sulola davrining uchinchi bosqichida Ur shahri Janubiy Mesopotamiyada yetakchilik qila boshlaydi. Ur shahrida podsho hokimiyati kuchayadi. Hukmdorlar uchun hashamatli sag‘analar qurila boshlaydi. Vaqt o‘tishi bilan ziddiyatlar kuchayishi natijasida Ur zaifashib, qo‘shni Lagash shahri kuchayib ketadi.

Bu shaharning eng asosiy dushmani Umma edi. Keyinchalik Lagash deyarli barcha Shumer shaharlarini bo‘ysundirib, Elam ustidan g‘alaba qozonadi. Mil. av. XXIV asrda Lagashda ensi hokimiyati kuchayadi va u Lagash bosh xodosi Ningirsu ibodatxonasing bosh kohini bo‘ladi. Uning hokimiyati urug‘chilik munosabatlarining yemirilishi, savdo-hunarmandchilikning rivojlanishi natijasida shahar aholisining turli tabaqalari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Ibodatxona xo‘jaliklariga ham soliq solinadi. Hunarmand va jamoachilardan turli majburiyatlarni o‘tash talab qilinadi. Daromad solig‘i ko‘payadi. Lagashda ijtimoiy ziddiyat kuchayadi. Yangi “ensi” Urukagina ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etish uchun islohot o‘tkazadi. Oliy kohinlar soliqlardan ozod qilinadi. Ibodatxonalarining qaram kishilarga natural mahsulot to‘lovi miqdori oshirilib, ularning huquqlari kafolatlanadi. Aholidan olinadigan soliq-to‘lovlar bir qadar kamaytiriladi va ayrimlarini bekor qiladi. Soliq yig‘uvchilar va mansabdor shaxslar sonini kamaytiradi. Urukagina “Lugal” unvonini qabul qiladi. Ammo ichki ziddiyatlar Lagashni zaifashhtiradi. Lagashning ichki qiyinchiliklaridan foydalangan Umma shahri podshosi Lugalzagesi mil. av. XXIV asr oxirida Lagashni bosib olib, butun Shumerda chorak asr yetakchi mavqega ega bo‘ladi. Umma shahar-davlati hududi O‘rtta yer dengizidan Fors qo‘ltig‘igacha (shumercha “Yuqori dengizdan to quyi dengizgacha”) cho‘zilib ketadi.

## Akkad davlatining yuksalishi

Mil. av. 2334 yil Sargon o‘zini “Sharrum-ken” (Asl podsho) deb e’lon qildi. Unga qadar oddiy suv tashuvchining tutingan o‘g‘li (asl otasi haqida ma’lumot yo‘q), o‘zi esa bog‘bonlik qilar edi. So‘ngra Kish lugali Ur-Zababaning xizmatkori (soqiy - sharob quyuvchi) bo‘lgan. Lugalzagessi Kishni egallagach shimolroqda Akkadi shahriga ketadi va kurash olib boradi. Dastlab Sargon (mil. av. 2316-2261 yillar) va uning to‘rt o‘g‘li 150 yil davomida mamlakatni boshqardi. Tarixda birinchi marta Sargon 5400 askardan iborat yengil qurollangan muntazam qo‘shin tuzdi. U Shumer shimolidagi Akkad davlatiga asos soldi. Umma hokimi Lugalzagissi Sargon bilan uzoq urush olib bordi. U kuchli qo‘shin bilan 34 jangdan so‘ng, butun Shumerni istilo qildi. Kish lugali uvoniga ham sazovor bo‘ldi. Sargon podsholigi davrida butun Mesopotamiyani Akkad davlati qo‘1 ostiga birlashtirdi. Bundan tashqari, u Kichik Osiyo, Kipr, Suriya, Elam va hatto

uzoq Janubiy Erongacha harbiy yurishlar qildi. Sargon davlati hududiga teng keladigan biror-bir davlat Ahamoniylargacha bo‘lgan bir yarim ming yil davomida bo‘lmadi.

Sargon davlati Mesopotamiyadagi shahar-davlatlardan farq qilgan holda markazlashgan davlat edi. Sargon va uning vorislari davrida mamlakatda iqtisodiyot, pul-tovar munosabatlari, sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik yuksaldi. Podshoning mustabid hokimiyati urug‘ zodagonlari va oqsoqollar kengashining kuchli qarshiligidagi uchradi. Podsho ularning qarshiliginini sindirish, o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun xizmatdagi zodagonlar, amaldorlar, qisman kohinlarga tayanib ish ko‘rdi. Ba’zi shaharlarning merosiy «Ji» (hokim)lari o‘rniga podsho o‘z kishilarini tayinladi. Sargon o‘zi tashkil etilgan muntazam qo‘shinga g‘amxo‘rlik qildi. Qo‘shindagi askarlarga harbiy xizmati uchun yer ulushi ajratib berdi. Qo‘shinning qo‘llab-quvvatlashi natijasida podsho («Sharrum»)ning mutlaq hokimiyati vujudga keldi. Sargon tashkil qilgan davlatda hokimiyat to‘la unga tegishli bo‘lib, keyin o‘g‘il va nevaralariga meros bo‘lib o‘tishi kerak edi.

Shumer shahar-davlatlarining hududi Sargon davlatining viloyatlari bo‘lib qoldi. Ularning tepasida turgan ensi yoki lugal podsho noiblari hisoblanar edi. Ibodatxona xo‘jaligi va mulklari esa podsho davlat xo‘jaligining bir qismi edi. Sargonning qo‘lida katta miqdorda iqtisodiy kuch to‘planib, uning yordamida ichki siyosat va faol tashqi siyosat yuritish uchun harbiy qismlarni saqlab turish mumkin bo‘ldi.

Podsholar markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun merosiy «yensi»larni o‘z o‘g‘illari bilan almashtirdilar. Merosiy hokimlar oddiy amaldorlar darajasiga tushirildi. Podsho ichki siyosatda kohinlarga suyandi. Kohinlarga ko‘plab imtiyozlar berildi. Podsho va uning o‘g‘illari ibodatxona kohinlari lavozimini bajarganlar. Sargon davrida yangi kanallar qurildi. Sug‘orish inshootlari umumdavlat miqyosida rivojlantirildi. Yagona o‘lchov va og‘irlik o‘lchov birliklari joriy qilindi. Akkad Hindiston va Sharqiy Arabiston bilan savdo aloqalarini o‘rnatdi. Sargon hukmronligining so‘nggi yillarda mamlakatda boshlangan ochlik katta g‘alayonlarga olib keldi. Mil av. 2279 yili vafot etadi va shu zahoti siyosiy inqiroz boshlanadi.

Podsho Sargon I ning vorisi Rimush (mil. av. 2261-2252 y.) Shumer urug‘ zodagonlarining markaziy hokimiyatga qarshi ko‘targan isyonlarini shafqatsizlik bilan bostirdi. Isyonchi shaharlarga qarshi Rimush uch marta yurish qiladi. Rimush isyonchi shaharlar Umma va Derning 13 mingga yaqin aholisini qirib tashladi. U ichki siyosatda kohinlarga tayanishga harakat qilib, ularga ko‘p hadyalar qildi. Elamga bir-necha yurishlarni amalga oshirdi. Ammo Rimush o‘z yaqinlarining fitnasi (zodagonlar uni tosh muhrlar bilan urib o‘ldirganlar) qurban ni bo‘ldi. Uning ukasi Manishtusu qator qo‘zg‘ololnarni bostirishga majbur bo‘ldi. U Elamga ikki marta bostirib kirdi. Fors qo‘ltig‘ining sharqiy qirg‘og‘i tomon dengiz orqali yurish qildi. U podsho hokimiyatini mustahkamlash uchun jamoa yerlarini sotib olib, davlat yer zaxirasini kengaytirdi. Podsho xo‘jalik tizimining asosini qo‘ydi. O‘n besh yillik hukmronlikdan so‘ng, Manishtushu ham yangi saroy fitnasi natijasida o‘ldirildi. Taxtga uning o‘g‘li, Sargonning nabirasi Naram-Suen (mil. av. 2236-2200 yillar) o‘tirdi. Naram-Suen ham podsho hokimiyatini mustahkamlash uchun isyonchi shaharlar, “ensi”lar, urug‘ zodagonlariga qarshi muntazam kurash olib borishga majbur bo‘ldi. Akkadning

yuksalishidan norozi bo‘lgan janubdagagi shaharlar qo‘zg‘olon ko‘tardi. Bu qo‘zg‘lonlar uzoq vaqt davom etib, zo‘rg‘a bostirildi.

Naran-Suen davrida Akkadning yuksalishi kuzatildi. Mesopotamiya shaharlari to‘la Sargon sulolasi hukmi ostiga o‘tgach, Naram-Suen o‘zini “Akkadning qudratli xudosi” deb ulug‘lab, o‘zini relyeflarda ilohiylik ramzi bo‘lgan shoxli bosh kiyim bilan tasvirladi. Aholi unga iloh sifatida sajda qilishi lozim edi. Uni yana “to‘rt iqlim podshosi” va ”Olam poshosni”, - deb ulug‘lashgan.

Naram-Suenning vorisi Sharkalisharri (“Barcha podsholar podshosi”, mil. av. 2200-2176 yillar) taxtga o‘tirdi. Akkad davlati ohirgi marta yuksaladi va mamlakat chegaralari kengaygan. Uning davrida Akkad davlatining yemirilishi boshlandi. Istilochilik urushlari, haddan tashqari ko‘p sarf-xarajatlar, shaharlarning g‘alayonlari mamlakat iqtisodiyotini izdan chiqardi.

Akkad podsholigining qudratiga Mesopotamiyaga Zagros tog‘laridan bostirib kirgan tog‘li qabilalardan bo‘lgan qutiyalar chek qo‘ydi. Boshida Naram-Suen ularni og‘ir janglarda yengib, mamlakatdan haydab chiqargan edi va o‘zi shu urushda halok bo‘ldi. Ammo qutiyalar Naram-Suenning vorislari davrida Sargoniylar hokimiyatining zaiflashganidan foydalaniib, yana Mesopotamiyaga bostirib kirdilar. Mamlakat qutiyalar tomonidan talon-taroj qilindi. Shumerning mahalliy hokimlari ularga xiroj to‘ladilar. Lagash hokimlari qutiyalar yordamiga tayanib, boshqa shaharlar ustidan ma’lum darajada hukmronlik qildilar. Janubiy Mescopotamiyada Lagashning zo‘ravonligi boshqa shahar-davlatlarning noroziligiga uchradi va qutiylardan ozod bo‘lish vaqtida qo‘shni shahar-davlatlar tomonidan Lagash shahri shafqatsiz buzib tashlandi.

Gutiylar davrida Lagash hokimi bo‘lgan Gudea (mil. av. 2137-2117 yillar) o‘zining yozuvlari va haykallari bilan ma’lum. Uning davrida Ningirsu xudosi ibodatxonasi atrofida yagona ibodatxona xo‘jaligi tashkil etilgan edi. Gudea bu xudo uchun olinadigan maxsus soliq joriy qildi va qurilish majburiyatini kiritdi. Gudea Hind daryosi havzasi viloyatlari bilan savdo qildi va Elam bilan urush olib bordi.

Gutiylar Mesopotamiyada yuz yilga yaqin hukmronlik qilganlar. Mil. av. 2109 yil qutiyalar Ur podshosi Utuxengal tomonidan tor-mor qilinadi va III-Ur sulolasi hukmronligi boshlanadi. Utuxengalning safdoshi Ur-Nammu (mil. av. 2106-2094 yillar) va uning o‘g‘li Shulgi (mil. av. 2093-2046 yillar) o‘z davlatlarini misli ko‘rilmagan darajada mustahkamladilar va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirdilar.

Ibodatxona-zikkuratlar va podsho sag‘analari quriladi. Podsho Shulgi davrida Ur shahrida ulkan zinapoyasimon minorali ibodatxona “zikkurat” qurilgan. Uning saqlanib qolgan birinchi qavati hajmi 65-43 m, balandligi 10 m edi. Ur shahrining mudofaa devori bo‘lgan. Hunarmandchilik bilan shug‘ullanadigan podsho ustaxonlari ishi yo‘lga qo‘yildi. Tashqi savdo kengaytirildi. O‘lchov birliklari tartibga solindi.

Buzilgan sun‘iy sug‘orish tizimi to‘liq qayta tiklanib, yangi-yangi kanal va to‘g‘onlar qurildi. Katta hajmdagi chorvachilik, dehqonchilik xo‘jaliklari tashkil qilindi. Mesopotamiyada ekin yerlarining katta qismi ibodatxonalar yerlari davlat qaramog‘iga o‘tkazilib, yersiz va kam yerli odamlar bu xo‘jalikda ishlatalar edi. Urning III sulolasi davrida asosiy yer zaxirasi podshoniki hisoblangan. Katta mamlakat xo‘jaligi Mesopotamiyani barcha ibodatxona yerlarini birlashtirib, markazdan turib boshqarilgan.

Urning boy arxivida barcha ibodatxona yer-mulklarining bat afsil xatlangan hujjatlari saqlanib qolgan. Ibodatxona yerlariga ishchi guruhlari mehnat qilganlar. Ularning ish miqdori qat’iy belgilanib, shunga yarasha mahsulot ulushi olganlar. Urdagi minglab mixxat hujjatlari eng mayda xo‘jalik operatsiyalari ustidan qattiq nazorat o‘rnatalganidan guvohlik beradi. Misol uchun, o‘sha davrda podsho oshxonasi uchun hisobdan chiqarilgan ikkita kabutar to‘g‘risidagi mas’ul xodim va nazoratchilar muhri bosilgan mixxat hujjati ma’lum. Jamoa yerlari xususiy qo‘llarga o‘ta boshlaydi. Podsho jamoachilarini xonavayron bo‘lishi jarayonini sekinlashtirish uchun jamoa yerlari oldisottisini ta’qiqlaydi. Ammo yersizlanish kuchayib ketadi. Kambag‘allarning o‘z bolalarini qul qilib sotishi, qarz uchun vaqtincha qul bo‘lish odatdagi hol bo‘lib qoladi. Qullar ko‘payib ketadi. Ijtimoiy tabaqalanish kuchayib ketadi. Tabaqalar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarni barqaror qilish maqsadida III-Ur sulolasini davrida yozma qonunlar to‘plami yaratilgan. Bizgacha uning ayrim parchalari yetib kelgan.

### **1.5. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston va Xitoyda inson va hukumat.**

*Qadimgi Misr* tarixida ilk bor sinfiy tabaqalanish mil. av. V ming yillikda, Nil vohasini o‘zlashtirilishi natijasida yuzaga keladi. “Sulolagacha bo‘lgan davr” Misr tarixida ikkiga bo‘linadi. YA’ni, “Amrat” (Negada I) va “Gerzey” (Negada II) davrlariga bo‘lib o‘rganilgan. Ushbu madaniyatlar Qadimgi Misrda irrigatsiyani o‘sishi va chorvachilikning ovchilikdan ustun kela boshlashi davri haqida ma’lumot beradi. Hunarmandchilik tobora dehqonchilikdan uzoqlashib boradi va oqibatda Qadimgi Misr jamiyatida differensiatsiya jarayoni yanada o‘sib boradi. Aynan mana shu davrda Nil daryosi qirg‘oqlarida ilk davlatchalar (“sepat” yoki “nom”) paydo bo‘ladi. Shu tariqa ilk quldarlik davlati paydo bo‘lishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy zamin yaratildi.

Nomliklar soni Nil bo‘yi aholisining o‘sishi bilan bevosita bog‘liq edi. Ularning hududiy chegaralari doimiy tusga ega bo‘lmaganligi tarixdan ma’lum. Har bir nom dastlab mustaqil ichki va tashqi siyosat yurgizgan. Nil bo‘yi davlatchalarini “nomarx”lar tomonidan boshqarilgan. Nomlik o‘z gerbi (yoki aniqroq qilib aytganda totem), diniy va siyosiy markaziga hamda harbiy qismlariga ham ega edi.

Natijada ichki urushlar (misrshunoslikda “nol sulolasini”) davrida har bir nomarx oliy hukmronlikka intildi. Umumiyligi 42 nomlik ikkiga ya’ni, Yuqori Misr va Quyi Misr davlatiga birlashadi. Madaniy jihatdan ushbu davlatlar bir-biridan farq qilgan deb bo‘lmaydi. Ammo, diniy va siyosiy mafkurasida sezilarli tafovut bo‘lganligi tarixdan ma’lum. Qadimda iyerogliflarda misrliklar mamlakatini “Ta-kemet” yoki “Ta-ui” deb ataganlar. Nil daryosi oqimi olib keladigan unumdar tuproqqa mamlakat taqdiri bog‘liq bo‘lgan.

Ilk podsholikni (mil. av. XXX-XXVIII asrlar) Misrning Tinis nomligidan chiqqan Menes (Axa yoki Mina) tuzadi va birlashtiradi. Poytaxt sifatida Memfis tan olinadi. Dastlabki 1-sulolaga asos solinadi, shunday bo‘lsa-da Yuqori va Quyi Misr o‘ziga xos muxtoriyatni saqlab turgan. Ilk podsholik davrida misrliklar hayotida urug‘chilikni ta’siri hali kuchli bo‘lgan va ular asosan tosh, mis mehnat qurollaridan ko‘proq foydalanishgan, bronza esa kam edi. Nomliklar orasidagi separatizmni fir’avnning siyosiy mavqeい muvozanatda ushlab turgan.

Ilk podsholik fir'avnlari Jer (mil. av. 2970-2923 y.), Uadji (mil. av. 2922-2915 y.), Den (mil. av. 2915-2910 y), Ajib (mil. av. 2910-2900 y), Semerxet (mil. av. 2900-2890 y)lar davrida Misr davlatchiligi asoslari mustahkamlandi. 1-sulolaning so'nggi podshosi Kaa (mil. av. 2890-2864 y.) Abidos yaqinida Umm al-Kaab nekropoli yonida o'ziga mahobatli mastaba qurdirgan.

Fir'avn Kaa o'limidan so'ng 2-sulolaga Xotepsexemui asos soladi. Davlat boshqaruv tizimi din bilan ajralmas tusga ega bo'lgani uchun, ijtimoiy tabaqalanishning qonuniylashuvi rivojlanib bordi. Xotepsexemuidan so'ng Raneb, Ninecher, Veneg, Sened, Nubnefer, Paransin va boshqa fir'avnlar Misrni boshqardilar. Ularning hukmronligi xronologiyasi borasida hozir ham misrshunoslar orasida qarama-qarshi fikrlar mavjud.

2-sulolaning so'nggi fir'avni Xasexemui (mil. av. 2686-2648 y.) o'z podsholigini Deltadagi (Quyi Misr) qo'zg'oltonni bostirishdan boshladi. Natijada 48205 kishi o'ldirildi va 47209 kishini asir oladi. So'ngra Yuqori va Quyi Misr yagona davlatga yana birlashtirildi. Markaziy hokimiyatning o'rni avvalgiga qaraganda ancha oshdi. Nubiya yurishlar qilindi. Shu tariqa Qadimgi Misr tarixida Ilk podsholik davri o'z nihoyasiga yetadi.

Qadimgi podsholik davri (mil. av. XXVIII-XXIII asrlar)da Misr yirik markazlashgan davlat bo'lib, Sinay yarim orolini qo'shib olgan. Janubiy Falastin va Nubiyan o'z ta'siri ostiga olgan. Misrliklarning aytishiga ko'ra, ularning tarixini eng yorqin davri III sulolaning eng atoqli hukmdori, Qadimgi podsholik davlatchiligining asoschisi Joser hukmronligi davri (mil. av. XXVIII asr boshlari) edi.

Fir'avn Josergacha Misr hukmdorlari xom g'ishtdan qurilgan yassi bino-mastaba (arabcha-o'tirg'ich)ga dafn qilar edilar. Joserning maqbarasi ilk ehrom shaklidagi biri ustidan ikkinchisi ustma-ust qo'yilgan zinapoyasimon 6 mastabadan (balandligi 60 metr) iborat bo'lib, ohaktoshdan bunyod qilingan edi. Joser piramidasini Sakkara hududida saroy me'mori, bosh maslahatchi Imxotep qurdirgan. Joser davrida Imxotep ishtirokida yangi yil hisobi Sirius yulduzini tongda paydo bo'lishiga asoslangan yangi taqvim joriy qilinadi. Joserdan keyingi fir'avnlar Memfisdan g'arbda o'z piramidalarni qurdilar. Fir'avn Snofruning vorislari davrida ulug'vor piramidalarni qurilishi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ishga aylanadi. Fir'avn Xufu (yunoncha-Xeops) eng katta, balandligi 147 metr bo'lgan piramidi bunyod qiladi. Uning o'g'li Xafra (Xefren) qurgan piramidaning balandligi (143 m.) sal pastroq edi. Eng so'nggi ulug'vor piramida Xafraning o'g'li Menkaura (Mikerin) tomonidan qurilgan bo'lib, balandligi 66 metr edi. Ehromlarlar ohaktoshlardan qurilib, granit plitalar bilan qoplangan. Ehromlar qurilishiga yuz minglab kishilar jalb qilingan. Ular qurilish yaqinida bunyod qilingan shaharchada yashaganlar. Quruvchilar uchun ovqat tayyorlaydigan, non yopadigan yuzlab kishilar xizmat qilgan. Ehromlar yaqinidan non yopilgan tandirlar, ovqat tayyorlanadigan o'choqlar qoldiqlari topilgan. Ehrom qurilishida oddiy ishchidan boshqaruvchi lavozimigacha ko'tarilish mumkin bo'lgan. 5-sulola fir'avnlari (XXVI-XXV asrlar) ulkan ehromlar qurishdan voz kechdilar va kichik ehromlar barpo qila boshladilar. Sulolaning so'nggi vakili Unas birinchi bor o'z ehromi ichiga fir'avn o'limidan keyin, u dunyoda yashashi bilan bog'liq an'ana formulalarini keng to'plami yozuvlarni – piramida matnlarini kiritdi.

IV-sulolaning asoschisi Snofru (mil. av. 2600-yillar atrofida) Sinay va Nubiyaga g‘olibona yurishlar uyuşhtiradi. Misga boy bo‘lgan Sinay Misrga to‘la qo‘shib olinadi.

Rivoyatlarga ko‘ra, Xufu va Xafra barcha Misr ibodatxonalarini yopganlar hamda yangi umum davlat Quyosh xudosi Raga sig‘inishni joriy qiladilar. Bu sulola vakillari keng hajmdagi ulkan qurilishlardan voz kechdi. Xudo Raga sig‘inish markazi Geliopol (misrcha- Iunu) shahri edi. Ibodatxonalar ekin yerlarini hadyaga olgan. 5-sulola davrida misrliklar Sinay va Nubiyada o‘rnashib qolaverdilar. Liviyada urush olib boradilar va Sharqiy O‘rta yer dengizi bilan savdo qilishadi. Podsho Isesi davrida Baurjed nomli misrlik uzoq Punt (hozirgi Somali) mamlakatiga sayohat qiladi. VI sulola davrida (mil. av. XXIV-XXII asrning boshlari) tashqi siyosat yanada faollashdi. Uning podsholari Falastinga qo‘shin tortdilar. Bibl shahri misrliklarning tayanch nuqtasiga aylandi. Uning hokimlari Misr unvonlarini qabul qilib, Misr xudolariga sig‘inadilar. Nubiyadan misrliklar oltin olib keldilar.

Qadimgi podsholikning gullab-yashnagan davrida fir‘avn hokimiyati bag‘oyat qudratli bo‘lib, u nafaqat oddiy misrliklar uchun, balki fir‘avnning eng yaqinlari uchun ham yetishib bo‘lmaydigan balandlikda turar edi (bir oliy amaldor qabr toshi yozuvida unga faqat podsho taxti oldidagi yerni emas, balki fir‘avnni oyog‘ini o‘pishga ruxsat berilganini faxrlanib yozadi). Fir‘avnning qo‘lida bepoyon yer zahirasi, oziq-ovqat va ishchi kuchi to‘plangan bo‘lib, bular uning qudratli hokimiyatini asosi edi. Xufu va uning avlodlari “Ra o‘g‘li” unvonini qabul qiladilar. Misrning qonuniy podshosi “Quyosh xudosini yerdagi ayol bilan yaqinligidan tug‘iladi” degan tushuncha shakllanadi. Hech kimga podshoni muqaddas nomini aytishga ruxsat berilmagan. Chunki misrliklar e’tiqodiga ko‘ra, uni nomini aytish fir‘avnga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan. Shu sababli, uni nomi boshqacha “ulug‘ uy”, “katta uy” (per-o, fir‘avn so‘zi shundan kelib chiqqan) deb atalgan. Fir‘avn odam qiyofasidagi xudo deb tasavvur qilingan. U xudo Xor (Gor)ning ifodasi, xudo Raning o‘g‘li, u o‘limidan keyin xudo Osiris sifatida ulug‘langan va unga sig‘inish uchun sag‘ana-piramidalar oldida ibodatxonalar qurilgan. Fir‘avn oliy bosh kohin vazifasini ham bajargan. Fir‘avnlar o‘zlarini ilohiy “Quyosh” bilan qarindosh ekanliklariga ishonganlar va o‘zlarini “samoviy hukmdor” deb e’tirof etganlar. Oddiy xalq uchun fir‘avn “katta xudo”, “samo hukmdori” deb ulug‘langan.

Joserning vorislari davrida fir‘avn tomonidan qattiq nazorat qilinadigan davlat boshqaruvi apparatini shakllanishi tugallanadi. Nomlarning mustaqilligi tugatildi. Nomarxlар fir‘avnga qaram bo‘lib, bir nomdan ikkinchisiga almashtirib turiladigan oliy amaldorlarga aylantirildilar.

Qadimgi Misrda davlat boshqaruvi uch bo‘g‘indan iborat bo‘lgan: markaziy, viloyat (nom), mahalliy (qishloq-jamoa). Nomlar boshqaruvi markaziy boshqaruvni kichikroq ko‘rinishidagi nusxasi bo‘lgan. Ko‘p hollarda nomarxlар markazdan ajralib chiqishga intilgan. «Jad-jad», «Kanbet» atamalari jamoa kengashlari nomini bildirib, ular mahalliy sug‘orish tizimini kuzatish bilan birga, jamoada sud ishlarini ham amalga oshirganlar. Oila huquqi, jamoa kengashlari va yuqori hokimiyatga bo‘ysundirilgan va ularning a’zolari kichik amaldorlarga aylanganlar. Davlat boshqaruvi tizimi despotiya, ya’ni fir‘avnning tanho hukmronligiga asoslangan. Fir‘avnning eng yaqin yordamchisi oliy amaldor – chati (bosh vazir) bo‘lgan. U barcha amaldorlarga rahbarlik qilgan.

Shuningdek, u sun’iy sug‘orish ishlarini tashkil etgan. Chorva mollarini nazorat qilish, hunarmandlar, harbiy ish, soliq majburiyatlarini, qurilish ishlarini nazorat qilish ham vazirning zimmasiga yuklatilgan. Fir’avn oyoq kiyimini olib boruvchi lavozimidagi amaldor bir vaqtning o‘zida qo‘shin bosh qo‘mondoni, saroy oqsoqoli, Yuqori Misrning boshqaruvchisi, bino quruvchi, biror-bir ibodatxonaning bosh kohini vazifalarini ham bajargan. Fir’avn o‘zini oddiy xudo emas, balki “katta xudo” deb ulug‘ladi. VI sulola davrida podsho hokimiysi zaiflashgan vaqtida ham Misr podshosi barcha xudolardan ko‘ra, ulug‘roq deb e’tirof etganlar. Yuqori lavozimli amaldorlarning vazifa doiralari kengayib, qisqarib turgan. Ular faqat harbiy boshliq bo‘la olmaganlar. Zodagonlar yuqori lavozimlarni egallagan bo‘lsalar-da, hunarlarni egallahdan tortinmaganlar. Ular ustaxonalarga, qurilish ishlariga boshchilik qilganlar.

Qadimgi podsholik davrida harbiy ish rivojlangan edi. Qo‘sinning asosiy quroli – o‘q-yoy bo‘lgan. O‘q zahirasi yaratilib, maxsus joyda saqlangan. Sinay yarim oroli va Efiopiya (Nubiya) chegaralarida chegara harbiy qismlari turgan. Ko‘ngilli qo‘singa alohida harbiy boshliqlar boshchilik qilgan. Qo‘sing erkin misrliklardan to‘planib, o‘q-yoy, nayza, kalta qilich bilan qurollangan piyodalardan iborat bo‘lgan. Chegaralarda garnizonlar turgan. Qo‘sing asosan ko‘ngilli to‘plangan piyoda bo‘lib, fir’avning vakolatli odami va harbiy bo‘limgan mansabdar shaxslar boshchiligidagi yurishga chiqqan. Askarlar oddiy kamon va o‘qlar bilan qurollanganlar.

Oddiy xalqning yashash manzillari ham oddiy bo‘lgan. Qadimgi podsholik davrida uylar tor bo‘lib, xom g‘isht va loydan qurilgan. Bu davrda uyning poli loy bilan suvalgan. Ko‘hna tasvirlarda Qadimgi podsholik oddiy odamlari bellarini bir parcha mato bilan o‘rab yurganlar yoki oddiygina oldingi tomonni ola lattali belbog‘-kamar ilganlar. Ovchilar va baliqchilar gavdani beldan yuqori qismini yopganlar, chunki ularning mashg‘ulotlari shuni talab qilgan.

Bu davrda, ayniqsa, Quyi Misrda bog‘dorchilik, poliz ekinlari (sarimsoq, bodring, piyoz, har xil ko‘katlar) ekilib, uzumchilik keng tarqalgan. Misrliklar xo‘jalik tarixida birinchi bo‘lib asalarichilikni kashf qildilar. Yuqori Misrda asosan donli ekinlar yetishtirilib, ularning bir qismi Nil daryosi bo‘ylab shimolga jo‘natilgan.

Qadimgi podsholik davrida podsho xo‘jaligi, ibodatxona xo‘jaligi va xususiy xo‘jalik, qishloq-jamoa xo‘jaliklari mavjud bo‘lgan. V-VI sulolalar davrida zodagonlarning yirik xo‘jaliklari iqtisodiy hayotda ustuvor o‘rinni egallagan. Misrning ko‘pchilik aholisi zodagonlarning katta-katta ekinzorlarida, hunarmandchilik ustaxonalarida ishlaydigan qaram ishchilar edi. Ularni o‘z xo‘jaligi bo‘lmay, o‘z mehnatlari uchun oziq-ovqat ulushi olganlar va o‘z ixtiyorlari bilan ish joyini tashlab keta olmas edilar. Xususiy kishilarga qaram qullar oz bo‘lgan. O‘rta va past darajadagi amaldorlar ish haqini natura tarzida olar edilar. Mil. av. III ming yillik o‘rtalarida oliy amaldorlarga davlat xo‘jaligidan yirik yer maydonlari muntazam foydalanishga berilgan. U ko‘pincha mansab bilan birga, otadan o‘g‘ilga meros bo‘lib o‘tgan. ularning ixtiyoridagi davlat yerlari davlatning oliy nazorati ostida turgan. Ishchilar davlat tomonidan mehnat majburiyati tartibida sug‘orish inshootlari, qurilish va boshqa ishlarga jalg qilinganlar.

Qishloq-jamoa yerlari ham mavjud bo‘lgan. Qishloq-jamoa a’zolari «podsho odamlari» hisoblanib, turli soliq va majburiyatlarini o‘taganlar. Jamoa a’zolari va

hunarmandlar «nesu» yoki «xentiushi»; fir’avn, zodagonlar va ibodatxonalar ishchilari «meret» yoki xemu» deb atalgan. Qullarni urushda asirga tushganlar yoki qarzga botgan kambag‘allar tashkil qilgan. Ular sotilgan va sotib olingan, ammo Qadimgi podsholik davrida qullar kam sonli bo‘lgan.

Aslzodalar, nomlarning noiblari (nomarxlar) fir’avn hokimiyatini kuchayishidan norozi bo‘lib, ko‘p hollarda markaziy hokimiyat – fir’avn siyosatiga qarshi chiqar edilar. Shu sababli, ularni qarshiligin sindirish uchun fir’avnlar tomonidan markaziy boshqaruvga mahalliy va xizmat zodagonlari jalb qilinib, diniy siyosat ham o‘zgardi. Xudo Raga bag‘ishlab ibodatxonalar qurish kuchaydi. Endi fir’avnni ilohiyligi uning xudo Radan bevosita kelib chiqqanligi g‘oyasi ilgari surildi.

Mil. av. XXIV-XXIII asrlarda nom (yoki sepat) va xizmatdagi zodagonlarning mavqeい oshib bordi. Ularning ko‘pchiligi soliq majburiyatlaridan ozodlik yorlig‘ini oldilar. Markaziy hokimiyatning qudrati zaiflashdi (6-sulola davridan), lekin mahalliy hokimiyat-nomlar katta moddiy boyliklarga ega bo‘ldilar. VI suloladan so‘ng Misrda (mil. av. XXIII asr o‘rtalari) markaziy hokimiyat zaiflashib, mamlakat bir-biriga dushman nomlarga bo‘linib ketdi. Qadimgi podsholik davri yagona davlatni yemirilishi bilan Misr tarixida I-O‘tish davri (mil. av. XXII asr boshlari–XXI asrning oxiri) boshlanadi. Davlatning zaiflashuvi Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada keskin tabiiy o‘zgarishlar – quruq iqlimni bostirib kirishi bilan tezlashib ketdi. Nil daryosining suvi pasaydi. Bu hosilni kamayishi, ochlik va oxir-oqibatda, ijtimoiy norozilikning kuchayishi va davlatning yemirilishiga olib keldi.

Hind daryosining g‘arbida neolit davrida (mill. avv. VII-VI ming yilliklar) aholi dehqonchilik bilan shug‘ullana boshlaydi. Vodiya paxsa uyli kichik qo‘rg‘onlar paydo bo‘ladi. Hind arxeologi Rakxaldas Banerji 1922-yilda Hind daryosi yaqinidan qadimgi shahar xarobasini ochdi. Shahar qoldig‘i tepalik nomi bilan Moxenjo-Daro (“o‘liklar tepaligi”) deb ataldi. Shu yili boshqa hind arxeologi Ray Bahodir Dayaram Saxniy G‘arbiy Panjobda Xarappa shahri xarobalarini ochdi. Keyinchalik, Chanxo-Daro va Kalibangan shahar qoldiqlari qazib ochiladi. Hozirgi vaqtida Hind vodiysi havzasida Hind sivilizatsiyasining bir necha yuz qo‘rg‘onlari ochilgan. Hozirgi kunda bu sivilizatsiya yuqori darajada rivojlangani to‘g‘risida yetarli dalillar to‘plangan. Bu sivilizatsiyaning shahar-qishloqlari ulkan hududda sochilib ketgan: shimoldan janubga 1100 km va g‘arbdan sharqqa 1600 km. Olimlarning hisobiga ko‘ra, eng katta shaharlarda 100 minggacha odamlar yashagan. Shaharlar savdo-hunarmandchilik markazi, ma`muriy hokimiyat turadigan joy bo‘lgan. Aholining ko‘pchiligini tashkil qilgan dehqon, chorvadorlar qishloq joylarida jamoa bo‘lib yashaganlar. Xarappa sivilizatsiyasining xronologiyasi mill. avv. 2500/2300-mill. avv. 1800/1700-yillar deb ko‘rsatiladi.

Xarappa sivilizatsiyasida shaharsozlik qurilish madaniyati yuqori darajada bo‘lgan. Shaharlar qurilishi qat`iy rejalahtirish asosida amalga oshirilgan. Ulkan me`muriy inshootlar, yozuv, o‘lchov va og‘irlik o‘lchovlari tizimi va san’at asarlarini mavjudligi bu davrda davlat va jamiyat tartib-qoidalari rivojlanganligidan dalolat beradi. Asosiy markazlar qazib ochilganda, ular har tomonlama puxta tuzilgan reja asosida qurilgani ko‘rinadi: ko‘chalar bir-biri bilan parallel bo‘lgan, to‘g‘ri burchakda biri ikkinchisi bilan kesishgan, bosh ko‘chalar ancha keng-10 m gacha bo‘lgan. Misol

uchun, Moxenjo-Daro shahri bir necha o'n ming kishi yashaydigan 2 kv. km. maydondan iborat bo'lgan. Uylar 2 qavatlari, kanalizatsiyaga ega. Barcha yirik shaharlar ikki qismidan iborat bo'lgan: shahar ustida ko'tarilgan qal'a va "quyi shahar". Qalada ko'rinishidan shahar hokimiyati (ba`zi olimlarning fikricha, kohinlarning uyi ham shu yerda bo'lgan) joylashgan. Uning yaqinida diniy marosimlar uchun xizmat qiladigan hovuz topilgan. "Quyi shahar"da esa, aholining asosiy qismi yashagan. Arxeolog qazishmalar shaharning ikki qismi o'rtasidagi aloqalar cheklanganligini ko'rsatadi. Oddiy aholini qal'aga kiritmaslik uchun maxsus darvozalar mavjud bo'lgan. Boy shaharliklar, hatto, uch qavatlari uylarda yashaganlar. Aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lib, bug'doyning bir necha navi, tariq va no'xat ekilgan. Bog'dorchilik ham mavjud bo'lgan. Bir necha manzilgohlardan sholining qoldig'lari topilgan. Xarappa qal'asida ulkan g'alla ombori qurilgan. Sug'orma dehqonchilik uchun sun`iy sug'orish tizimi yo`lga qo'yilgan. Yer o'g'itlanib, yilda ikki marta hosil olingan. Yirik qoramol, qo'y, echki boqilgan.

Bu shahar sivilizatsiyasida o'ziga xos yozuvdan foydalanilgan. Hozirgacha muhr, sopol, metall buyumlarga bitilgan ko'plab yozuvlar topilgan. Olimlar 400 dan ko'proq belgilarni ajratdilar. Yozuv o'ngdan chapga tomon yozilgan. Bu sivilizatsiyaning ijodkori bo'lgan aholi protodravid tiliga mansubligi aniqlangan.

Shahar hunarmandchiligi to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Kulolchilik, to'qimachilik yuqori darajada rivojlangan. Haykalchalar kichik hajmda bo'lib, hokim-kohin, yalang'och ayolning (raqqosa deb taxmin qilinadi) jez haykalchalari topilgan. To'g'ri burchakli muhrlar topilib, ularning ko'pchiligidagi mifologik manzaralar tasviri tushirilgan. Bu yerdan topilgan boshqa muhrlarga o'xshash buyumlar Hind vodiysidan uzoq bo'lgan Baxrayn orollari, Mesopotamiya, eron va Turkmanistondan topilgan. Bu Moxenjo-Daro va Xarappaning qadimgi Sharq sivilizatsiyalari bilan yaqin aloqada bo'lganidan dalolat beradi. Xalqaro savdo yuqori darajada yo`lga qo'yilgan. Afg'oniston, Belujiston va O'rta Osiyodan tosh va metallar olib kelingan. Sharqiy va Janubiy Hindiston, Birma bilan savdo aloqalari o'rnatilgan. Bu aloqalar quruqlik va dengiz yo'llari bilan olib borilgan. Baxrayn orolidagi qazishmalar, bu yer Hind savdogarlari boshqa Sharq savdogarlari bilan mahsulot almashadigan joy ekanligini ko'rsatadi. Lotxala (hozirgi Mumbay shahri yaqinidagi Xarappa shahri)dan topilgan muhrlarda machtali kemalar tasviri tushirilgan. Bu dengiz savdosi bo'lganligidan dalolat beradi.

Moxenjo-Daro va Xarappadan katta miqdorda jez va mis buyumlar, jumladan, boltalarning bir necha turlari, turli shakldagi pichoqlar, tig'lar va tarozi topilgan. Qilich, xanjar, nayza va kamonlarning metall uchlari quyma va toblab yasalgan. Topilmar ichida jez va mis oynalar ham mavjud. Oltin, kumush, mis va jezdan bilaguzuklar, uzuk va baldoqlar nihoyatda nafis tayyorlangan. Tosh asosiy xomashyo bo'lib, toshdan yorg'ichoqlar, bo'yoqlarni eritadigan idishlar tayyorlangan. Tarozi toshlari slans, kvarsit, ohaktosh, yashma va alebastrdan yasalgan. Shimoliy-G'arbiy Hindistonda kulolchilik san'ati yuqori darajada rivojlanib, tasvirli va tasvirsiz sopol buyumlar tayyorlangan. Naqshli sopol idishlar kulolchilik charxida tayyorlanib, tiniq bo'lmagan qizil rang bilan qoplanib, keyin unga qora tasvir tushirilgan. Loydan yasalgan suv quvurlar, loy g'ildiraklar, urchuq qismlari, loy bilaguzuk, siyohdon, o'yinchoqlar va

shamdonlar topilgan. Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan tasvirlar va suyaklarga ko‘ra, Hind sivilizatsiyasida dehqonchilik va chorvachilik yaxshi rivoj topgan. Tur, zebu, kalta shoxli ho‘kiz, buyvol, echki va it boqilgan. Fil qo‘lga o‘rgatilgan. Tovuq va tovus kabi parrandalar bo‘lgan. Bug‘doy, tariq va paxta ekilgan. Ov, termachilik, baliqchilik bilan shug‘ullanganlar. Ho‘kiz qo‘shilgan aravalarni transport vositasi sifatida xizmat qilgan.

Moddiy madaniyat va san’at yodgorliklari asosida Hind vodiysi aholisining diniy tasavvurlari to‘g‘risida tushuncha hosil qilish mumkin. Muhrlardagi tasvirlar bu yerda yashagan aholi daraxtlar, hayvonlar, osmon jismlariga e’tiqod qilganidan guvohlik beradi. Ona ma’buda haykalchasi dinning dehqonchilik xususiyatini ko‘rsatadi. To‘rt hayvon qurshovida Iog holatida turgan erkak ma’bud dunyoning to‘rt tomoni hukmdori deb qaraladi.

Mill. avv. XVIII asr oxirida Xarappa madaniyati tushkunlikka tushib, asta-sekin halok bo‘ladi. Hind sivilizatsiyasining siyosiy va ijtimoiy tizimi to‘g‘risida faqat umumiy tasavvur qilish mumkin. Qal’a va shaharlar reja asosida qurilishi davlat hokimiyati mavjudligidan darak beradi. G‘alla ombori va ishchilar uchun xonalar mavjudligi bu hududni aynan Mesopotamiyadagi mavjud ibodatxona, davlat xo‘jaligi bilan o‘xshashligini ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasi, shaharlar va yozuvning mavjudligi, uy-joy inshootlari hajmlarining katta-kichikligi aholi o‘rtasida ijtimoiy tengsizlikning mavjudligidan dalolat beradi. Qadimgi Hind sivilizatsiyasining tushkunligi va halokati turli hududlarda turli xil bo‘lgan. Ba`zi joylarda iqlimning o‘zgarishi, boshqasida turli epidemiyalar yoki tektonik o‘zgarishlar sivilizatsiya halokatiga olib kelgan. Antropologlarning XX asrning 70-yillaridagi suyak qoldiqlarini yangi fan metodi asosida tekshirishlari natijasida shahar-qishloqlar aholisining o‘limi sababi bezgak (malyariya) ekanligi aniqlandi. Bu halokat oriy qabilalarini Hindistonga kelishidan bir necha asr oldin yuz bergen.

### **Ko‘chmanchi oriylar «Veda davri».**

Hindistonda ilk davlatlarning tashkil topishi. Oriylar mill.avv. XV asrlarda Hindistonga shimoldan kirib keldalar va o‘zlarini bilan dravidlar uchun butunlay yod madaniyatni olib keldilar. Ammo ularning Ural va Volga bo‘ylaridan siljib kelishi doimiy va to‘lqin simon bo‘lganligi alohida ta’kidlanmoqda. Yani bu ko‘chish bir-necha asrlarni talab qilgan. Millr. avv. II ming yillikning oxiri-I ming yillik boshlarida Shimoliy Hindiston tarixining asosiy manbalari «Vedalar» Hind diniy adabiyotining eng qadimgi yodgorliklari hisoblanadi. Vedalar madhiyalar, qo‘shiqlar, qurbanlik aytishlari, muqaddas marosimni tushuntiradigan keng asarlardan iborat to‘plamlardir. Til, din va mifologiya bo‘yicha ular «Avesto» bilan o‘xshashdir. «Avesto» vedalari tadqiqotchilarning fikricha, oriy («ariya» so‘zidan «olijjanob») qabilalari tomonidan tuzilgan.

Tuzilish bo‘yicha «vedalar»: Ilk veda (mill. avv. I ming yillik boshlari) va So‘nggi veda (mill. avv. IX-VII asrlar) davrlariga bo‘linadi. Ko‘pchilik olimlarning fikricha, hind oriyulari yodgorligi “Rigveda” matnlari mill. avv. XI-X asrlarda shakllangan. Veda matnlari ma‘lumotlari asosida hind-oriy qabilalarini sharqqa-Gang vodiysiga siljishini umumiyligini ko‘rish mumkin. Oriylarning Gang daryo vodiysi tomon siljishlari bir necha asrlarni qamrab olgan davomiy jarayon edi. Veda davri aholisi

sholi, tariq, bug‘doy va dukkakli ekinlarni ekkan. Sholikorlik Gang daryosi vodiysi o‘zlashtirish davomida paydo bo‘ladi. Olimlarning fikricha, hind-oriylarga bu o‘simlik ilgari ma`lum bo‘lmas. Sholikorliukni mahalliy aholidan o‘zlashtirib oladilar. Veda qabilalari uncha katta bo‘lmas, mustahkamlangan manzilgohlarda yashaganlar. Shaharlar keyinchalik paydo bo‘lgan.

“Rigveda” (hind-oriylarning vedalarini eng qadimgi qismi)da uchraydigan geografik nomlarga ko‘ra, u Panjobda tuzilgan. So‘nggi veda matnlari shakllangan paytda oriy qabilalari Hind-Gang tekisligining butun markaziy qismiga tarqalgan edi. “Rigveda” yaratilgan davrda oriylarda sinfiy jamiyat va davlat hali shakllanmagan edi. Iqtisodiyotda yirik qoramolchilikka asoslangan chorvachilik rivojlangan. Dehqonchilikka e’tibor berilmagan. Oriylar mis va jezdan foydalanganlar. Uy- joyni qamish va loydan qurbanlar.

Gang daryosining yuqori qismi, Gang va Jamna o‘rtasidagi yerlar “Mahabxarat” epik asarining syujetini tashkil qiladi. Ijtimoiy tashkilot qabila bo‘lgan. Qabila boshlig‘i roja-harbiy boshliq va yo`lboshchi sifatida o‘z qarindoshlari va xizmatkorlariga tayangan. Qabila uch tabaqa: kohinlar, harbiylar va oddiy jamoachilarga bo‘lingan. Muhim masalalar yig‘ilishda hal qilingan. Vedalarda ko‘rsatilgan qo‘shnilar bilan podalarni haydab ketish mumkin bo‘lgan urushlar oddiy hol bo‘lgan. Veda tilida “urush” (gavishta) so‘zi “sigirlarni bosib olish” ma’nosini bildiradi. Ilk veda davrida qulchilik mavjud bo‘lgan. Qadimda hindcha “dasa” qulni bildirgan so‘z ko‘pgina veda madhiyalarida uchraydi. Dastlab asirlar qulga aylantirilgan. Veda va dostonlarda qul erkaklar kam tilga olinadi. Ayol qullar to‘g‘risida keyinchalik ko‘p so‘zlanadi. Qulchilik xonaki tusda bo‘lib, veda jamiyati ham urug‘-jamoa tashkiloti darajasida bo‘lgan. Keyinchalik, jamoa a`zolari ham qarzi uchun qul qilinganlar.

So‘nggi veda davrida iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosiy tuzumda keskin o‘zgarishlar yuz beradi. Dehqonchilik rivojlanib, Hind-Gang vodiysida keng dalalar o‘zlashtiriladi. Daraxtning qattiq yogochidan omoch yasay boshlanadi. Eshaklar asosiy yuk tortish vazifasini bajargan. Sutlik ovqat kundalik yemish bo‘lgan. Bayramlarda chorva mollari mo‘l-ko‘l qurbanlik qilingan.

Temirdan faqat kamon o‘qi va nayza uchlari tayyorlangan. Uylar yog‘och va bambukdan qurilgan. “Rigveda” davrida harbiy yo`lboshchilar aravalarda jang qilganlar. Maxabxaratda yengil jang aravalari to‘g‘risida eslatiladi. Jang aravalalarida musobaqa-poygalar o‘tkazilgan. Diniy va epik asarlarda aholining asosiy qismi to‘g‘risida ma’lumotlar juda kam.

Yerkin va to‘la huquqli dehqonlar jamoani tashkil qilib, bir yoki bir necha qishloqda yashaganlar. Jamoatchilar qo‘shni va qon-qarindosh aloqalar asosida birlashganlar. Jamoada eng muhim masalalar urug‘ yiginlarida hal qilingan. Urug‘ jamoasi a`zolari yig‘ilib, butun jamoa nomidan asosiy marosimlar bajarilgan.

Qishloq aholisining bir qismi to‘la huquqli bo‘lmas. Ular boshqa joydan ko‘chib kelgan kishilar bo‘lgan. To‘la huquqli bo‘lmasalar xizmat ko‘rsatadigan sohalar, jumladan, hunarmandchilik bilan shug‘ullanganlar. Qishloqda keskin mulkiy tabaqalanishga jamoa ichki aloqalarining o‘ta mustahkamligi qarshilik ko‘rsatgan edi. So‘nggi veda davrida o‘z-o‘zini boshqarish qishloq jamoasi bilan cheklanib qoladi.

Qabila va qabilalararo munosabatlardagi barcha masalalar hokim va yo`lboshchilar vakolatiga kiradi.

Yer. avv. II ming yillik oxiri-I ming yillik boshlarida Shimoliy Hindistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida jamiyatning quyidagi to`rt toifasini ko`ramiz:

1. **Braxmanlar**- ruxonilar oliv tabaqa (oq suyakliylar) ;
2. **Kshatriylar**-qabila harbiy zodagonlari;
3. **Vayshilar**-savdogar-hunarmand, dehqonlar;
4. Shudra (qullar)-jamoaning pastki to`la huquqli bo`lmagan aholisi

Har bir qatlam yopiq toifa-varna (hindcha so`zma-so`z “rang”, “nav”)ga aylanadi. Har bir varna vakilining merosiy mavqeい ularning mashg`uloti va diniy majburiyatlarini belgilagan. Kohinlik va o`qituvchilik majburiyati braxmanlarga; jang qilish va boshqarish kshatriylarga; qishloq xo`jaligi, hunarmandchilik va savdo bilan shu`gullanish vayshilarga; uch oliv varnalarga so`zsiz xizmat qilish majburiyati shudralarga yuklatilgan. Bu toifaviy mavqe merosiy bo`lib o`tgan. Har bir varna o`z huquqi, o`z ovqati, kiyimi, uy anjomi, kiyimining rangi va boshqalar qat`iy belgilangan edi. Braxmanlar turli varnalarni ilk odam-Purusha jismining turli qismidan (braxmanlar og`zidan, kshatriylar qo`lidan, vayshilar biqinidan, shudralar loyga botgan oyoqlaridan) yaratilgan deb o`qitar edilar. Shu sababli, qolgan uchta varnaga xizmat qilish shudralarga buyurilgan.

### **Budda davri.**

Hind-Gang tekisligida temir qurollarning tarqalishi sun`iy sug`orish inshootlarni qurish va muntazam hosil olish imkoniyatini tug`dirdi. Hindistonning shimoliy-sharqida sug`orma dehqonchilik sharoitida asosiy ekin sholi bo`lgan. Bu davrda shaharlar aholisining soni keskin oshdi. Tovar-pul munosabatlarining o`sishi natijasida er. avv. I ming yillik o`rtalarida tanga pul zarb qilina boshladi. Yirik shaharlarning maydoni-Udjayin va Kaushanbi – 1,5-2,5 kv. km ni tashkil etgan. Bu o`sha davrdagi eng katta yunon shaharlari maydoni bilan teng edi. Salavkiylar davlatining elchisi, yunon Megasfen elchi sifatida Maurilar saroyiga kelganda, Pataliputra shahri devorlarining uzunligini 30 km deb hisoblagan.

Hind afsonalarida shahar boshqaruvi va jamiyatning ijtimoiy tuzilishi to`g`risida qimmatli ma`lumotlar mavjud. Ularda savdogarlar birlashmalari va hunarmandlarning sex tashkilotlari eslatiladi.

Aholining ko`pchiligi jamoa-kasta tuzumida yashagan. Qishloqda patriarxal oila yetakchi o`rin tutgan. Oil a boshlig`i bo`lgan ota yer va chorvani oila nomidan boshqargan. Ayollar jamiyatda hurmat qilinsa-da, lekin mulk huquqiga ega bo`lmaganlar. Patriarxal oilada bir necha avlod yashagan. Xususiy mulkchilikning rivojlanishi mulkiy tengsizlikka olib kelgan. Qarzi uchun qul qilish keng tarqaldi. Faqat jamoa munosabalarining mustahkamligi bu jarayonni ma`lum darajada jilovlab turgan.

Yer. avv. II ming yillik o`rtalarida hokim (roja)lar davlat boshqaruvida shakllanayotgan ma`muriy apparat va xizmatga tortilayotgan aslzoda bo`lmagan kishilarga tayanganlar. Hokim uchun asosiy tayanch kuchi qo`shin edi. Qo`shinda yengil jang aravalari o`rnini og`ir kvadrigalar egallaydi. Oqliq qo`shinlardan keng foydalilanadi. Jangovar fillardan qo`shin tuzila boshlanadi. Qo`shin endilikda muntazam xususiyatga ega bo`ldi.

Vedalar va dostonlarda Gang vodiysidagi eng qadimgi sulola va davlatlar nomlari tilga olinadi. Mahabxarat dostonida Pandav va Kauravlar sulolalari o‘rtasidagi urushlar to‘g‘risida hikoya qilinadi. Mayda davlatlar o‘rtasida yer-suv, chorva uchun muntazam urushlar bo‘lgan. Er. avv. I ming yillik o‘rtalarida Hindistonda yirik davlatlar paydo bo‘ldi. Ularning ko‘pchiligidagi alohida sulolalar hukmronligi, ayrimlarida boyzodagonlar hukmronlik qilgan oligarxik respublikalar mavjud edi. Magadxa va Koshala Gang daryosining quyi oqimida, Gang va Yamun oralig‘ida Vatsa, Avanti davlatlari o‘rtasida yetakchilik uchun kurash olib bordilar. Vaqt o‘tishi bilan Gang vodiysida ko‘p sonli mayda davlatchalar ichidan Magadxa podsholigi birinchi o‘ringa shiqib oldi. Qadimgi Magadxa (hozirgi Janubiy Bixar viloyati hududi) qulay geografik, strategik va savdo yo`llari kesishgan hududda joylashgan. Bu davlat boshqa bir necha kichik davlatchalarni birlashtirdi. Mamlakat Hindistonning ko‘plab viloyatlari bilan gavjum savdo qilgan. Magadxa qazilma boyliklar, jumladan, metallga boy edi. Uning yangi qadimgi poytaxti Rajagrix shahri edi. Magadxa podshosi Udain davrida (yer. avv 461-445-yillar) poytaxt Pataliputra (hozirgi Patna shahri) ko‘chirildi. Bu shahar butun Hindiston bo‘yicha eng katta savdo-hunarmandchilik markaziga aylandi. Keyin Magadxa taxtiga nand sulolasini qaror topdi va katta imperiyaga aylandi. Nand davlati Maurilar imperiyasini tashkil topishi uchun shart-sharoit yaratdi.

Mill. avv. IV asrda Shimoliy Hindistonda Panjobdan to Bengaliyagacha bo‘lgan yerlar Mauri urug‘idan bo‘lgan magadxalik zodagon Chandragupta (yer. avv. 321-297-yillar) tomonidan bo‘ysundirildi. Maurilar imperiyasining tashkil topishi Hindiston tarixida muhim tarixiy voqeа bo‘ldi. Hindiston tarixida chekka janubdan tashqari, ilk bor butun mamlakat birlashgan davlat tarkibiga kirdi. Antik mualliflar, podsho Chandragupta makedoniyalik Iskandar Shimoliy Hindistonda qoldirgan yunon-makedon garnizonlari va uning noiblari bilan urush olib borgani to‘g‘risida ma`lumot beradilar. Chandragupta Shimoli-G‘arbiy Hindistondan to Pataliputra hududlarigacha istilochilik urushlarini olib borgan. U Nand sulolasining so‘nggi podshosi bilan urushda g‘alaba qozondi va Magadxa hududlarini o‘z davlati tarkibiga qo‘shib oldi.

Taxminan, mill. avv. 314-yilda Chandragupta yangi Maurilar sulolasini (mill. avv. 314-yildan-yer. avv. 180 yilgacha)ga asos solib, o‘z mutloq hokimiyatini o‘rnatdi. Ammo uning davlati uchun Salavkiylar davlati jiddiy raqib edi. Chandragupta bu davlatning g‘ayratli hukmdori Salavk Nikator bilan urish olib borishga majbur bo‘ldi. Bir necha yillik urushlardan so‘ng, har ikki tomon o‘rtasida er. avv. 303 yoki 302-yilda tinchlik shartnomasi tuzildi. Shartnomaga ko‘ra, Maurilar Iskandar ilgari bo‘ysundirgan Hindiston shimoliy-g‘arbidagi ayrim viloyatlarga ega bo‘ldilar (Ariya, Araxosiya, Gedrosiyaning bir qismi va Parapamisad qabilalari yerlari). Salavk buning evaziga 500 jangovor filni oldi. Hindiqush tog‘i Salavkiylar va Maurilar o‘rtasidagi chegaraga aylandi. Tinchlik shartnomasidan so‘ng, Salavk o‘z elchisi Megasfenni Maurilar saroyiga yubordi. Megasfen Maurilar saroyida 5 yil yashab, Maurilar davlati davrida Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, davlat tuzumi to‘g‘risida qimmatli ma`lumotlarni yozib qoldirgan. Chandraguptaning vorisi Bindusara er. avv. 297-272-yillarda faol istilochilik urushlari olib borib, Afg‘onistonning katta qismi, Belujiston, Shimoliy Hindiston va deyarli Dekan yarim orolini to‘liq bo‘ysundirdi.

Megafenden so'ng, Maurilar saroyiga Salavkiylarning navbatdagi elchisi Deymax keldi. Bu elchilik Bindusara podsholigi davriga to'g'ri keladi. Podsho Bindusara Misr bilan elchilik aloqalarini o'rnatdi. Shu sababli, Maurilar saroyiga Ptolemeyning elchisi Dionisiy tashrif buyurdi. Bindusara mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta`minlash uchun qator ishlarni amalga oshirdi.

Podsho Ashoka I davrida (Mill. avv. 272-232-yillar) Maurilar davlati gullabyashnadi. Ashoki davlat hokimiyatini mustahkamlashga harakat qildi. Uning qonunlari (yediktlar) mamlakatning turli hududlarida tosh lavhalarga yozib qo'yildi. Bu ediktlar orqali Ashoki davlatining boshqaruv tizimi, eng muhim siyosiy voqealar, podshoning ijtimoiy siyosati to'g'risida tasavvur hosil qilish mumkin. Umumhind davlatining hukmdori o'zini faqat Magadxa davlatining podshosi deb hisoblagan. Bosqinchilik urushlari ma'muriy apparatni to'liq almashtirish va eski siyosiy tuzumni o'zgartirishga olib kelmagan. Magadxa podshosi maxsus amaldorlar (radjuklar)ni har uch yoki besh yilda bir marta viloyatlarga mayalliy hokimlar faoliyatini nazorat qilish uchun yuborgan.

Podsho hokimiyati poytaxtda oliy mansablarni egallagan zodagonlar va podsho qarindoshlaridan tuzilgan podsho kengashi bilan cheklangan. Podsholar ham o'z navbatida, urug' zodagonlari, kshatriylarning imtiyozlarini cheklashga harakat qilganlar. Ularni o'z tarafдорлари bilan almashtirishga harakat qiladilar. Podsholar o'z qo'llariga moliyaviy boshqaruvni to'plab , davlat xazinasini to'ldirishga uringanlar. Hindistondagi barcha davlatlarning hukmdorlari noan'anaviy dinlarga, asosan budda diniga homiylik qildilar. Mauriyalar budda dini targ'ibotiga jiddiy e'tibor berdilar. Turli mamlakatlarga budda g'oyalarini targ'ib qilish uchun missionerlar yuboriladi. Ayniqsa, Hindiston bilan yaqin aloqada bo'lgan viloyatlarda budda ta'limoti tez qabul qilindi. Shri-Lankada bu jarayon jadal sur'atlar bilan yoyildi.

Mahalliy tarixnavis, Shri-Lankada dehqonchilik, hunarmandchilik va davlatchilikning paydo bo'lishini er. avv. V asrda Shimoliy Hindistondan kelganlar faoliyati bilan bog'laydi. Shaxzoda Singala («YO`lbars») ularning boshida turgan. Uning nomi bilan mamlakatdagi hukmron etnik guruh-aholi singallar deb aytila boshlandi. Arxeologik qazishmalar ham er. avv. I ming yillik o'rtalarida Shri-Lankada birdaniga temir asri madaniyati paydo bo'lganidan guvohlik beradi. Seylon xronikalari Ashokining ukasi maxsus missiya bilan mahalliy hokimni budda ta'limotining afzalligiga ishontirgani va tez orada bu yerda ilk budda monastirlari paydo bo'lgani to'g'risida hikoya qiladi. Shri-Lanka Ashoki davridan to shu kungacha budda dini hukmron bo'lgan mamlakatdir.

Yer. avv. IV-III asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida umumhind davlatining tashkil topishi muhim ahamiyat kasb etdi. Mamlakat miqyosida savdo-hunarmandchilik rivojlanib, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy-madaniy aloqalar kuchaydi. Bundan tashqari, umumhind davlati butun Janubiy Osiyoning barcha hududlarining sivilizasiyalashuvida muhim rol o'ynadi. Maurilar davlati zaiflashib, er. avv. II asr boshlarida parchalanib ketdi. Lekin u to'g'risida xotira qoldi. Madaniy birlik-davlat paydo bo'ldi. Ashoki kapitelidagi to'rt sher hozirgi kunda Hindiston Respublikasining milliy ramzi hisoblanadi.

**«Klassik davr»ning o'ziga xos hisusiyatlari.**

Mill. avv. II asr boshlarida Maurilarning so‘nggi vakili hukmronligi tugab, shu vaqtdan boshlab mamlakatda uzoq siyosiy tushkunlik boshlandi. Er. avv. 180-yilda hokimiyat yangi Shung sulolasiga vakili qo‘liga o‘tdi. Hindistonning shimoliy-g‘arbida bir necha mayda hind-yunon davlatlari tashkil topdi. Bu yerdagi hind-yunon davlatlari podsholari ichida eng taniqlisi Menandr ismli hukmdor edi. Menandr zarb qildirgan tangalar orqali uning davlatini Gandxara, Araxosiya, Panjobning ba`zi hududlari bilan chegaralash mumkin.

M. avv. II asrlarda O‘rta Osiyodan Hindistonga sak qabilalari kirib kelib, shimoliy-g‘arbida bir necha davatlarni barpo qildilar. Sak podsholari o‘zlarini «Buyuk podsholar podshosi» deb atadilar. Yirik davlat birlashmalarida noiblik, satrapliklar joriy qilinib, hududlarda satrap (kshatrap) ancha mustaqil bo‘lgan. Hind-yunon davlatlari saklarning kuchli tazyiqiga uchradi.

Yeramizning boshlarida eronning shimoliy-g‘arbiy hududlarida hukmronligini o‘rnatgan parfiyaliklar hind-yunon va sak davatlari hududlarini bosib ola boshladilar. Podsho Gondafor davrida Hind-Parfiya davlati kuchaydi. Ammo ular tez orada yangi qudratli sulola-Kushonlar tomonidan bo‘ysundirildi. Boshqa Kushonlar O‘rta Osiyoda Baqtriyani egalladilar va asta-sekin o‘z davatlari hududini kengaytirdilar. Podsho Kudzula Kadfiz davrida kushonlar Araxosiya, Parfiyaning bir qismini bosib oldilar. Kudzula Kadfizning o‘g‘li Vima Kadfiz Hindistonni jadal istilo qilishga kirishdi va natijada o‘z hokimiyatini Hind daryosining quyi oqimigacha o‘rnatdi. Poytaxt hozirgi Peshovarga ko‘chirilib, Hind viloyatlari davlatning asosiy qismini tashkil qildi. Kushon davlati hindlashdi. Bu jarayonni Vima Kadfiz tangalarida ko‘rish mumkin. Tangalarda ma‘buda Shiva tasvirlanadi. Podsho shu xudoning nomlaridan biri bo‘lgan Maxeshvara nomi bilan ulug‘landi. Vima Kadfiz davrida savdo-hunarmandchilikni rivojlanishini rag‘batlantirish uchun pul islohoti o‘tkazilib, yangi tilla tanga zarb qilindi. Mis tanganing qat’iy nominal qiymati belgilandi. Kushon davlati Kanishka (78-123-yillar) hukmronligi davrida gullab-yashnadi. Kanishka davri to‘g‘risida numizmatika, “Kanishka erasi” yil hisobi yozuvlari, keyingi buddha hikoyalarida juda ko‘p ma‘lumotlar bizgacha yetib kelgan. Buddha yozuvlarida Kanishka buddaviylikning sodiq muxlisi deb tilga olinadi. Chunki u buddaviylik dinini davlat diniga aylantirib, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatladi. Kanishka davrida davlat hududlari kengaydi. Kushon davlati tarkibiga Kanishka hukmronligi davrida Bixar viloyati, Markaziy Hindistonning ayrim viloyatlari, Narmada daryosigacha bo‘lgan yerlar kirgan.

Kanishka hukmronligi davrida Kushon davlati Xitoy, Parfiya, Rim kabi qudratli davlatlar qatoriga kirgan. Kushonlar davlati bu davlatlar bilan savdo-yelchilik munosabatlarini amalga oshirgan va raqobat qilgan. Antik mualliflar, eramizning 99-yilida Kushon elchilarini Rimga kelgani to‘g‘risida ma`lumot beradi. Bundan tashqari, Rimdagagi imperator Trayan kolonnasida kushon elchilarining Rimga kelgani rel`yef tasvirlari bor. Kanishkaning vorislari davrida imperiya zaiflasha boshladи. Hindistonning turli hududlaridagi hokimlar, qo‘shni kuchayib borayotgan Sosoniylar davlati Kushon davlati hududlarini bosib ola boshladи. Sosoniylar hukmdori Shopur I (241-272-yillar) Kushon davlatining g‘arbiy viloyatlari bosib olib, Sosoniylar davlati tarkibiga kiritdi. Faqat Gandxara vodiysigina Kushon davlati qo‘lida qoldi (yer. avv. III

asr oxirida). Keyin esa, kushonlarning Hind viloyatlari Guptalar davlati (IV asr boshlari-VI asr o‘rtalar) tarkibiga kiritildi.

Gupta davlatining mustahkamlanishi Chandragupta I hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. U “Buyuk podsholar hokimi” unvonini olgan. Uning hukmronligi eramizning 320-345-yillariga to‘g‘ri keladi. Uning vorisi Samudragupta hukmronligi davrida (335-380-yillar) faol istilochilik urushlari olib borilib, Shimoliy Hindistonda o‘nga yaqin davlatchalar, Dekan yarim orolida o‘n besh davlatcha tugatiladi. Magadxaga janubda Tamish shahri Kanchini, shimolda Nepal va Assam kabi chegara viloyatlar ham qaram bo‘ladi. Dekan viloyati g‘olibona yurishga qaramasdan Gupta davlati tarkibiga kirmaydi. Guptalar davlatiga kirmagan janubdag‘i viloyatlar qaram yerlar hisoblanib, o‘lpon to‘lagan. G‘arbiy va Shimoliy-G‘arbiy Hindistonning ba`zi hududlari Guptalar davlatiga qaram holda bo‘lgan.

Gupta davlati Shri-Lanka bilan yaqin aloqada edi. Samudragupta davrida imperiya Sharqda qudratli davlatlardan biriga aylanadi. Ko‘plab davlatlar bilan aloqalar o‘rnatildi va uning ta`siri kuchaydi. Samudraguptadan so‘ng, taxt uning o‘g‘li Chandragupta II qo‘liga o‘tdi (380-413/415-yillar). Bu hukmdor Hind an’anasida Vikramadita (Qudrat quyoshi) nomi bilan ma`lum. Uning hukmdorligi davrida ko‘plab buyuk yozuvchilar, olimlar ijod qildilar. Zamonaviy hind fanida Samudragupta II hukmronligi davri “Guptalarning oltin asri” deb ataladi. Chandragupta II o‘limidan so‘ng, davlat zaiflashdi. Tez orada O‘rta Osiyodan eftalitlarning kuchli hujumi boshlandi. Eftalitlar hukmdori Toraman davrida (490-515-yillar) eftalitlar Hindistonning ichki hududlariga kirib bordilar. Ular Sind, Rajastxon va G‘arbiy Hindiston yerlarida o‘z hukmronliklarini o‘rnatdilar. Guptalar bir necha vaqt Magadxa va boshqa hududlarda o‘z hukmronliklarini saqlab qoldilar. Lekin endi bu davlat qachonlardir qudratli bo‘lgan Guptalar davlatining zaif bir parchasi edi.

Dekan mamlakatlari tarixida Satavaxan sulolasini alohida o‘rin tutadi. Eramizning II asrida Satavaxanlar davlati o‘z taraqqiyotining yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Uning asosiy markazlari G‘arbiy Dekanda edi. III asrda bu davlat parchalanib ketdi. Janubiy eng chekka viloyatlar siyosiy tarixiga oid ma’lumotlar yo`q darajada.

Yer. avv. I ming yillik oxiri-yeramizning I asrlari Hind iqtisodiyotining gullabyashnagan davri hisoblanadi. Hindlar yuqori nav po‘lat ishlab chiqarishni o‘zlashtirdilar. Metall san‘atining noyob namunasi sifatida Sandra temir ustuni (o‘tgan bir yarim ming yil davomida bu temir ustunda biror zang paydo bo‘lmagan, bu yodgorlik hozirgacha yetib kelgan) ko‘rsatish mumkin. Qal’alar qurilishi bilan birga, g‘or ibodatxonalarini bunyod qilish keng tarqaldi.

Turli xil tilda zarb qilingan tangalar paydo bo‘ldi. Serqatnov savdo yo`llari Taksila, Madxur, Udjain va Varnasi kabi yirik shaharlarni qamrab oldi. Varnasi va Madxur ip-gazlama, shimoliy-garbiy hududlar vino, ot, jun matolari bilan, Udjain qimmatbaho toshlar, fil suyagi bilan, Janubiy Hindiston esa, ziravorlari bilan mashhur bo‘ldi. Kushon davlati paydo bo‘lishi Hindistonni Markaziy Osiyo bilan aloqalarini kuchayishiga va uni Buyuk Ipak yo`li savdosida faol qatnashuvi uchun qulay shartsharoit yaratdi.

Yer. avv. II-I asrlarda G‘arbiy va Janubiy Hindistonda Misr savdogarlari paydo bo‘ldi. Hind okeani orqali Rim, Janubiy-Sharqi Osiyo va Indoneziya orollari bilan savdo aloqlari kuchaydi.

Hindistonning ijtimoiy tuzumi to‘g‘risida umumiy tushuncha hosil qilish mumkin. Qadimgi Hind qishlog‘ida jamoa yetakchi o‘rin tutgan. Ekin yerlari oilalar o‘rtasida taqsimlangan. Jamoa ixtiyorida yaylov, bo‘sh yerlar va o‘rmonlar qolgan. Jamoa a’zolari yo‘l, kanallarni ta’mirlash va qurishda ishtirok etganlar. To‘la huquqli jamoa a’zolari jamoa yig‘inida ishtirok etganlar.

Qishloq ichida mulkiy tengsizlik juda kuchli bo‘lgan. Yer egalari boy jamoa a’zolarini tashkil qilganlar va yerlarini ijaraga bergenlar. Yollanib ishlovchilar, qarzdorlar ko‘p bo‘lgan. Jamoada kir yuvuvchilar, qorovul, duradgor va kulollar ko‘pchilikni tashkil etgan. Har bir toifadagi kishilarning mavqeい o‘zgarmas bo‘lgan. Har bir hududda bir xil mavqedan bo‘lgan oilalar yopiq birdamlik-kastani tashkil qilganlar. Har bir kasta endogam bo‘lgan. Chunki uning a’zolari bir-biri bilan qarindosh bo‘lgan. Kasta a’zolarini iqtisodiy va diniy marosimlar, urf-odatlar bog‘lab turgan.

Boylar va yer egalari o‘zlarini braxma-kshatriylarga mansub deb, shahar savdogar sudxo‘rlari o‘zlarini vayshilar deb hisoblaganlar. Mehnatkashlarning asosiy ommasi-hunarmand va dehqonlar va shudra kastasi eng og‘ir ishlarni bajarganlar. Qulchilik mavjud bo‘lib, qulchilik manbai urush, qarzi uchun qul qilish bo‘lgan. Qashshoqlik natijasida o‘zini, o‘z bolalarini sotish ham mumkin bo‘lgan.

### **Qadimgi Xitoy.**

1. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi asoslarini yuzaga kelishi. Xuanxe daryosi havzasasi qadimda qalin o‘rmonlar bilan qoplangan. Mill. avv. IV-II ming yilliklarda Xuanxening o‘rta oqimida karkidon, tapir, bambuq kalamushlari kabi hayvonlar mavjud bo‘lgan. Bambuk daraxti o‘sgan. Vodiyning yumshoq allyuvial tuprog‘i dehqonchilik uchun qulay shart-sharoit yaratdi. Er. avv. XX-XVIII ming yilliklarda Xuanxe havzasida Yanshao madaniyatini bu yerda yashagan paleosiyo aholisini siqib chiqargan protosinotibetliklar yaratganlar. Er. avv. I ming yillikda Xuanxening o‘rta oqimida inlar va chjoulearning o‘zaro ta’siri natijasida qadimgi Xitoy etnosi vujudga keldi. Bu etnosning shakllanishida shimolda yashagan paleosiyo va austroosiyo Janubiy Osiyo tillarida so‘zlashuvchi etnoslar ishtirok etganlar.

Mill. avv. V-III ming yilliklarda Xuanxe daryosi o‘rta oqimida Yanshao madaniyati tipidagi neolit manzilgohlari vujudga keldi. Dehqonchilik, cho‘chqa va it boqish asosiy mashg‘ulot bo‘lgan. Kulolchilik rivojlangan. XX asrning 70-yillarida Xitoyning shimoliy-sharqida Xunshan madaniyati ochildi. Bu madaniyat ham er. avv. V-III ming yilliklarni o‘z ichiga oladi.

Mill. avv. III ming yillikning ikkinchi yarmida kulolchilik charxi yordamida kulrang va qora rangli idishlar tayyorlanadi. Dehqonchilikda o‘roq va pichoqning takomillashgan shakli vujudga keldi. Ijtimoiy tabaqalashuv jarayoni tezlashdi. Bu davr Lunshan madaniyati deb ataldi.

Yeng qadimgi jez davri buyumlari (yer. avv. II ming yillik birinchi yarmi) ermitou tipidagi manzilgohlardan topilgan. Er. avv. XIV-XI asrlarda O‘rta Xitoyda In davrida ilk shaharlar paydo bo‘ldi. Bu davrdagi ijtimoiy tabaqaalanish izlarini In qabrlarida ko‘rish mumkin. In davlati tepasida Van (hokim) turgan. Hukmdorning

yagona hokimiyati shakllanidan dalolat beradigan: «Men kishilar orasida yagonaman» degan so‘zni keltirish mumkin. Van bir vaqtning o‘zida oliv kohin vazifasini ham bajargan. In davlatining eng qudratli davri er. avv. XIII asrning ikkinchi yarmida hukmronlik qilgan Van U Di davriga to‘g‘ri keldi. Uning davrida Shan shahrida saroy va ibodatxonalar qurildi. Mamlakat hududi kengaydi.

Mill. avv. 1027-yilda chjoular boshchilik qilgan ga`rbiy qabilalar In davlatini ag‘darib tashladilar. Ular bosib olgan hududlarda nisbatan katta, lekin mustahkam bo‘lmagan davlat birlashmasini tashkil qildilar. An’ana bo‘yicha bu davlat G‘arbiy Chjou deb ataldi. Davlat boshida Chjou podsho urug‘idan bo‘lgan merosiy hukmdor Van turadi. Chjoular inlardan jez quyish san’ati, yozuvni o‘zlashtirdilar. Ular harbiy jang aravalari ham inlardan o‘rgandilar. Chjou davrida jamiyat besh ijtimoiy qatlamga ajralgan:

1. **Van**-«kishilar orasida yagona» hukmdor.
2. **Chjou**-merosiy hudud hokimlari, Chjou zodagonlari.
3. **Dafu**-urug‘-qabila guruhlari boshliqlari.
4. **In**- katta oila boshliqlari.
5. **Oddiy kishilar**.

Bu davlat etnik jihatdan ola quroq bo‘lgani uchun va ular o‘rtasida mustahkam iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy aloqalar mavjud bo‘lmagani sababli, Van hokimiyati qonuniy ekanligini asoslash lozim edi. Van hokimiyatining ilohiyligi chjou qabilalarida eng oliv xudo osmon e`tiqodidan keltirib chiqarildi. Chjou vani osmon oliv ilohining o‘g‘li deb e`lon qilindi. Van Osmon mamlakatida eng oliv mulkdor, boshqalar esa, uning xizmatkori edi. Shu bilan birga, «Van Chjouni o‘z xizmatkori deb hisoblaydi, chjou o‘z xizmatkori deb dafuni hisoblaydi, dafu o‘z xizmatkori deb inni hisoblaydi» tushunchasi mavjud bo‘lgan. Bu davrda ko‘plab asirlar qullarga aylantira boshlandi.

2. Chjou sulolasi va o‘zaro urushlar davrida Xitoy. Mill. avv XIII asr boshlarida chjouarning Xuanxe daryosi yuqori oqimi havzasida yashagan lun qabilalari bilan to‘qnashuvi kuchaydi. Jun qabilalari kelib chiqishi chjoulargacha qarindosh edi. Lekin ular turmush tarzi va xo‘jalik yuritish shakli bilan bir-biridan farq qilgan. YU-van davrida (781-771-yillar) yarim ko‘chmanchi junlar bilan hal qiluvchi to‘qnashuv yuz berdi. Merosiy yer mulklarni ko‘payishi, chjuxou (merosiy hudud hokimlari) mustaqilligini kuchayishi Van hokimiyatini zaiflashtirdi. Chjou Pix-van isyonchi chjouxoular va junlar hujumini qaytara olmadidi. U poytaxt hududini tashlab ketishga majbur bo‘ldi. Bu voqeя Xitoy an’anasiga ko‘ra, G‘arbiy Chjou davrining tugashi deb hisoblanadi.

Chjou davlati hududlari keskin qisqardi. Mill. avv 770-yil poytaxt sharqqa-hozirgi Loyan hududiga ko‘chirildi. Shu sababli, er. avv VIII-III asrlar Sharqiy Chjou davri deb ataldi. Junlardan qochish vanning obro‘-ye`tiborini keskin tushirib yubordi. Endilikda u chjoular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga aralasha olmadidi. Chjouxoular amalda mustaqil hokimlarga aylandilar. Vanning yerlari kamaytirilib, unga o‘lpon to‘lanmay qo‘yildi. Er. avv. VIII asr oxirida Xitoyda mustaqil, bir-biri bilan o‘zaro nizolar girdobida bo‘lgan o‘nlab davlatlar paydo bo‘ldi. Ular mamlakatning an’anaviy birligini ramzi sifatida Chjou vanining oliv hokimiyatini rasman tan oldilar. Bu davrda ijtimoiy tabaqlanish murakkablashdi. Qullarning va qaram aholining soni o‘sdi. Tovar-

pul munosabatlari, ishlab chiqarish kuchlari o'sdi. Van tomonidan yer-mulklar zodagonlar, harbiylarga taqsimlab berildi. Yerga xususiy mulkchilik paydo bo'ldi.

Mill. av. VII asrdan boshlab o'zaro urushlar kuchaydi. Chjoularning Xuanxening yuqori oqimidagi jun qabilalari bilan to'qnashuvi avj oldi. Ko'chmanchilar birlashib, chjoulargaga katta xafv tug'dirdilar va Chjou podsholiklari ichki kurashida ishtirok etdilar.

Xuanxening o'rta oqimi va Buyuk Xitoy tekisligidagi davlatlar o'zlarining madaniy an'analarini birligi bilan boshqalardan ajralib turar edi. Ulardan ba`zilari o'zlarini chjoular avlodidan deb, boshqalari inlarga mansub deb hisoblar edilar. Chjou vani Osmon o'g'li sifatida inning diniy va oliv hokimiyatini tan oldi. Bu davlatlar hududida Xuasya madaniy-genetik birligining shakllanish jarayoni bordi va er. avv. I ming yillik o'rtalarida o'rtalikdagi podsholiklar (Chjungo)ning barqaror etnomadaniy-siyosiy jamlanmasi paydo bo'ldi. Ularning dunyoni to'rt iqlimi varvarlaridan ustunligi tushunchasi shakllandı. Chjungojen (o'rtalikdagi podsholiklar odamlari)larning madaniy ustunligi g'oyasi qadimgi xitoyliklarning o'zligini anglashida muhim unsur bo'ldi.

Xitoy hududida rasmiy chjou an'anasi "varvarlar" deb mensimaydigan, kattaligi va taraqqiyot darajasi bilan oralikdagi podsholiklardan qolishmaydigan, til va madaniyat bilan ulardan farq qiladigan mahalliy-yetnik asosda paydo bo'lgan davlatlar mavjud edi. Bu davlatlarning yuqori darajadagi qadimgi madaniyatları to'g'risida olib borilgan arxeologik qazishmalar dalolat beradi. Er. avv. VIII-V asrlarda Xitoyda besh qudratli davlat o'z siyosiy mavqeini kuchaytirish uchun kurash olib bordi. Ulardan to'rttasi "varvar" podsholiklaridan edi: shimoliy-g'arbdagi Jun podsholigi-Sin, Man podsholiklari-Chu (Yanszi o'rta oqimida) va U (Yanszi ostonasida) va eng janubdagagi etnik ola quroq Yue (bu yerda vietnamliklar ajdodlari qarindosh xaqlar yashagan). Ulardan faqat Sin Sharqiy Chjou vanining rasmiy hokimiyatini tan olar edi.

Mill. avv. V-III asrlar- "Urushayotgan podsholiklar" (Xitoy an'anasi Chjango) davrida qadimgi Xitoyning "yetti qudratli" davlatlaridan uchiasi xuasyoga mansub emas edi: shimoliy-sharqiy Yan, Chu va Sin edi. Sin davlati Xitoy tarixida muhim iz qoldirdi. "Sinlik" etnonimi qadimgi xitoyliklar nomi bo'lib qoldi. Shunga asosan O'rta Osiyoda Chin, lotincha Sine, nemischa Xina, fransuzcha Shin, inglizcha Chayna etimologik atamalari paydo bo'ldi.

O'rta podsholiklar qo'shni xalqlar bilan muntazam aloqada bo'ldilar. Bu aloqalar jarayonida xalqlarning assimilatsiyasi va murakkab o'zaro ta'siri yuz berdi. Jumladan, xuasyao (xitoy) etnik birligining shakllanishida Buyuk Xitoy tekisligida Mill. avv. VII-VI asrlarda o'troqlashgan sak-skif dunyosiga mansub Di qabilasi muhim o'rinn tutadi. Sak-skif Di qabilasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti jarayonida Xitoy tekisligida davlat va jamiyatni tashkil qildi. Di davlati qo'shni qabila-yetnik birliklar bilan yaqin aloqada bo'ldi. XX asrning 70-yillarida o'tkazilgan arxeologik qazishmalarda bu vaqtda oq Dilar tashkil qilgan Chjunshan xebey podsholigining yuqori madaniy darajasi to'g'risida guvohlik beradigan ko'plab topilmalarni topildi. Topilmalar ichida Mill. avv. I ming yillik o'rtalaridagi jez quyma san'atining eng yaxshi badiiy namunalari mavjud. Oq Di qabilalari Shimoliy Xitoyda boshqa davlatlarni ham tuzganlar.

Vanlar rivojlanmagan iqtisodiy sharoitda zodagonlarga xizmati uchun yer-mulk berdilar. Bunday yer-mulk vaqtinchalik bo'lib, Van uni qaytarib olishi mumkin edi.

Bunday yerlarni meros qilib qoldirish muntazam tus oldi. Chunsysu (Bahorlar va kuzlar) davri (yer. avv. VIII-V asrlar)da urug‘ zodagonlari (ko‘p hollarda ular podsho uyi bilan qon-qarindosh edilar) hukmron mavqega ega bo‘lib, ular davlat boshqaruvidagi oliv lavozimlarni merosiy egallaganlar. Ular qo‘shtinning asosini tashkil qilgan jangovar jez jang aravalari egalari edilar. Ularga qarshi hukmdorlar o‘z qo‘shtinlarini piyodalardan shakllantirdilar.

### **Nazorat savollar:**

1. Nima asosida Qadimgi Sharqda davlatlar tashkil topadi?
2. Qadimgi Sharqda davlat tashkil topishda qanday jarayonlarni bosib utdi?
3. Qadimgi Misr davlatining o‘ziga xosligi?
4. Qadimgi Sharq mamlakatdarning mafqurasi nimaga asoslangan?
5. Qadimgi Xindiston Xitoy xukumdorlarini vaqolatlari nimadan iborat bo‘lgan?
6. Qadimgi Xitoy xukumdorlqanday arini vaqolatlari nimadan iborat bo‘lgan?
7. «Vedalar» qanday yodgorliklar hisoblanadi?
8. “Rigveda” qanday yodgorlik?
9. Oriy xind tarixida qanday iz qoldirgan?
10. Budaviylikni Osiyo malakatlari madaniyatiga qanday t’asir qilgan?
11. Qadimgi Xitoy sivilizatsisi ning madaniyati?
12. Shan davridagi Xitoy.
13. Chjou davridagi Xitoy.

### **Adabiyotlar:**

1. Artxashastra ili Nauka o politike: Perevod s sanskrita i izdaniye podgotovil V. I. Kalyanov. M., 1993.
2. Boboqulov Q., Eshov B. J. Qadimgi davr urbanizatsiyasining ayrim jihatlari // O‘zMU xabarlari, 2013. Maxsus son.
3. Vasilyev L.S. Istorya Vostoka. M., 1998.
4. Grinin L. YE. O stadiyax evolyusii gosudarstva. Problemi teorii // Istorya i sovremennost. 2006. № 1.
5. Gosudarstvo na Drevnem Vostoke. M., 2004.
6. Dyakonov I. M. O ploshadi i sostave naseleniya shumerskogo goroda-gosudarstva // Vestnik drevney istorii. 1950. № 2.
7. Za rubejom, 1990. № 8.
8. Savateyev V.V. Obshina i obshinnaya mentalnost v istorii sivilizatsii Vostoka // Vostok. 1994. № 4.
9. Current archaeological projects in the Central Andes. Oxford, 1984.
10. Alferova M.V. Istorya Drevnego Rima. SPb., 2002.
  11. Grinin L. YE. O stadiyax evolyusii gosudarstva. Problemi teorii // Istorya i sovremennost. 2006. № 1.
  12. Drevnyaya GretsiiY. M., 1956.
  13. Platon. Gosudarstvo (lyuboye izdaniye)

14. Polibiy. Vseobshaya istoriY. SPb., 1994-1995.
15. Tumans X. Rojdeniye Afini. Afinskiy put k demokratii: ot Gomera do Perikla (VIII – V vv. do n.e.) SPb., 2002.
16. Frolov E.D. Rojdeniye grecheskogo polisa. L., 1988.
17. Frolov E.D. Gretsya v epoxu pozdney klassiki. Obshestvo. Lichnost. Vlast. SPb., 2001.
18. Sitseron. Dialogi: O gosudarstve. O zakonax. / Per. V. O. Gorenshteyna, prim. I. N. Veselovskogo i V. O. Gorenshteyna, st. S. L. Utchenko. Otv. red. S. L. Utchenko. M., 1966.
19. Redmond E. M. A fuego u sangre. Ann Arbor, 1983.
20. Roger B. Beck, Linda Black, Larry S. Krieger, Philip C. Naylor, Dalia Ibo Shabaka. World history: patterns of interaction. Oxford University Press. England. 1994.
21. Spencer C. S. The Cuicatlan Canada and Monte Alban. New York, 1982.

## **2 mavzu. ILK O'RTA ASRLARDA DAVLATCHILIK VA BOSHQARUV VA RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA DAVLATCHILIK TARAQQIYOTI.**

Tayanch so‘z va iboralar: *Imperiya, harbiy kushin, mafqura, markazlashuv*

## REJA :

- 2.1. Frank davlati. Karolinglar davlatida feodal munosabatlar asosining shakllanishi.
- 2.2. Vizantiya imperiyasi va uning davlat boshqaruv sohasidagi o‘ziga xos jihatlari.
- 2.3. Ilk o‘rta asrlarda Xitoy va Hindistonda davlat boshqaruv shakllari.
- 2.4. Arab davlatining paydo bo‘lishi va davlatchilik an'analaridagi o‘zgarishlar.
- 2.5. Rivojlangan o‘rta asrlarda yevropada davlatchilik rivoji.
- 2.6. Rivojlangan o‘rta asrlarda Osiyo mamlakatlarida davlatchilik an'analari.
- 2.7. O‘rta asrlarda davlatchilik masalasi va din tushunchasining uyg‘unlashuvi va Buyuk geografik kashfiyotlar

**Tayanch so‘z va iboralar: *Imperiya, harbiy kushin, mafqura, markazlashuv***

### **2.1. Frank davlati. Karolinglar davlatida feodal munosabatlar asosining shakllanishi.**

**Kalit so‘zlar:** O‘rta asr, feod ,Feodalizm, varvar, Franklar, Vassallik, “Sali haqiqati”, Korolinglar, Buyuk Karl, Feodal shoxsupa, Sharqiy qism, Yustinian I, “Dehqonchilik qonuni”, Makedoniyaliklar sulolasi, Xan sulolasi, Yan Szyan, Li Yuan, toifa, mu, “Osmon farzandi”, Dinlar, Hindiston, Guptalar, kasta, Arabiston yarim oroli, Yasrib, yer solig‘i.

#### **“O‘rta asr” “Feodalizm” so‘zlarni paydo bo‘lishi**

“O‘rta asrlar” va “Feodalizm” so‘zlarining ma’nosи tarix jarayonida Yevropa tarixi fanida o‘zgarib borgan. Bu o‘zgarishlar avvaldan bo‘lib, davri jihatdan va avvaldan borligi tarixga bo‘lgan qiziqish yoki uni qayta yondoshish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar tarixiy jarayonlarni qayta ko‘rib chiqish va ularga “formatsion”, “ishlab chiqarish” hamda o‘sha davrdagi dunyoqarashlar bilan bog‘liq.

“O‘rta asr” so‘zi lotin tilida *medium aevum* bo‘lib, ilk bor italyan gumanistlar (insonparvarlar) tomonidan kiritilgan. XV asrda italyan gumanisti Flavio Byondo “Rim qulashidan buyon tarix” asarini yozib ilk bor “o‘rta asr” tushunchasini kiritadi. YA’ni Rim davrini antik davr deb nom berib o‘zi yashagan davrni “o‘rta davr” deb ajratadi. Ilk gumanistlar antik davrdan to o‘rta asrlargacha bo‘lgan davrni “**varvar**”lar yoki yovvoyilashgan davr deb ta’riflashgan.

XVII asrda Germaniyaning Gall universitetining professori Y.Keller “o‘rtas” iborasini jahon tarixini umumi davrlashtirishga kiritadi va shu bilan antik davr (qadimgi) o‘rtas va yangi davr bo‘ladi.

O‘rtas xronologik jihatdan Rim imperiyasining ikkiga bo‘linishidan ya’ni, imperator Feodosidan 395 yildan to Sharqiy Rim imperiyasi (Vizantiya)ni 1453 yilda Konstantinopol turklar tomonidan ishg‘ol etilishi bilan yakun topadi.

XVIII asr davomida ya’ni ma’rifatparvar davrida “o‘rtas” iborasiga keskin o‘zgarishlar kiritildi, qolaversa tarixdagi bosqich davrga yangicha yondoshishdi. YA’ni har bir davrni ajratishda uning madaniy jihatdan emas, balki dinga va cherkovga bo‘lgan munosabatdan kelib chiqib baho berildi.

Yangi tarix davri ilk kitob dastgohi ixtiro etilishi va yevropaliklarni Amerika qit’asini ixtiro qilishi bilan bog‘landi. XIX asrga kelib o‘rtas asrlarga bo‘lgan munosabat yana o‘zgara boshladi, ya’ni bu davr insoniyat davrida eng namunali davr deb talqin etilishiga urinib ko‘rildi. Lekin, fandagi ixtiolar, insoniyatni dunyo qarashi kengayib borishi bu urinishlarni yo‘qqa chiqardi.

XVIII va XIX asr oralig‘ida O‘rtas asrlar davrini o‘rganishda ikkita metodologik yo‘nalish shakllandi.

1. Antik davrdan boshlab to xristian dunyosini paydo bo‘lishiga qadar bo‘lib, unda tarixni rivojlanishi uzluksizligi, Yevropa jamiyatining evolyusion rivojlanishi, tushkunlikdan iqtisodiy va madaniy ko‘tarilishi aks ettirilgan. Xronologik bosqich XI asr deb belgilangan.

2. Metodologik yutuq esa tarix jarayonini tahlil etishda tarixiy vogelik, siyosiy jarayonlardan tashqari ijtimoiy tarixga ham nazar tashlangan. Bu esa “o‘rtas” va “feodalizm” iborasiga yangi talqin berilgan.

1789 yildan fransuz inqilobi arafasidan boshlab ilmiy ishlarda XI-XII asrlardagi hujjatlarda yuridik ibora “**feod**” so‘zi ishlatila boshlandi, ya’ni “**feod**” – yer mulki sifatida senyor tomonidan o‘z vassaliga xizmat evaziga foydalanishga berilgan. German yerlarida bunday ijtimoiy aloqa “**len**” deb atalgan.

XIX asrning 30-yillaridan boshlab tarixiy iboralari tushunchasini chuqurlashtirish kengayib bordi. YA’ni tarixni o‘rganishda tarixiy voqealarni yoritishda tarixiy qaxramonlarni hikoyalar orqali o‘rganish o‘rniga tarixiy bosqichma-bosqich, tarixiy jarayonlarni har tomonlama o‘rganish, manbalarga tanqidiy jihatdan yondoshish baho berishga qaratilgan.

Ilk bor bunday yondoshish Fransiyada O.Kont Angliyada Dj.Mill va G.Spenserlar asos solishgan va bunday yondashuv pozivitizm deb atalgan. Keyinchalik pozitivizm poydevori asosida yangi talqinlar va chuqur yondashuvlar rivojlandi. Hozirgi kunda G‘arbiy Yevropa uchun o‘rtas asrlar tarixi uch davrdan iborat:

- 1) V asr oxiridan XI asr o‘rtalariga qadar – ilk o‘rtas. Rim imperiyasini qulashi va feodal munosabatlarni shakllanishi bilan ifodalanadi
- 2) XI asr o‘rtalaridan XV asr oxiri – feodal munosabatlarini o‘sib borishi, shaharlar soni ko‘payishi, pul-tovar munosabatlarini rivojlanishi, feodal tarqoqlik asosida markazlashuv jarayonlari.

3) XVI-XVII asrlar – feodalizmni so‘nggi davri va yangi tarixni boshlanishi.

O‘rta asrlarni o‘rganishda 5 ta manbaga asoslanadi:

- 1) Tabiiy-geografik;
- 2) Etnografik;
- 3) Moddiy;
- 4) Badiiy-rassomchilik;
- 5) Yozma manbalar (hikoyalar, hujjatlar, qonunlar).

### **G‘arbiy Yevropada feodal tuzimini vujudga kelishi.**

G‘arbiy Rim imperiyasi german (varvar) qabilalarini kirib kelishi imperiyani qulashiga olib keldi (476 yili oxiri Rim imperatori Romul Avgustin taxtdan ag‘darildi, imperatorlik belgilari Konstantinopolga jo‘natildi). Natijada V asrda imperiya hududida bir qator Varvar qirolligi vujudga keldi. *Afrikada-Vandallar; Italiyada-Vestgotlar, Italiyada –Ostgotlar; Galiyada – Flanklar; Britaniyada – Anglo-Sakslar; Burgundiya* va boshqa mayda davlatlar. Bu davlatlar orasida kuchliroq Franklar davlati bo‘ldi.

486 yili Franklar Shimoliy Galliyani egallab, qabila boshlig‘i Xlodvig (486-511) Meroveya sulolasidan bo‘lib birinchi qiroliga aylanadi.

Xlodvig (507 y.) Akvitaniyani, uning vorislari (534 y.) Burgundiyani Provans (536 y.) hududlarini egallahshdi. Bundan tashqari Franklar german qabilalaridan *tyuringlarni, alemanlarni, bavarlarni va sakslarni* o‘zlariga bo‘ysindirishdi.

### **Franklar davlati**

486 yili Shimoliy Galliyani zabit etgan franklar o‘z davlatlarini tashkil etishadi, uning asoschisi franklarining *sali* qabilasining sardori Meroveya avlodidan Xlodvig (486-511 yy.) Merovinglar sulolasiga asos soladi.

Franklar davlatining V asr oxiridan VI asr oxirigacha merovinglar davri deb nom oladi.

Xlodvig 507 yilda Akvitaniyani, uning vorislari davrida 534 yilda Burgundiya, 536 yildan ostgotlardan Provansni tortib olishadi.

Franklar Reyn daryosi bo‘yidagi bir qator german qabilalaridan tyuringlar, alemanlar va bavarlarni bo‘ysindirishadi, sakslar har yili tovon to‘lashga majbur bo‘lishadi.

Franklar davlati boshqa varvar davlatlariga qaraganda uzoqroq hayot kechiradi. Franklar davlati misolida Yevropadagi feodallashuv jarayonining kelib chiqishi va rivojlanishi yorqin aks ettirilgan.

Oxirgi taddiqotlarga ko‘ra, franklar davrida ham asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar qullar va kolonlar bo‘lgan, aholi esa gall-rimliklar bo‘lgan.

Franklar V asr oxirida ham boshqa german qabillaridan (vestgotlar va burgundlar) farqliroq ijtimoi va iqtisodiy jixatdan qoloq ahvolda bo‘lishgan va bosib olingan hududlarda franklar rim-gall axolisidan alohida istiqomat qilishgan.

Franklar davlati, ijtimoi va iqtisodiy hayoti haqida Sali haqiqatidan ma'lumot olsa bo'ladi.

"Sali haqiqati" VI asr boshida Xlodvig davrida qabul qilingan, bo'lib, bu *sali* qabilasintng urf-odat qonunchilik to'plami bo'lib franklar davlatining qonunchiligiga asos bo'lib qoladi va VI-IX asrlar davomida frank qirollari tomonidan to'ldirilib boriladi. Sali haqiqatiga ko'ra franklarda har bir oilaga ekin maydon taqsimlab berilishiga qaramay, yer jamoa mulki hisoblangan va faqat erkak tomonidan meros bo'lgan, agar erkak voris bo'lmasa, jamoa vakillari hisobiga o'tib ketgan, lekin 561-584 yillarda hukmdorlik qilgan qirol Xilperik allod haqida yangi qonun joriy etib unga ko'ra yer shaxsiy allodga aylanib, merosxor erkak kishi bo'lmasa, qiziga yoki singlisiga o'tishini qonunlashtiradi.

Yerni asta-sekin xususiy mulkka aylanishi, franklarni urug'-aymoqchilik tuzishini yemirilishini tezlashtiradi va feudal munosabatlarini shakllantiradi. Qulchilik saqlanib qolishiga qaramay, qullar asosan uy yumushlarida, chorva boqishda ishlatilgan.

Franklar davlati Xlodvikni vafotidan so'ng yirik yer viloyatlarga bo'linib ketadi, ya'ni:

*Neystri;*

*Avstrazi;*

*Burgundiya;*

*Akvitaniya*

Ushbu to'rtta viloyat o'zini etnik va feodallahuv jarayoni bilan farq qilgan. VII asr oxiriga kelib har bir viloyatdagi hukumat mayordlar qo'liga o'tib ketadi. Bir vaqtlar mayorat oddiy saroy xizmatidagi lavozimlardan bo'lgan.

To'rt viloyat bir-biridan mustaqil bo'lgan, natural xo'jalik hukm surgani uchun viloyatlar o'rtaida iqtisodiy aloqalar bo'lmasan.

687 yili Avstrazi mayordi Pipin Geristalskiy butun frank qirolligini mayordiga aylanadi va har viloyatda qirol taxtiga o'zi qirol vakillari o'tkazadi, shu davrdagi qirollarni "dangasa qirollar" deb nom berishgan. "Dangasa qirollar" davrida asta-sekin Pipin Geristalskiyni vorislari avval mayordlar, 751 yildan qirollar sifatida davlatni boshqara boshlashadi va shu tariqa "korolinglar" davri boshlanib IX asrgacha davom etadi.

Korolinglar davrida feodallahuv jarayoni yanada tezlashadi va VIII asr boshlariga kelib Franklar qirolligida ikki qarama-qarshi guruh shakllanadi, ya'ni yirik yer egalari ularga qaram bo'lib qolgan dexqonlar, ular o'rtaida doimo to'qnashuvlar yuz bergen.

Karl Martel ("Bolg'a" 715-741) mayord lavozimidan foydalanib avallo o'zaro urushlarga chek qo'yishga harakat qiladi, qolaversa tashqi dushmanga qarshi ham harakat qiladi, ya'ni 732 yili Puatyeh shahri yaqinida Karl Martell bostirib kirgan arablarga qarshi kurashda g'olib bo'ladi, ichki islohotlarda allod o'rniga benefitsiyini kengaytirishga harakat qiladi, chunki shu yo'l orqali harbiy qo'shinni kuchaytiradi va markaziy hokimiyatni mavqeini oshiradi.

Karl Martell vorisi Pipin Kichkina (Kalta) (741-768) Cherkov bilan bo‘lgan muammoni hal etadi va Rim Papasini nazariga tushadi. Langabardlar tomonidan siquvda qolgan Rim papasi Pipin Kichkinani qirol taxtiga o‘tirishga undaydi va 751 yil Suasson shahrida, tantanali ravishda, Pipin qirol tojini kiyadi va korolinglar sulolasiga asos soladi. Merovinglardan so‘ngi qirol Xilderik III monastrga jo‘natiladi.

Korolinglar sulolasida Pipin Kaltaning o‘g‘li Karl keyinchalik Buyuk Karl katta nom qoldiradi, u nafaqat markaziy hokimiyatni mustahkamlaydi, va keskin davlat chegaralarini kengaytiradi.

774 yili Italiyaga hujum uyushtiradi, Langabordlarni so‘nggi qiroli Dezideriy ustidan g‘alaba qozonadi va davlatiga qo‘shib oladi.

778 yil arablarga qarshi kurash boshlab Saragossagacha yetib boradi, lekin chekinishga majbur bo‘ladi, bu yurishda Karlning sarkardalaridan Roland asosiy xarbiy qo‘shinlarni chekinishida jasorat ko‘rsatadi. (Keynchalik fransuz xalq og‘zaki ijodida Roland haqida qo‘shiq (epos) tug‘iladi.)

801 yili Karl yana qayta arablarga qarshi yurish qilib Barselonani egallaydi va Ispan markasini tashkil etadi.

772-802 yillari Karl Sakslarga qarshi harakat olib boradi va faqat 777 yildan boshlab Karl german qabilalarini cho‘qintirishni boshlaydi va qabila sardorlariga katta yerlar in’om etib ularni bo‘ysindiradi.

Sakslarni qarshilagini sindirish yo‘lidan yana biri 804 yildan sakslarni davlatni ichki hududlariga, frank va obodrit qabilalarni saksoniyaga ko‘chirishi siyosatini olib boradi.

788 yil Karl Bovariyani qo‘shib oladi.

800 yili Karl Papa Lev III ga Rim shahridagi issyonni bistirishga va hayotini saqlab qolishga yordam beradi , minatdorchilik sifatida Papa Karlni boshiga imperatorlik tojini kiydiradi va natijada Karl va Vizantiya o‘rtasida nizo kelib chiqadi, ya’ni har bir imperator o‘zlarini Rim imperiyasining davomchisi deb bilishgan.

Karlning poytaxti Aaxen shahri bo‘lib , lekin bosib olingan viloyatlar bir-biridan uzoqlashgan va shuning uchun Karl butun umri harbiy yurishda yoki viloyatlarini nazoratdan o‘tqazishda o‘tgan.

Tashqi ko‘rinishda Buyuk Karlning davlati markazlashgan bo‘lsa ham, amalda esa tarqoq bo‘lgan.

VIII asr oxiridan IX asr boshlarigacha Franklar davlatida yer egalik shakllari rivojlanishi avj oldi va erkin dexqonlarni qaramlikka o‘tishi ommaviyashib ketdi.

847 yili Buyuk Karlning nabirasi Karl (kal yoki Yaltorok Bosh) har bir erkin dexqon o‘ziga senyor topishi shart deb farmon chiqazdi va shu bilan vassalitet davlat tizimi shakilana boshlandi lekin bu tizim davlatni yemirilishiga va tarqoqlika yo‘l ochib berdi.

Vassalitet shox supasi:

**Qirol**  
|  
**Gersoglar va Graflar**  
|  
**Baronlar**  
|  
**Ritsarlar**

**(Erkin dexqonlar feudal shoxsupasiga kirishmagan)**

Boronlardan so‘ng Ritsarlar toifasi bo‘lib ular feudal shoxsupani so‘nggi pog‘onasi bo‘lishgan. Ritsarlar toifasi XI-XII asrlarda shakllanib bo‘lib oddiy xalqdan ulug‘zotligi va butun umr harbiy xizmatta bo‘lishi bilan ajralib turgan.

XI-XII asrga kelib G‘arbiy Yevropa davlatlarida o‘ziga xos feudal shox supa (yerarxiya) tuziladi o‘zaro bir-birini turli majburiyatlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lishadi.

Angliyadan tashqari Yevropa davlatlarida “mening vassalimning vassalli mening vassalim emas” ibora hukm surgan.

Vassalitet o‘ziga xos tartibda joriy etilgan ya’ni o‘zini vassallik bag‘ishlashdan avval tantanaliy ammoj (qassamiyod) keltirgan ya’ni o‘zini guvohlar oldida “o‘zga vassallikka bag‘ishlash *Fua - sodiqlik*” qasamiyotini bergen.

Asosiy majburiyatlardan tashqari (yilliga 40 kun xarbiy xizmat o‘tashdan tashqari) vassal o‘z senyoriga hech qachon qarshi chiqmasligi, uni shanini, mulkini, himoya qilish, moliya jihatdan yordam berish, oylaviy tantanalarida ishtirok etish kerak bo‘lgan, o‘z navbatida senyor vassaliga nisbatan uni himoya qilish, uning yetimlariga va bevalariga homiylik qilish lozim bo‘lgan.

Feodal shoxsupasi chigal bo‘lishi doimo to‘qnashuvga olib kelgan, IX-XI asrlarda qirol hukumati sust bo‘lgani tufayli har qanday muammoni harbiy yo‘l bilan hal qilish oddiy hol bo‘lgan shuning uchun doimo o‘zaro feudal urushi aynan shu davrga to‘g‘ri keladi.

XI asrning boshlaridan boshlab feodallar urushiga cherkov barham berishga kirishadi va “*ilohiy sulk*” yoki “*iloxiy yarash*”ni targ‘ibot qilishadi.

Feodallarni asosiy mashg‘uloti harbiy yurish va talonchilik bo‘lgan. Sevimliy kun kechirishlaridan, ov qilish, ot musobaqalari va turli turnirlar bo‘lgan.

X-XI asrlar butun Yevropada qasrlar quriladi, feodalni qasri uning qo‘shti feodallardan yoki isyon ko‘targan dexqonlardan asraydigan panox bo‘lishdan tashqari siyosiy, ma’muriy va harbiy markaz vazifasini bajargan.

X asr oxiriga qadar qasrlar yog‘ochdan qurilgan ikki qavatli bino bo‘lib u devor bilan o‘ralgan, devor ostida suv to‘ldirilgan xandaq o‘rab turgan.

XI asrdan boshlab qasrlar toshdan (feodallarning qurbiga qarab) qurila boshlandi. X-XI asrlarda Yevropada asosiy harbiy kuch otliq qo‘shtin bo‘lib qoladi, har bir feodal o‘z senyoriga harbiy xizmat o‘tib berish shart bo‘lgan.

XII-XIII asrlarda Yevropa “*ritsar kodeks*”lari paydo bo‘ladi, ya’ni dovyurakli, xulq-atvori bilan, beva bechoralarni va yetimlarni himoya qilish lozim bo‘lgan, lekin bu haqiqatdan yiroq bo‘lgan, feodallar oddiy dexqonlar va shaharliklardan hazar qilishgan, va qanchalik bir-birilaridan uzoq bo‘lishmasin xavfli onglarda bir-birilariga bog‘liq bo‘lishgan.

## **2.2. Vizantiya imperiyasi va uning davlat boshqaruvi sohasidagi o‘ziga xos jihatlari.**

Vizantiya tarixi bir necha bosqichdan iborat :

1. Ilk (IV-VII-birinchi yarmisi).
2. O‘rta (VII-ikkinchi yarmisi – XII asr).
3. So‘nggi (XIII-XV asr o‘rtalari).

G‘arbiy Rim imperiyasi German qabilalari tomonidan istilo qilingandan keyin ham Rim imperiyasining Sharqiy qismi uzoq vaqt hukm surdi. Davlat tili lotin tili bo‘lishiga qaramay aholi o‘rtasida grek (yunon) tili hukm surardi, chunki imperiya hududi turli xalqlar bo‘lishiga qaramay (grek, assuriyaliklar, armanlar, gruzinlar va hokozo) yunonlar va ularning tili ustuvor edi.

Sharqiy Rim yoki Vizantiya imperiyasi paydo bo‘lishiga turli yondashuvlar bor, tarixchilar, davlat nomini tarixchilar imperator Konstantinning eski yunon shahri Vizantiya o‘rniga asos solgan yangi shahar (339) (Konstantinopol) bilan, davlatni kelib chiqishi esa imperator Feodosiyning o‘g‘li (355) Arkadiy bilan, 476 yil G‘arbiy Rim qulashi natijasida tarix saxnasida imperiyaning sharqiy qismi o‘zini saqlab qolgani bilan bog‘lashadi.

Sharqiy qismni – G‘arbiy qismdan kuchliroqligini harbiy, iqtisodiy, ijtimoiy va moliyaviy sabablar bilan ifodalasa bo‘ladi.

Sharqiy qismning iqtisodiy kuchi, hududda (Misr, Shimoliy Mesopotamiya, Yaqin Sharq, Kichik Osiyo, Bolqon yarim oroli) sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiq ancha yuksakligi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi asosan erkin dexqonlarga suyanganligi va markaziy hokimiyatni kuchliroqligi bilan ajralib turadi.

Quldarlik tuzumi ham keskin tushunkunlikka uchramaydi, bunga asosiy sabab qul g‘arbidagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi rolini o‘ynagan. Sharqiy imperiyasida jamoatchi dexqonlar davlat dexqonlari bo‘lib o‘z yerlari, shaxsiy mulk va xo‘jaliklari bo‘lgan. Sharqiy Rimning ilk yuksalishi imperator Yustinian I bilan bog‘liq (527-565 yy).

Yustinian I Vizantiya tarixida yirik imperator, davlat arbobi, sarkarda va qonunchi sifatida tarixga kiradi.

Yustinian I sobiq Rim imperiyasi tiklash maqsadida Varvar qirolliklarini ishg‘ol etishni boshladи (534 – Vandallar qiroli, 555-Ostgotlar va Vestgotlar qirolligini) davlatlarini bosib oldi. O‘rta yer dengizi ichki dengizga aylandi.

Lekin Yustinian I davrida xuddi G‘arbiy Rim imperiyasiga varvar qabilalarni siqib chiqarishi Sharqiy imperiyadan ham yuz berdi, Bolqon yarim oroli janubiy slavyan

qabilalarini va Langobardlarni bostirib kirib quldarlik tuzumini yemirilishiga va yangi feodal munosabatlarni shakllanishiga olib keldi.

Yustinian I tarixga yirik qonunchi sifatida ham nom qoldirgan. 528-534 yillarda to‘rt qismdan iborat yuridik kodekslar yaratilgan

- I. **12 tomlı** (jildli) Yustinian kodeksi – Rim imperatorlarni qonunlari;
- II. **Digestlar** – 50 ta kitob – mashhur yuristlarni asarlaridan parchalar;
- III. **Institusiyalar** – sudyalar va o‘quvchi yuristlar uchun qo‘llanma;
- IV. **Novellalar** – Yustinian kodeksiga kirmagan yangi qonunlar.

Qonunlarda quldarlik tuzumi yemirilishi va shaxsiy mulkdorlarni paydo bo‘lishi yuridik hujjatlarga e’tibor qaratilishi ko‘zga tashlandi, bu qonunlarni chiqarishdan maqsad bir tomondan quldarlik tuzumini saqlab qolish.

Yustinian I umri oxirida barpo etilgan davlat yemirila boshlandi, bunga asosiy sabablardan biri bosib olingen hududlarda quldarlik bekor qilinmaganligi, aksincha mahalliy aholi ustidan zulm kuchaytirilganligi, harbiy yurishlarni moliyaviy qoplash uchun yer va boshqa soliqlarni oshirdi, bu esa erkin dexqonlarni noroziligiga olib keldi. Harbiy mag‘lubiyatlar Vizantiyani sharqda ham uchraydi, ya’ni avvalgi Eron davlati o‘rniga yangi asosiy dushman - arablar paydo bo‘ldi.

636-642 yillari Vizantiya - Suriya, Falastin, Yuqori Mesopotamiya, Misr va boshqa hududlardan mahrum bo‘ldi. 602 yili Konstantinopolda saroy to‘ntarishi natijasida Yustinian sulolasasi taxtdan tushirilib yangi Irakliy sulolasasi keldi. Yustinian sulolasini oxirgi vakili Mavriki to‘ntarish natijasida butun oilasi bilan qirib tashlandi.

Imperator Irakliy vaqtida (610-641) imperiya ozmuncha mustahkamlandi, Eronliklardan Suriya, Falastin, Misr qaytarib olindi, lekin bu ko‘pga bormadi, VII asr 30-40 yillarida bu hududlarni arablar tortib oldi.

Irakliy vorislari davrida Vizantiya hududi yanada qisqardi, Shimoliy Afrika arablar tomonidan, bolqon yarim oroli Bolgariya (679) davlati tomonidan tortib olindi.

Yustinian davri bilan solishtirilsa Vizantiyada faqat Bolqon yarim orolini janubiy qismi, Janubiy Italiyaning bir qismi, Qrim yarim orolining bir qismi, Kichik Osiyo va Arxepelag orollari qoldi.

VII asrda Vizantiyada hududiy o‘zgarishlardan tashqari ichki, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ham ro‘y berdi, Aleksandriya va Antioxiya yo‘qotilganidan so‘ng Konstantinopol Sharq va G‘arb o‘rtasida muhim savdo ko‘prigiga aylandi, quldarlikni yemirilishi tezlashib feodalizmni rivojlanishi davom etdi.

VII asr boshlarida Vizantiya hududiga slavyan qabilalarini kirib kelishi yer munosabatlarga keskin o‘zgarishlar olib keldi, shu davrga oid manbalarga qaraganda o‘ziga xos “Dexqonchilik qonuni” yer va yerga egalik qilish turlari yaqqol ko‘rsatilgan.

Vizantiyadagi kelgindi slavyan dehqon aholining ahvoli “Dehqonchilik qonuni”da juda yaxshi ta’riflangan, bu manba VIII asrga oid bo‘lib, lekin unda VII asrdagi agrar munosabatlар ham aks etgan. Ushbu manbaga qarab fikr yuritilganda, bunda dexqonlar erkin aholi bo‘lib, ularning o‘z ekinzorlari, tokzorlari va bog‘lari bo‘lgan. Dehqonlarning xo‘jaligidagi dehqonchilikning o‘zidan tashqari, chorvachilik ham katta rol o‘ynagan. Har bir dehqonning yer uchastkasi ekinzor, tokzor yoki bog‘dan iborat bo‘lib,

uning o‘z xususiy mulki deb hisoblangan, lekin unda jamoa yer egaligining alomatlari ko‘rinib turar edi.

Shunday qilib, “Dehqonchilik qonuni” jamoaning tabaqalarga ajrala boshlaganligidan, jamoa a’zolarining o‘z yonidagi katta dunyoviy yer egalarini yoki cherkov-monastir yer egalariga qaram bo‘la boshlaganligidan ham dalolat beradi. Son jihatdan ko‘paygan, iqtisodiy jihatdan mustahkamlangan, jamoalarga uyushgan Vizantiya dexqonlari VIII-IX asrlarda ishlab chiqarish kuchlarini muvaffaqiyatli rivojlantirdi, mamlakatni g‘alla bilan, dehqonchilik, chorvachilik, bog‘dorchilik, tokchilik mahsulotlari bilan to‘la ta’minlab turdi. Shu bilan bir vaqtida hukumat dexqonlaridan muntazam ravishda yer solig‘i olib turar edi. Bu narsa davlat moliyasini ancha tartibga soldi. Nihoyat dehqonlar Vizantiya barpo etilayotgan yangi qo‘sish uchun manba bo‘lib xizmat qildi, imperiya ulardan uning eng xavfli dushmani bo‘lgan Arab xalifaligiga qarshi kurashda foydalandi.

XIII asr boshida Vizantiya arablar tomonidan siqila boshladи, Kichik Osiyoga bostirib kirib, Kipr va Rodos orollari bosib olinib 717-718 yilda, bir yil davomida Konstantinopol qamal qilindi, lekin Konstantinopol bunga bardosh berdi va arablar shaharni bosib olishdan qaytishdi. Konstantinopolning qulay strategik mavqeい, Vizantiyaliklarning “Greklar o‘ti” deb atalgan o‘tni ishlatishi, imperatorga ittifoqchilar, ya’ni Bolgarlarning yordam berishi natijasida, arablar katta talofat ko‘rib, chekinishga majbur bo‘ldilar. Yangi saylangan imperator Lev III Isavr iste’dodli tashkilotchi va qobiliyatli oliy qo‘mondon bo‘lib chiqdi. U Suriya bilan chegaradosh Isavriya viloyatidan chiqqan bo‘lib, yangi isavrlar dinastiyasiga asos solgandir. Isavrlar sulolasi Vizantiyani yuz yil davomida (717-802) idora qildi. Lev III (717-740) va unga yordamchi bo‘lib, uning o‘rniga imperator bo‘lgan Konstantin (740-775) arablarga qarshi kurashda katta tajriba orttirgan harbiylar edi. Lev III imperator taxtiga o‘tirib harbiy ishga katta e’tibor berdi. VII asrda Irakliy va uning vorislari davridayoq Vizantiya hukumati yollanma qo‘snilarga qo‘sishma ravishda mahalliy lashkarlar to‘plagan qismini amalga oshirgan, bu mahalliy lashkarlar mahalliy mablag‘lar hisobidan ta’milanardi. Lev III zamonida bu harbiy reforma yanada rivoj topdi.

Vizantiyaning asosiy raqibi bo‘lgan arab xalifaligi mayda davlatlarga bo‘linib ketishi, Makedoniya sulola imperiya hududini kengayishiga olib keldi, arablardan Krit, Kipr orollari, Antioxiya shahri bilan birga Suriyaning katta qismi qaytarib olindi, lekin slavyan davatlari bilan munosabatlar yomonlashib ketdi, Bolgariya podsholigi bosib olindi, Bolqon yarim orolidagi serb, xarvat va boshqa qabilalar hududi qisqa vaqt bo‘lsada bo‘ysundirildi. Makedoniyaliklar sulolasi davrida Vizantiya va Rus davlati o‘rtasida yaqinlashuv yuz berdi.

717-802 yillari Vizantiya tarixida Isavrlar sulolasi deb nom oldi. Sulola asoschisi Lev III (717-740) bo‘lib imperatorlikni harbiy islohotdan boshladи, ya’ni yonlanma qo‘sindan tashqari mahalliy lashkarlar to‘plash va ularni shu mahalliy aholini bo‘yniga qo‘ydi, butun mamlakat alohida harbiy okruglarga (*fomlar*)ga bo‘linib har bir okrug davlat chegaralarini qo‘riqlash kerak edi, harbiy safarbar qilingan oddiy askarlar *stratiot* butun umr xizmat qilib, ma’lum yer bo‘lagi bilan ta’milanardi va yer orqasidan kun

kechirardi, davlat soliqlaridan qisman ozod etilardi. Harbiy islohot natijasida piyoda askarlar (mayda yer dexqonlar) va otliq askarlar (*mayda polistye yer egalari* - ritsarlar) harbiy islohotni amalga oshirish uchun imperator Lev III senatorlar va cherkov, monastirlarni yerlari tortib olishga majbur bo‘ldi, lekin bu yo‘l bilan Lev III avvalo unga qarshi bo‘lgan kuchli senatorlarni va cherkovni yengdi.

Katta yerga egalik qilgan cherkovga qarshi kurash imperator Lev III boshlab beradi va bu kurashni uning vorislari davom ettirishdi.

Cherkov yerlarining keng ko‘lamda *sekulyarizatsiya* (*davlat mulkiga aylantirilishi*) qilishi Isavr imperatorlarning nomi bilan bog‘liq. Isavriyalik imperatorlar o‘z zamondoshlaridan *“butga qarshi kurashuvchilar”* degan laqab oldi. Ular butga sig‘inishga qarshi farmonlar chiqardilar, ularning buyrug‘i bilan ikonalar ibodatxonalaridan olib chiqildi va ularning bir qismi yo‘q qilib tashlandi. Cherkov buni asos qilib imperatorni butga qarshi kurashda aybladi. Lekin Isavriyalik imperatorning siyosati ular taxtga chiqmasdan ilgari Vizantiyada boshlangan diniy janjallar doirasidan xila chetga chiqib ketdi. Imperatorlardan Lev III, Kanstantin u va ularning vorislari ayni katta cherkov-monastir yer egaligiga qarshi kurash qizib ketgan bir paytda butga cho‘qinishiga qarshi chiqdilar, butga qarshi kurash o‘ziga xos bir bahona bo‘lib, shu bahona bilan hukumat eng yirik monastirlarni yopib qo‘ydi va cherkov-monastir mulklarni musodara qildi. Monastirlarning g‘azna ixtiyoriga olingan yerlari Vizantianing tashkil topayotgan ritsarlariga benefitsiy qilib taqsimlab berildi. Monastirlarning yerlaridan harbiy xizmat uchun beriladigan bunday uchastkalar Vizantiyada alohida bir termin bilan *xaristikiy* deb atalgan, bu esa ma’no jihatidan lotincha *“benifitsiy”* so‘ziga to‘g‘ri keladi.

Isavriyalik imperatorlarning harbiy isloxatlari yaxshi natija berdi. Imperatorlar katta harbiy kuchga ega bo‘la oldi. **Fem** qo‘sishnulari o‘z okruglarini arablardan juda yaxshi himoya qildi. Vizantiya hukumati sal-pal kattaroq ko‘lamda hujum operatsiyasi olib borishga hali jur’at etolmasdi. Lekin hukumatning siyosati cherkov guruhi o‘rtasiga katta norozilik tug‘dirdi. Yangi sulola obro‘sining kuchayishidan norozi bo‘lgan dunyoviy zodagonlarning bir qismi ham cherkov guruhiga qo‘sildi. Butga qarshi kurash tarafdarlari bilan butga cho‘qinish tarafdarlari o‘rtasidagi kurash bir necha o‘n yilga cho‘zildi va ba’zan bu kurash juda keskin tus oldi. Lekin xalq ommasi o‘rtasida ham norozilik kuchayib bormoqda edi. Feodalizmning taraqqiy etib borishi ekspluatatsiyaning yangi formalarini vujudga keltira boshladи. Feodal yer egasining qo‘sishligi erkin dehqon jamoalarini krepostnoylashtirish xavfi ostida qoldirgan edi. IX asrning boshlarida arablar xarfi ostida qoldirgan dehqonlarning ahvoli juda ham yomonlasha boshladи. Yangi *“qudratli odamlar”* – dinatlar yoki (slavyanlar ataganidek) *“vlastellar”* – jamoaga qarashli ekin ekiladigan yerlari va yaylovlarni tap tortmay xayosizlarcha bosib olib, stratioglarni esa o‘z krepostnoylariga aylantira boshladilar.

IX asrning yarmidan to XI asrning yarmigacha Vizantiyani Makedoniyaliklar dinastiyasi idora qildi. **Vasiliy I Makedonlik** bu sulolaning birinchi vakili (867-886). X asrda bu suloladan bir necha mashhur imperatorlar chiqdi, o‘z zamonining atoqli olimi va yozuvchisi **Konstantin VII Bagryanorodniy** (912-959), mashhur harbiy sarkardalar

– **Nikifor Foka** (963-969), **Ioan Simisxiy** (969-976) va **Vasiliy II Bolgoroboysa** (976-1025) ana shular jumlasidandir.

Makedoniyaliklar sulolasini idora qilgan vaqtga kelib Konstantinopol juda katta savdo markaziga aylandi va Yevropa bilan Osiyo o‘rtasidagi sadoda asosiy vositachilik rolini o‘ynadi. Osiyo o‘rtasidagi savdoda asosiy vositachilik rolini o‘ynadi. Arab russlavyan, italyanlarning savdo-sotiqlari Konstantinopolga kelib to‘planib, uning juda katta shuhrat qozonishiga va joylanishiga sabab bo‘ldi. Vizantiya imperatori tashqi savdodan shunday katta daromad oldiki, IX va X asrlarda G‘arbiy Yevropadagi korol va imperatorlardan birortasi ham bunday daromad ololmas edi. Shu bilan birga IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab arablar xavfi Vizantiya uchun qo‘rqinchli bo‘lmay qoldi. Arab xalifaligi bu vaqtida ayrim-ayrim mustaqil davlatlarga bo‘linib ketgan edi.

Vizantiyaning o‘zi endi arablar Sharqiga qarshi hujumga o‘tishga molik bo‘lib qolgan edi.

Makedoniyaliklar sulolasini vaqtida imperianing territoriyasi yana kengaydi. Sharqda arablardan Krit, Kipr orollari, antioxiya shahri bilan birga Suriyaning katta bir qismi tortib olindi. G‘arbda, ya’ni Italiyada imperiya apuliya bilan Sitsiliyani birmuncha vaqtga qaytarib oldi.

821 yili Vizantiya tarixida (Isavrlar sulolasini davrida) yirik qo‘zg‘olon bo‘lib o‘tadi, tarixga “Foma slavyan” qo‘zg‘oloni deb nom oladi. Uzini imperator Konstantin VI o‘g‘li deb e’lon qiladi, arablar tomonidan qo‘llab-quvvatlanib Konstantinopolni qamal qiladi, lekin mag‘lub bo‘lib – qatl etiladi.

843 yil butga sig‘inish yana tiklandi lekin, musodara etilgan yerlar qaytarilmadi.

IX asr yarmidan to XI asr yarmigacha Vizantiya taxtida Makedoniyaliklar sulolasini hukm surdi, sulola asoschisi Vasiliy I Makedonlik (867-886) bo‘ldi.

Bu sulola davrida Konstantinopol yirik savdo Markaziga aylandi, Vizantiya imperatori vositachilik savdosidan Yevropada qirol va imperatorlar qaraganda katta foyda topar edi.

Vizantiyaning asosiy raqibi bo‘lgan arab xalifaligi mayda davlatlarga bo‘linib ketdi. Makedoniyalik sulola davrida imperiya xududi kengayib bordi, arablardan Krit, Kipr orollari, Antioxiya shahri bilan birga Suriyaning katta qismi qaytarib olindi, slavyan davlatlari bilan munosabatlarda yomonlashib ketdi. Bolgariya podsholigi bosib olindi, Bolqon yarim orolidagi serb, xarvat va boshqa qabilalar hududi qisqa vaqt bo‘lsada bo‘ysundirildi. Makedonliyaklar sulolasini davrida Vizantiya va Rus davlati o‘rtasida yaqinlashuv yuz berdi.

Makedoniyaliklar dinastiyasi vaqtida Vizantiya bilan Rus o‘rtasidagi munosabatlar totuvlashdi. Qizg‘in savdo munosabatlari, mustahkamlangan madaniy aloqa, umumi dushmanlarga –pecheneglar, xazarlar va polovetslarga qarshi birgalikda kurash olib borilishi natijasida Vizantiya bilan Rus o‘rtasida X asrning ikkinchi yarmida do‘stona munosabatlar o‘rnatildi. Bu do‘stlik munosabatlari kamdan-kam hollardagina dushmanlik harakatlari tufayli uzolib turdi. Konstantinopol patriarchi Rus cherkovi boshlog‘ini Kiyev metropolitini tayinlash huquqini da’vo qildi. Biroq Rusning cherkov yo‘li bilan Vizantiyaga bo‘lgan qaramligini Yaroslav I rus popi Illariionni 1051 yilda

Kiyev Metropolit qilib tayinlash bilan ancha bo‘shashtirdi. Rus cherkovi Konstantinopol cherkovining hukmronligidan 1448 yilda uzil-kesil qutulib oldi. Rus metropolitlari, hatto greklardan bo‘lganida ham rus cherkovini mustaqil idora qilar va odatda olisdagi Konstantinopol patriarchidan ko‘ra Rusning buyuk knyazi irodasi bilan ko‘proq hisoblashardi.

XI asr o‘rtalarida Vizantiya cherkovining hayotida ikkinchi bir muhim voqeа Rim papasi bilan ajralish yuz berdi. Bir tomonda, Konstantinopolning Italiya bilan aloqasi susayib ketishi, ikkinchi tomonda, G‘arbda Rim papalari siyosiy qudratning kuchayishi shunday oqibatlarga olib keldiki, o‘sha vaqtgacha yagona bo‘lib kelgan xristian cherkovi g‘arbiy katolik va sharqiy-provaslavga ajralib ketdi. Bu vaqtga kelib ularning diniy marosimlari toat ibodat tili va boshqarish sistemasining o‘zi ham (g‘arbda-papa va kardinallar, sharqda-poytaxt shahar Konstantinopolning patriarchi boshchiligidagi patriarchlar) ancha o‘zgarib ketdi. Cherkovlardagi ajralish 1054 yilda Rim papasining legatlari, ya’ni elchilari grek cherkovini rim cherkovi bilan aloqa qilishini rad etib, Konstantinopolni tashlab chiqib ketgan paytdan boshlandi. bunga javoban Konstantinopol patriarchi Rim cherkovi bilan uning boshlig‘i papaga la’nat o‘qidi.

Makedoniyaliklar dinastiyasi vaqtida Vizantianing feodallahuv protsessi tez avj olib bordi. Erkin dexqonlarning soni shu qadar tez kamayib bordiki, mamlakat mudofaa qobiliyatining pasayishidan, shuningdek, aholidan tushadigan soliq mablag‘larining kamayishidan qo‘rqib, imperatorlarning o‘zlarini ham tashvishga tusha boshladilar. Dinatlar tomonidan dehqon yerlarining bosib olinishiga qarshi X asrning birinchi yarmida imperatorlar bir necha marta famonlar-novellalar (922, 934 va 947 yillardagi novellalar) chiqardi. Imperator Vasiliy II nechta yangi farmon chiqardi.

## **XI-XII asrlarda Vizantiya**

Feodal zadogonlar shu qadar kuchayib ketgan ediki, 1057 yilda makedoniyaliklar dinastiyasining o‘rnini va Kichik Osiyodagi zadogon yirik yer egalaridan chiqqan Komninlar dinastiyasi erkin dehqonlarning qolgan-qutganlarini ham feodallarga yem qilib berishga har tomonlama ko‘maklashdi.

Komninlar vaqtida katta cherkov yer egaligi makedoniyaliklar dinastiyasi vaqtidagiga qaraganda kengroq ko‘lamda qayta vujudga kela boshladi. Shu bilan birga Vizantiya pomestelarida hali bir muncha qullar ham bor edi. Ular asosan hovli ichidagi har xil ishlarni qilish bilan birga, ulardan qishloq xo‘jalik ishlarida, ayniqsa sug‘orish yo‘li qurilish ishlarida, tosh konlarida va shu qabilalarda ham foydalanadilar.

Vizantiya o‘zining ko‘p asrli hayoti davrida boy va rang-barang madaniyat yaratdi. Bu madaniyat janubiy slavyanlarga va Rusga katta ta’sir ko‘rsatdi. VI asrlardayeq o‘zining ilk namunalarini bergan Vizantiya arxitekturasi (Yustinian imperatlari) keyingi asrlarda ham rivojlanishda davom etib, pishiq monumentlar Vizantiya ibodatxonalarini tipini bunyod qildiki, bu tipdagи ibodatxona namunalari XI asrdagi qadimiy rus yodgorliklari tutish kerakki, ruslardagi “vizantiya” uslubi o‘zi namuna olgan grek uslubidan ko‘p jihatdan farq qilardi. Qadimgi slavyan motivlarini

ham o‘z ichiga olgani holda bundan keyingi rivojlanish protsessida o‘zining original formalarini yaratgan o‘sha uslub umuman olganda ruslarning o‘ziga xos ijodi edi.

Shuni aytib o‘tish kerakki, Vizantiyada qurilish texnikasi g‘isht qilish, juda ajoyib oxak qorishmasi tayyorlash, g‘isht terish san’ati, monumental qubbalar, ulug‘vor gumbazlar va shu kabilar yaratish texnika o‘z zamonasi uchun juda yuksak darajada edi. Vizantiyada IX-XI asrlarda rassomlik rasm solish ham, koshinkorlar tasvirlari ham zo‘r berib rivojlana bordi; rassomlikning bu shakllari Vizantiyada tobora qat’iy tus olib va uslublashib bordi.

Konstantin VII dan ilgari esa o‘z zamonasining eng atoqli to‘plovchisi, bibliofili va ensiklopedisti patriarx fotiy bo‘lib (820-891), o‘zidan keyin “Miriobiblili” deb ataladigan to‘plam qoldirgan, bu to‘plamga 300 ga yaqin ocherk kirgan, bular qadimgi grek avtorlarining asarlaridan ko‘chirma bo‘lib, ularning har qaysisiga tegishli sherlar berilgan.

Vizantiyada yilnomalar yozish juda ham rivoj topdi. VI-IX asrlardagi eng atoqli voqenavislari **Ioann Malala, Fervan va Georgiy Amartoldir**, tarixchilardan biri **Anna Komninani, Nikita Akominatdir**.

1081 yili taxt uchun kurashda Aleksey I Komning (1081-1181) g‘alaba qozondi va shu davrdan boshlab Vizantiya imperatorlari asta-sekin yemirilib borayotgan davlatni saqlab qolishga harakat qilingan, ya’ni qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish o‘sib borishi, bir tomonidan siyosiy tarqoqlikka olib kelardi, chunki markaz va viloyat xokimlar o‘rtasidagi munosabat uzoqlashardi, chunki davlat rahbari o‘z hukumatini kuchaytirishga qaratsa viloyat rahbarlari aksincha markazda uzoqlashishga intilishardi. 1204 yili Vizantiya Salbchilar bosib oldi.

### **2.3. Ilk o‘rta asrlarda Xitoy va Hindistonda davlat boshqaruv shakllari.**

III asr oxiri IV asr boshida Xan sulolasidagi Xitoy davlati inqirozga yuz tutib parchalana boshlaydi. Aynan shu davr quzdorlik tizimi yemirilishi va yangi feodal munosabatlarning shakllanishi bilan ifodalanadi.

Lekin hozirgi kunda Xitoy tarixchilari xitoyda feodallashuv jarayoni ancha ilgari ya’ni miloddan avvalgi XI asrdan – to miloddan avvalgi IV asrlar bilan belgilanadi, chunki xitoyni markaziy va janubiy hududlari asosan o‘troq dehqonchilikka asoslangan bo‘lib yer asosiy boylik o‘lchoviga aylangan edi.

189 yili Xan imperiyasining poytaxti Loyan qo‘zg‘olon ko‘targan harbiylar tomonidan zabt etiladi, natijada imperiya uch davlatga parchalanadi.

*Shimolda - Vey.*

*Janubiy-Sharqda – Fu*

*G‘arbda – Shu*

Uch davlat doimo o‘zaro urush olib borishgan. 265 yil Vey davlatining harbiy qo‘mondoni Sima Yan Sao Sio sulola hukmdorlarini taxtdan ag‘darib o‘zining Szin sulolasiga asos soladi va uch davlat o‘rtasidagi urushlarga chek qo‘yadi, ya’ni Shu davlatini va 280 yilda U davlatini bosib olib Xitoyni birlashtiradi va tarixga imperator Sima Yan deb kiradi.

Uch davlatni o‘zaro urush olib borishi katta talofot keltiradi, ayniqsa aholi soni keskin qisqarib ketadi, ya’ni taxminan 50 mln. aholidan 16 mln. qoladi xolos.

Ichki ahvolni yaxshilash uchun 280 yili Sima Yan agrar islohot o‘tkazadi, ya’ni 16 yoshdan to 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va ayollar yer bo‘lagi bilan ta’milanadi, yerdan olingan foyda ikkiga bo‘linib I qismi yer egasiga II qism davlat xazinasiga. Belgilangan soliq faqat asosiy ishllovchilar to‘lagan, har bir xo‘jalikdan ipak gazlama va ipak xomashyo, agar xo‘jalik boshi ayol kishi bo‘lsa solig‘ini yarmi olingan, yosh bolalar va qariyalardan soliq olinmagan.

Davlat hisobiga ishslash 30 kun deb belgilanadi, uzoq hududlardagi va chegara yerlar soliq miqdori qisqartirilgan. Davlat lavozimlariga savotliy shaxslarni jalg etish uchun Sima Yan ularga lavozimni darajasiga qarab yer bilan ta’minalash va xizmat vaqtida soliq undirmasligi qoidalari kiritadi, lekin eng yuqori davlat lavozimidagi shaxs ixtiyorida 50 xo‘jalikdan oshmasligi belgilanadi.

289 yili Sima Yan o‘limidan so‘ng Xitoy yana o‘zaro urushlarga sho‘ng‘ib ketadi, harbiylar, katta yer egalari va davlat xizmatchilari o‘zaro taxt uchun kurash boshlashadi.

III-VI asrlarda Xitoy shimolida Buyuk xalqlar ko‘chishi bo‘lib o‘tadi, bu jarayon Xitoya ham ta’sir qiladi, ya’ni xun qabilalari Xitoyni shimoliy va markaziy hududlari bostirib kirishadi, asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lib, Xitoy madaniyati bilan tanishuv urug‘chilik tizimi yemirila boshlaydi.

Szin qo‘shinlari xun qabilalarini bostirib kirishiga bardosh bera olishmaydi. Natijada 311 va 316 yillari Loyan va Chanan kabi yirik shaharlar xunnnlar tomonidan ishg‘ol etiladi. Xunn qabilalari orasida syanbi qabilasi ittifoqi kuchli bo‘lsada, asosiy mahsuloti chorvachilik, ovchilik bo‘lib azaldan xitoy savdogarlari orqali xitoy imperatorlari bilan doimiy aloqada bo‘lishgan. III asr oxirida Xitoy shimolida ayni syanbi qabila ittifoqi Yan podsholigiga asos solishadi va IV asr oxirida syanbi qabila sardori kuchli otliq qo‘shin yordamida butun xitoyni markaziy hududini bosib olib Szini imperator deb e’lon qiladi. Natijada Xitoy ikkiga bo‘linadi, ya’ni dehqonchilik rivojlangan janub va hukumatni egallagan chorvador shimol

Janub va Shimol o‘rtasidagi kurash uzoq davom etib, shu davrgacha bo‘lgan davlat moliya va soliq tizimi barbod bo‘ladi. Savdo-sotiq mol ayrboshlash, soliqlar ipak mato bilan yoki ot boshi bilan olingan.

VI asrni ikkinchi yarmiga kelib shimol va janub o‘rtasidagi farq deyarli qolmadni, ya’ni tinimsiz urush tufayli janubdagagi dexqonchilik susayadi, shimolda esa ko‘chmanchi xunnnlar asta-sekin mahalliy aholi bilan aralashib o‘troqlashib ketadi va natijada Xitoy ustidan yangi xavf paydo bo‘ladi, ya’ni shimolda Turk xoqonligi tashkil topishi Xitoyni birlashishiga turki bo‘ladi.

581 yili Shimoldagi harbiy qo‘mondona Yan Szyan o‘zini imperator deb e’lon qiladi va Suy sulolasiga asos soladi (581-618).

O‘zaro urushlardan toliqqan Xitoy hududlari qisqa vaqt ichida birlashtiriladi. Ichki iqtisodiyotni tiklash uchun soliqlar miqdori kamaytiriladi va tartibga solinadi, Yan Szyan konfusii ta’limotini izdoshi bo‘lib davlat lavozimlarga savodli va o‘qimishli shaxslarni taklif etadi.

604 yili Yan Szyan o‘z o‘g‘li va Yan Guan tomonidan o‘ldiriladi va taxtni egallaydi. Otasini siyosatini davom ettirib, savdo-sotiqni rivojlantirish uchun Buyuk kanal qurdiradi. Xuanxe va Yanszi daryolarini ulab dengizgacha olib chiqadi, Buyuk devorni ta’mirlashga va qurishni davom ettirishga ham e’tibor qaratadi. 610 yili Yan Guanga qarshi qo‘zg‘olon boshlanadi, natijada 618 yili imperator o‘ldiriladi, taxtga Shansi viloyati rahbari Li Yuan o‘tirib Tan sulolasiga asos soladi (618-907).

Li Yuan davlatni tiklash uchun soliqlar miqdori kamaytiriladi va agrar islohot o‘tkaziladi.

624 yilgi qonunga ko‘ra har bir mehnatga loyiq erkak o‘z tomorqasidan tashqari 90 mu (I-mu – 6 sotix) yerga ega bo‘lishi belgilanadi. Mehnatga loyiqligi avval 18, keyinchalik 21 yosh deb belgilandi.

Yer miqdori yerni sifatiga qarab ham belgilandi, erkin yerni sotishga, garovga qo‘yish ta’qiqlandi.

Tan sulolasi davrida bevalardan tashqari ayollarga yer bo‘lagi berilmagan, soliq miqdorini belgilash uchun aholi ro‘yxatdan o‘tkazilgan va aholi 5 toifaga bo‘lingan.

- 4 yoshgacha
- 4-16 yoshgacha
- 16-21 yoshgacha
- 21-60 yoshgacha
- 60 yoshdan yuqori

Agar xo‘jalikda 4ta mehnatga loyiq jon kishi bo‘lsa, davlat majburiyatiga 2 kishi jalg qilingan, 3 ta bo‘lsa 1 tasi, davlat majburiyatidan ozod qilinganlar yer bo‘lagi bilan ta’minlanmagan. Davlat majburiyati 20 kun deb belgilangan (Suy davrida 30 kun) soliq ipak gazlama bilan yoki kumush tangalari bilan olingen, chorvadorlardan – qo‘y bilan olingen, agar majburiyat kunlaridan ortiqroq ishlab berilsa soliq kamaytirgan, cho‘l va suvsiz yerkarni o‘zlashtirsa soliqlardan ma’lum vaqtgacha ozod etilgan.

Tan sulolasi davrida jamoatchilik, yer egalik to‘liq o‘z kuchini yo‘qotadi, jaoma oqsoqallar faqat soliq yig‘ishda va davlat majburiyatni boshqarishda chegaralanib qolishadi.

Tan sulolasi davrida yirik feodal va davlat shaxslariga yerkarni in’om etish keng tarqaladi;

*Eng yuqori lavozimdagи shaxs – 10000 mu;  
eng kichik lavozim – 5000 mu;  
saroy xodimlari – 6000 to 500 mugacha;  
xizmat ko‘rsatgan fuqarolar va harbiy lavozimdagilar – 6000 to 300 mu gacha;  
Davlat xizmatchilari o‘zi egallagagn lavozimiga qarab-  
poytaxtdagi xizmatchilari – 200-1200 mu gacha;  
viloyatdagi lavozim shaxslar – 250-1200 mu;  
harbiylar – 80 to 600 mu gacha.*

Merosiy va xizmat vaqtiga berilgan yerlar soliqdan ozod etilgan.

### **Ijtimoiy va davlat tizimi.**

Xitoyni feedallahuv jarayonida eski despotik tuzim saqlangan holda ijtimoiy tabaqlanish keskin tus oladi. Oliy zodlar toifasiga merosiy aslzotlar va buyuk xizmat evaziga shu toifaga ko‘tarilganlar o‘z navbatida bu toifa o‘ziga xos tabaqaga bo‘linib

toifasiga qarab yer bo‘lagi bo‘lgan va o‘zaro toifa o‘rtasida o‘zaro munosabatlar o‘rnatalgan. G‘arb mamlakatlardan farqliroq moyorat qonuni bo‘lman, shuning uchun vaqt o‘tishi bilan yirik yerlar maydalashib ketgan.

Yuqori toifani ko‘philagini davlat xizmatchilari tashkil etgan, imperatorni asosiy tayanchlari bo‘lishgan, ular ham o‘z navbatida 9 toifaga bo‘linishgan, har bir toifa ham o‘z toifalariga bo‘linishgan. Har bir toifa lavozimiga qarab yer bilan ta’minlangan, toifa va ranglar o‘rtasida ham belgilangan munosabatlar bo‘lgan.

Davlat lavozimlari merosiy bo‘lman, lavozimni egallash uchun qat’iy nazoratdan o‘tib imtixon topshirish lozim bo‘lgan. Asosiy ishlab chiqaruvchi kuch oddiy dehqonlar bo‘lgan, lekin ular ham guruhga bo‘linishgan (yaxshi xalq) dehqonlar xunarmandlar mayda savdogarlar – soliqni asosini va davlat majburiyatlarini shular bajarishgan. (Mutaham xalq) – shaxsan qaramlar, xizmatkorlar va qullar.

## **Davlat tizimi**

Davlat rahbari imperator “Osmon farzandi” hisoblangan, o‘z yordamchilari orqali davlatni boshqargan.

Tan sulolasi davrida butun Xitoy 10 provinsiyalrga (viloyatlarga) bo‘lingan, o‘z navbatida har bir viloyat kichik okruglarga va tumanlarga bo‘lingan. Davlat apparatining asosiy funksiyalaridan biri uchinchi darajali imtixon tashkil etish, saroyda imperator boshchiligidagi, viloyatlarda viloyat rahbarlarini ostida o‘tkazilgan imtixondan o‘tganlar. 1,2,3 toifa davlat lavozimini egallashga haqli bo‘lishgan.

Tan sulolasi davrida ya’ni 653 yilda ishlab chiqilganva 737 yilda chop etilgan “Tan Lyuy Shui” nomidagi o‘ziga xos yuridik kodekslar, qonun-qoidalarni nazariyasi konfusiy ta’limotiga asoslanib ko‘p asrlar davomida aynan ana shu qonun-qoidalalar nafaqat Xitoy, butun Uzoq Sharqda qonunchilik namoyondasi bo‘lib keldi.

Qonunchilik to‘plamida imperatorni davlat boshqaruvidan tortib oila a’zolari bilan bo‘ladigan munosabatlar:

Davlat lavozimidagi shaxslarni majburiyatlari;

Dexqonlar, xunarmandlar, savdogarlik ham alohida tilga olingan.

## **Tashqi siyosat.**

Xitoy birlashgunga qadar bosqinchilardan himoyalanishga majbur bo‘lgan. Suy oilasi davrida Koreya yarim oroliga kelgan harbiy yurishlar, sulolani taxtga ag‘darilishiga olib keldi, Tan sulolasi davrida 643 yildan to 663 yilgacha Koreya yarim orolidagi Pekche davlatiga qarshi urush olib borib yengadi, xatto yordamga kelgan yangi harbiy dengiz flotini mag‘lub etadi.

VII asrdan boshlab Yaponiya bilan elchilik munosabatlar o‘rnataladi, huddi shu davrga Tibot va Hindiston bilan savdo-sotiq va elchilik munosabatlari o‘rnataladi. VII asr oxirida xitoyliklar Indo-Xitoy yarim oroliga ham o‘z xukmdorligini o‘rnatishtga harakat qilishadi.

## **Dinlar.**

Daosizm – “Daode uzin” qadimgi falsafiy nazariY.

III-IV asrdan boshlab Hindistonda buddaviylik kirib kela boshladi. V asrda Xitoy janublariga Birmadan kirib kela boshlaydi.

Xitoyda buddaviylik ko‘p qirrali va ko‘p oqimlarga bo‘linib ketgan. Bunga asosiy sabab buddaviy asarlarini turlicha tarjima qilinishi va talqin qilinishi.

Dao-shen – ta’limoti bir tirik jondod ma’rifatga erishishi mumkinligini o‘qitadi.

Dao-an-ta’limoti butun Uzoq Sharqqa yoyilib hozirgi kundagi buddaviylik ko‘rinishi shu ta’mindan boshlangan va Buddha haykali ko‘rinishi ham shu ta’limotdan kelib chiqqan.

### **Ilk o‘rta asrlarda Hindiston.**

III asr Kushon davlatini parchalanishi natijasida Shimoliy Hindistonda qisqa muddatga bir qator mayda davlat faoliyat ko‘rsatishadi.

IV asr boshlariga kelib, kichik knyazlardan bo‘lmish Chandragupta Gang vodiysining katta qismini zabit etadi va davlat poytaxti etib Pataliputra shahrini belgilaydi. 320 yil o‘zini imperator deb e’lon qiladi.

IV asr oxiri V asr boshida Guptalar davlatining eng cho‘qqisiga chiqqan davr hisoblanadi. Guptalar davrida qadimgi davr ijtimoiy-iqtisodiy tartiblar saqlangan holda ayrim o‘zgarishlar kiritilgan edi, ya’ni aholi asosan shahar va uning atrofida jamlangan bo‘lib shahardan olis hududlarda turli qabilalar istiqomat qilgan, shuning uchun asosiy tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar asosan shahar va uning tevaragida bo‘lib o‘tadi. Xitoy sayoxatchisi Syuan Szanning yozishicha shunday holat VII asrda ham davom etib, Hindiston 70 ta shahardan iboratligi yozib qoldirilgan.

### **Aholi**

Hindiston aholisi geografik, iqlim va ijtimoiy tabaqlanish bilan bog‘liq bo‘lgan.

CHo‘l va o‘rmonzor hududlarda asosan chorvador qabilalar yashagan, vodiylarda esa dexqonchilik bilan kun ko‘radigan aholi, dexqonlar va chorvadorlar doim yavlov va yer uchun o‘zaro – doim kurashib kelishgan.

Asosiy yetishtiradigan mahsulot sholi va dukakli ekinlar ekkanlar. O‘troq aholi orasida xunarmandchilik alohida o‘rin egallagan uzoq o‘lkalar va davlatlar bilan savdo-sotiq katta foyda keltirgan.

V asrga qadar tashqi savdo o‘rta yer dengizi va Rim imperiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, VII-VIII asrlarda tashqi savdo janubiy-sharqiy Osiyo davlatlari, Markaziy Osiyo va Arabiston.

Savdo-sotiqda asosan Shimoliy Hindiston, Bengaliya, Oressa va Tamiland hududlaridagi xunarmandlar va savdogarlar ishtirot etgan. Savdogarlar bilan birga savdo sayoxatida harbiy askarlar, xunarmandlar, xizmatkorlar ham ishtirot etib aksariyat hollarda ular o‘sha yerdan qolib o‘rnashib tirikchiligin davom ettirishardi, buning natijasida Janubiy-sharqiy Osiyoning dengiz bo‘yi hududlarida Hindiston madaniyatiga xos davlatlarni paydo bo‘lishiga olib keladi.

Tarixchilarni ta'kidlashicha Hindiston aholi ayni ilk o'rta asrlarda keskin ko'paya boshlaydi, yani milodiy asr boshida taxminan 25 mln. bo'lsa 1 ming yillikka kelib 50 mln. oshgan.

### Agrar munosabatlar

Agrar munosabatlar Guptalar davrini oxiriga kelib keskin o'zgarib ketadi, ya'ni qadimiy davrda barcha soliq to'lovlari va majburiyatlar markaziy davlat hokimiyati foydasiga bo'lsa, guptalar davrida katta-katta yerlarni in'om etilishi va in'om etilgan yerlardagi aholi endi soliq va majburiyatlarni to'liq yer egasi foydasiga bajarar edi.

Guptalar davridan boshlab in'om etilgan yerlar bilan birga yer egasiga "yorliq" ham berilgan, ya'ni unda in'om etilgan yerda aholini soliq miqdori va majburiyat turlari ko'rsatilib o'tilgan, ayrim yorliqlar, yer egasi to'liq davlat solig'ida ozod etgan, bunday yorliqlardan foydalanib feodallar davlat yerlaridagi dexqon va xunarmand aholini o'zini yeriga ko'chib o'tishiga jalb qilgan.

Feodallahuv jarayonida feodal tabaqani shakllanishida yer in'om etishdan tashqari turli qabila va jamoalarning sardori va oqsoqollarni mavqeい o'sib borishi natijasida saqlanadi.

### Jamoa-Kasta (ijtimoi tabaqa).

Qadimgi davrdan Hindistonda turli jamoa shakllari shakllanib kelgan, lekin ularni deyarli barchasi bir yagona shakl sifatida jahondagi jamoalar orasida alohida o'rin egallaydi.

Qadimgi davrda Hindistonda jamoa-kastapyan birinchi shakli **varna** vujudga keladi, ya'ni: 1. Blaxman. 2. Kshatri. 3. Vayshi. 4. Shudra.

Ilk o'rta asrlarda va keyinchalik varna asta-sekin yangi tizim kastasiga ya'ni **djatiga** shakllandı, tabaqaviy bo'linish – avlodı kasb-xunar, etpiq kelib chiqishi, e'tiqodiga ko'ra, urf-odatiga ko'ra, ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra va endogamno yopiqligiga qarab.

Kasta bo'linishi asosida jamoa ish taqsimlanishi yetadi ya'ni ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarmaydigan. Kastaga kelib qo'shilgan yangi jamoalar asosan pastin kastalar tarkibiga kirgan, agarda u bu chorvador qabilalar kichik xududiy davlatlarni bosib olgan holatlarda ular odatda kshatri (harbiy) kasta tarkibiga kirgan.

Pastki kastalar asosan og'ir va sog'liqqa zarar ishlar bilan shug'ullanishgan, o'z navbatida ilk o'rta asrlardan boshlab yuqori kasta tabaqa su'niy jihatdan pastki kastalarda ajrala boshlashdi, ya'ni savdo-sotiq va sudxo'rlik bilan shug'ullanuvchilar, katta yer mulkdorlar, o'z navbatida braxmanlar kastasi alohida aniq jamoaga aylana bordi.

O'z navbatida kasta o'zida ham alohida qishloq yoki shahar jamoalariga yoki xunarmandlar jamoasiga bo'linib, ular xizmatida pastki kasta vakillari bo'lган.

Har bir jamoada xizmatkor vazifasida turli xunarmandlar (terichi, kulolchi, temirchi va kir yuvuvchi (erkak)) bo'lishi shart bo'lган. Xunarmandlar va xizmatkorlarni yeb-ichishi jamoa bo'ynida bo'lган. Har bir hududda u yoki bu xizmat alohida bir kasta

vakillariga biriktirilgan va asta-sekin bir jamoa ichida barcha xizmatlar va ishlab chiqarishlar taqsimlanib, xizmat va ish haqi to‘lanishi tartib qoidalari ishlab chiqiladi va natijada natural (mol-ayrboshlash) xo‘jalik rivojlanib, bir jamoa tashqi dunyodan alohida hayot kechirishi muhim bo‘lgan, ya’ni buni djadjman – tizimi deb atalgan.

Bu tizim kastagi barcha vazifalarini bir-biri bilan bog‘lab qo‘yadi, ya’ni yuqori kastadagilar qanchalik past kastada uzoqlashmasin ularsiz hayot kechira olmagan (ya’ni past kastadagilarni barcha ishlar (ovqatdan tashqari) halol bo‘lgan va ularni xizmatidan foydalanishgan).

Past kastalar kir yuvishgan, ko‘cha supirishgan, dafn marosimlarini bajarishgan, ashulachi va raqosalar bo‘lishgan. Katta yer egalari hayoti to‘liq ijarachi dexqonlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Dexqonchilik bilan shug‘ullanuvchi kasta yoki jamoalarni ham o‘ziga xos tabaqaga bo‘linishgan, ya’ni ular orasida boy dexqonlar o‘rtta va qashshoq dexqonlar bo‘lgan, shuning uchun feodallashuv jarayonida Xindiston boshqa davlatlarda tubdan ajralib turadi, chunki qaram dexqon feudal tarkibiga kiruvchilar ijtimoiy kasta bo‘yicha xilma-xil bo‘lgan. Qishloq xududida dexqonlardan so‘ng yonlanma ishchilar turgan, ular asosan eng past kasta yoki xazar qiladiganlardan bo‘lgan (chandal), ularni ko‘pincha ullar bilan taqqoslash mumkin, lekin ilk va o‘rtta asrlarda ular yetishtirgan hosildan 1/10 yoki 1/20 egalik qilishgan.

Shuning uchun ilk va o‘rtta asrlarda Hindistonda to‘liq feudal munosabatlar o‘rnatalgan deb bo‘lmaydi, bunga aynan kasta-varna tizimi va jamoalarni avtonom hayot kechirish holatini bergen.

### **Xarshi davati**

V asr o‘rtalariga kelib Guptalar davlati parchalanib ketadi, bunga asosiy sabablardan ichki kurash va shimoliy-g‘arbdan eftalilarni bostirib kelishi. VII asrga kelib Hindistonda ikkita yirik davlat tashkil topadi, ya’ni shimolda va Belgiyada, ikki davlat o‘rtasidagi kurash natijasida 606 yili Shimoliy Hindiston hukmdori Xarsha g‘olib chiqadi, lekin bu davlat 647 yili yana ichki urushlar tufayli parchalanib ketadi va VIII asrga qadar yirik va kuchli davlat tashkil topmaydi.

### ***Buddizm va Induizm***

I ming yilliklar davomida butun Hindistonda buddizm va janubiy hududlarda **djaytizm** diniy ta’limot tarqaladi.

Buddizm Hindistonda paydo bo‘lishiga qaramay u taraqqiy etmaydi, ilk buddizm ta’limotidagi ijtimoiy tenglik kastavarna jamiyatida qabul qilinmaydi. Buddizm hind ijtimoiy qatlamanidan o‘rin egallah uchun maxayana – (Buyuk charxpalak) yaqinlashdi, natijada o‘ziga xos induizm diniy madaniyat maklandi, ya’ni Buddalar haykallaridan tashqari, bodxisattv va turli xudolar siymosiga sig‘inish. Shuni ta’kidlash kerakki, buddizm va induizm ta’limoti, boshidan ruxni tanadan-tanaga ko‘chishi – sansaraga, qilgan gunohlariga qarab jazo – karmashakllangan qfonun-qoidalarga dxarma – rioya qilsa, har bir jon sansaradan azob bo‘lishini ta’minlashga amal qilishgan.

Hindistonda buddizmni chuqur ildiz otmasligidan sabablaridan induizm koxinlarni hukmdorlarga ta’siri kuchliligi va buddizm ta’limoti hayot tashvishlarida vos kechish asketik hayot kechirishga da’vat etardi, bu esa jamiyat qonunlariga zid kelardi.

VII asr boshida Shimoliy Hindistonda bir qator mayda davlatlardan iborat bo‘lgan 712-773 yillari Muxammad ibn Kosim boshchiligidagi arablar Sind va Multon knyazliklarini bosib olishdi va ilk bor Hindiston shimoli musulmonlar qo‘liga o‘tdi. Markaziy va Janubiy hududlarda esa bir qator mayda davlatlar o‘zaro urushlarni botib ketishgan edi.

VIII asrni ikkinchi yarmidan boshlab Gang vodiysida – Radjaput davlati Gurdjara – Pratixara shakllanadi, asoschisi Vatsa-radja (738-790 yy.).

VIII asr o‘rtalarida Bengaliya va Bixarada Pallar davlati tashkil topadi va Radjaput davlati bilan to‘qnashadi. Bu o‘zaro urushga yana bir davlat **Rashtrakutlar** aralashadi.

Rashtrakutlar hukmdorlar (markaz – janubiy Hindiston) Shimoliy Hindiston davlatlarini bosib olishga harakat qilishmagan, ya’nei bosqinchilik yurishlarini fqat katta o‘lja uchun uyushtirishgan.

XI asr boshida Shimoliy Hindistonda Rashtraputlar yana katta harbiy yurish qilib kuchayib ketgan Gurdjara-Pratixara davlatiga katta zarba berishadi, Pratixara hukmdori bu urushda xalok bo‘ladi, lekin uning vorislari taslim bo‘lishmaydi. Gurdjara – Pratixara davlatini gullab yashnashi IX asr oxirida bo‘ladi, X asrga kelib davlat mayda radjaliklarga bo‘linib ketadi.

### Vassallik

Radjaputyu davlatida vassallik tizimi davlat shakllanishi bilan bog‘liq, yuqori shoxsupada-urug‘ oliv zotlari turgan, har bir g‘alabali bosqindan so‘ng o‘z vassallariga xizmatlariga qarab yer maydonlari in’om etilgan, ular esa o‘z vassallariga, e’tiborli tomoni, shox supada asosan bir urug‘dan chiqqan vakillar o‘tirgan.

VIII-XII asrlar davomida Shimoliy Hindistonda vassal iyerarxiya tizimi to‘liq rivoj topdi, X asr o‘rtalari davlat parchalanishiga qaramay vassallik saqlanib qoldi.

Qiziqarli tomoni shundaki vassallik shox supada lavozim va davlat rangiga qarab harbiy qo‘shin soni ham belgilangan:

*Imperator* (Maxaradjaxiradja)- 1 mln.

*Maxaradja* – 100 ming

*Radja* – 10 ming

Feodal mulklari xuddi Yevropa kabi merosiy bo‘lgan, uni saqlab qolish ishi vassallik xizmatida bo‘lishi, o‘z o‘rnida vaqtinchalik mulklar ham bo‘lgan ya’ni davlat xizmat vaqtiga berilgan mulklar.

Radjaputlar davrida harbiy o‘lja hukmdorga qarindoshlikni uzoq yaqiniga qarab taqsimlangan, har bir qarindosh o‘z ulishini – **grass (kultum** yoki **xazm qila oladigan** yer bo‘lagi) olgan. Har bir grasda 10 dan to 100 ga yetgan, bir sulola vakillariga bir yoki yarimta qishloq tekkan. Gras merosiy bo‘lib uning tirikchiliginini ta’minlab turgan.

Xukmdor sulolasiga mansub bo‘lmagan shaxslarga ham yerlar in’om etilgan, ular **patta (gramota)** ya’ni vaqtinchalik, xizmat vaqtiga berilgan yerlar. Radjaput xukmdorlari shakllanib kelgan ichki diniy qoidalarga amal qilib kelishgan va diniy braxmanlarga yer in’om etilgan, odatda bu 1-2 qishloq bo‘lgan, katta yer egalariga turli diniy xramlar bo‘lgan.

X asr oxirida Shimoliy va Markaziy Hindiston hududlariga G'aznaviyli kabi tug'dira boshlashdi va birinchi bosqinchilik yurishlari unumli bo'lib Shimoliy Hindiston g'aznaviylari davlat tarkibiga kirdi.

#### **2.4. Arab davlatining paydo bo'lishi va davlatchilik an'analaridagi o'zgarishlar. Arab davlati VI-XI asrlarda.**

Arabiston yarim orolining maydoni 3 mln. kv.dan istiqomat qiluvchi qabilalarni ijtimoiy-iqtisodiy turmushi turli bo'lgan.

Yarim orolning katta qismi cho'l va saxrolardan bo'lib, faqat janubiy qismda dexqonchilik rivoj topgan, shuning uchun aholi o'troq va ko'chmanchi chorvador guruhiga bo'lingan.

VI asrga qadar Arabistonning Yilan hududida Ximsyarit davlati bo'lib, dexqonchilik, xunarmandchilik va savdo+sotiq yuqori daraja ko'tarilgan edi, davlatga Efiopiya, Hindiston va O'rta yer dengizi orqali savdo-sotiq alohida foyda keltirardi.

Aholining asosiy qismi ko'chmanchi chorvadorlar bo'lib VI-VII asrga kelib ibtidoiy jamoa tizimi inqirozga uchraydi, qabila boshliqlari ajralib chiqib jamoa yerlariga da'vogarlik qila boshlashadi, alohida huquqiy erkin, lekin u yoki bu bayroq qabiladoshiga qaram bo'lib qolgan shaxslar paydo bo'ladi.

Urug'-aymoqchilik munosabatlari mahkambo'lishiga qaramasdan aynan urug' ichida o'zaro yer, yaylovlar va quduqlarga egalik qilish kurashlar aynan shu davrga to'g'ri keladi.

Quldorchilikka asoslangan Ximorit davlatining parchalanishi va arab qabilalarini ichki ijtimoiy-siyosiy inqirozidan foydalanib Arabiston yarim oroliga egalik qilish uchun Vizantiya va Eron to'qnashishadi.

Bu kurash asosan karvon savdo ishlari uchun bo'lib, buni amalga oshirish uchun xristianlik va yaxudi dinlarini targ'ibot qilib yoki shu denga asoslangan davlatlarni yarim orolga bostirib kirib kelishiga ko'mak berishgan (Vizantiya).

525 yilda (Assum (Efiopiya)) xukmdorlari Imeni o'z davlat viloyatiga aylantirishadi. 572-628 yillar esa Eron xukmdorlari Karvon-savdo yo'llarini ancha shimoldan o'tkazib Imeni davlatini inqirozga uchratishadi, yirik qabilalar janubdan shimolga ketishga majbur bo'lishadi.

Aynan shu davrda o'zaro tarqoqlikka chek qo'yish, o'zaro qabilalar va urug'lar o'rtasidagi kurashlarga chek qo'yish uchun kuchli bir shaxsni yoki birlashtiruvchi kuch extiyoji tug'iladi, shaxs va kuch sifatida Muxammad a.s. va uning islom ta'limoti edi.

Muxamad bin Abdullox Kuraish qabilasini Xoshimiylar urug'idan bo'lib 610 yildan yangi din, yakka xudolikka itoat etishga chaqiradi. O'z targ'ibotini Arabistonni yirik shaharlaridan Makkada boshlaydi, lekin 622 yili qo'shni Madina (Yasribga) qochishga majbur bo'ladi (keyinchalik 622 yildan boshlab islomi xijriy yili deb kiradi).

Yasrib shaxriga ko'chib o'tish tasodif emas edi, chunki medins shahrini ko'pchilik zodagonlari makkaliklarga doimo qarshi bo'lishgan (moliya qarzlari uchun, Makkaliklar sudxo'rlik bilan shug'ullanishgan).

630 yilgacha Muxammad a.s. boshchiligidida butun arabistonni birlashtirish uchun kurash olib borildi, makkaliklarni savdo karvonlari talanib, yangi din targ'iboti kengaytirildi. Natijada Makkaliklar taslim bo'lishga majbur bo'lishdi, Makkaliklar

Muxammad a.s. diniy va siyosiy rahbar sifatida tan olishdi, va o‘z o‘rnida Makkaning Kaaba ibodatxonasi ismoilning eng muqaddas ziyoratgohiga aylandi, o‘z navbatida makkalik savdogarlar ham islom bayrog‘i ostida – yarim orolni birlashishiga manfaatdor bo‘lishgan.

Yarim orolni to‘liq birlashishi va islom dinini qabul qilinishi Muxammad a.s. so‘nggi, uning ikki o‘rinbosarlari (xalifa) davrida bo‘lib o‘tadi, ya’ni Abu Bakr (632-634) Omor (634-644), Usmon (644-656), Ali (656-661).

Muxammad a.s. islom diniy asoschisi bo‘lib Qur‘on Karimga ko‘ra 6-so‘nggi payg‘ambar hisoblanadi (Adam, Noy, Avraam, Moysey, Ilus, Muxammad).

Muxammad a.s. targ‘ibotini kuchi shundan iborat ediki, ya’ni Islom arablar urug‘aymog‘i kelib chiqishini qat’iy nazar ularni birlashtirdi. Islom dinini qabul qilganlar 5 maxal namoz, zakot, 1/40 miqdorda umumiy mulkidan soliq to‘lash, ro‘za tutish va umrida bir marta Makkaga xaj qilishi lozim.

Avvaliga Muxammad a.s. ham diniy va davlat arbobi bo‘lgani uchun diniy va davlat xodimlari o‘rtasida ajralish bo‘limgan.

Shaxsiy mulk muqaddas hisoblangan, merosiy qoidalar, nikohlar qat’iy belgilangan, qimor, o‘yinlari, alkogol ichimliklari va cho‘chqa go‘shtini iste’mol qilish ta’qiqlangan.

Muxammad a.s. davridan boshlab yerga egalik 4 shaklga ajratilgan.

**1 – qabila yerlari**

**2 – shaxsiy yerlar – mulk**

**3 – davlat yerlari**

**4 – davlat tomonidan in’om etilgan yerlar.**

Xalif Omor davridan boshlab arablar o‘z yerlaridan tashqari yerlarni bosib olishga kirishishdi,

**640** yili Falastin va Suriya

**640-642** – Misr

**649** – yilgacha Karfogengacha yetib borishdi.

**634-651** yillar Sosoniy Eron xududi zabit etildi.

III asr o‘rtalarida Kavkazda Armaniston va Gruziya to Xazarlargacha qaram bo‘lib qoldi,

VIII asrgacha arablar bosib olingan yerlardan soliq olish bilan chegaralanishgan va ichki ishlarga aralashmaganlar, bosqinchilik yurishlarida ko‘pgina arablar yangi yerlarga ko‘chib borishgan va asta-sekin mahalliy aholi bilan yaqinlashib borishgan, agar Suriya va Iroqda bosib olishdan ham arablar ko‘pchilik bo‘lgani uchun bu davlatlar arablashib ketdi, lekin Kavkazda va O‘rta Osiyoda aksincha mahalliy aholi ustun keldi.

Xolif Usmon davrida arab davlatini kengayib borishi arablarni tabaqalanishi kuchaytirib yubordi, bu esa yangi ichki nizolarni keltira boshladi, ya’ni pastki tabaqadagi arab Muxammad payg‘ambar davridagi qonun qoidalarga amal qilishga qaytishni talab qila boshlashdi, bu norozilikka Muxammad a.s. kuyovi Ali rahbarlik qildi, Ali tarafdozlarni – shia – (guruh, partiya) deb nomlanishdi.

656 yili Ali tarafdozlari Usmoni o‘ldirishdi va xalif etib Ali saylandi (561-661). Lekin, Alining davri siyosiy jihatdan fuqarolar urushi ostida o‘tdi, ya’ni Alini arablarni kambag‘al toifadagilar qo‘llab-quvvatlashdi, Aliga qarshi yuqori tabaqadagilar, bu

urush davomida Ali tarafidan alohida guruh ajralib chiqdi ular horidjiylar deb ataldi, ularni vakili 661 yili Xalif Alini o'ldiradi.

661 yili Misr va Suriya zodagonlari xalif etib Omeyatlardan Muaviyni sulola asoschisini saylashdi, davlat poytaxti etib Damashq shahri belgilandi. Ali Muaviylar sulolasi davrida (661-750) Suriya davlat markazi bo'lib bosqinchilikni davom ettirishdi. Shu davr ichida butun Shimoliy Afina to'liq bo'ysindirildi, 711 yilda Piriney yarim oroli bosib olinib, Yevropani bosib olishdi. Franklar bilan to'qnashishdi va ulardan mag'lub bo'lib fonat Ispaniyani ishg'ol etish bilan kifoyalanishdi. Vizantiya hududlari ayrimlarini ham bosib olishdi va VIII asrga kelib Frot daryosini yuqori qismi umumiy chegara bo'lib qoldi. VIII asr boshida arablar to'liq Armanistonni, Kertli va Albaniyani bosib olishdi.

**705-715** yillari Xorazm va Amudaryoni xavzasini, Movarounnaxni bosib olinib Xitoy chegarasiga yetib borishdi. 761 yilga kelib butun O'rta Osiyoda xukmronlikni o'rnatishdi.

**712** yili arablar Xind xavzasini ham zabit etishdi. Aravb bosib olgan hududlarda feodallashuv jarayoni tezlashadi va yer davlat mulki hisoblanib faqat davlat rahbari yerlarni in'om etishga haqli bo'lgan.

Arablarni xukmronligini tan olgan mahalliy zodagonlar o'z yer-mulklarini saqlab qolishadi. Arab xalifalikka yaqqol tus olgan soliq tizimi ishlab chiqiladi:

**Zakot** – har bir dexqon, xunarmand va savdogardan

**Djizuya** – jon solig'i islomni qabul qilmaganlardan

**(yer) ushr** – musulmonlardan

**(yer) forodj** – islom qilmagan.

Avvalgi yer solig'i Vizantiya va Sosoniylarga qaraganda ancha past bo'lgan, lekin Ummaviylar davrida soliq miqdoriga o'zgartirish kiritilgan, ya'ni butun ishlov yerlar ro'yxatdan o'tkazilib olinayotgan foydaga qarab belgilangan.

VIII asrdan boshlab islom dinini qabul qilishdan qat'iy nazar xorodj solig'ini to'lash hamma uchun teng bo'ladi, xorodj yerlarining egasi kim bo'lishidan qat'iy nazar umrbod bu yerdan xorodj solig'i olingan, lekin bunda solig'lar ayrim vaqtarda bekor qilingan va vaqt o'tishi bilan qayta tiklangan.

Davlat boshqaruv tizimi asosan Vizantiya va sosoniylardan olingan bo'lib, davlatni boshqarishda avval qaysi dinga itoat qilishiga qaramasdan qabul qilishgan (yunon, xristian, yaxudiy). Ummaviylar davrida asta-sekin davlat xizmatchilariga asosan arablarga topshirilib, davlat ishini yuritish arab tiliga o'tadi va davlattili bo'lib qoladi. Ummaviylar o'z tangalarini zarb etishni boshlashadi.

Xalifalar dinini va davlat ishlarini bosh rahbari bo'lib qolishadi. Ular davrida butun Xalifat 5 viloyatga bo'linadi vahar biriga arablar mansabdor shaxslar tayinlanadi va har birida ikkita yordamchi beriladi (1-harbiy ishlarga javobgar; 2-solig' ishlariga).

Ummaviylar davrida, sulola vakillariga qarshi, yoki kiritilgan soliqlar va olib borilgan siyosatlariga qarshi davlatni turli hududlarida ommaviy noroziliklar bo'lib o'tadi.

**680** yili Alining o'g'li Xuseyn boshchiligidagi.

**728-737** yillarda Movarounnaxda Sug'diyalar.

**734-743** yillarda – Mag'rib va Ispaniyada

**740** - yilda Kufada shiyxlar.

**744-747** yillarda Ikkidaryo oralig‘ida, G‘arbiy Iroqda va Janubiy Arabistonda xidjiriyalar.

Bu norozilik qo‘zg‘olonlarini maqsad va mohiyati turli tuman, lekin **747** yilda Xorosonda boshlangan Abu Muslim boshchiligidagi qo‘zg‘olon xalifalikda keskin o‘zgarishlar olib keldi.

Bu qo‘g‘olonda butun Eron va Iroq aholisi ishtirok etib ularga Xorosonga ko‘chib kelgan arab qabilalari ham qo‘shiladi va tez orada qo‘zg‘olonchilar Damashq shahrini bosib olib xalifani taxtdan ag‘darib yangi xalif etib 749 yili Abbosiylar sulolasidan Abul Abbas aso Saffox saylanadi, bu sulola 1258 yilda xukmronlik qiladi.

**Abbosiylar davri 750-1258 yillarda** bo‘lib davlat poytaxti Bog‘dod shahri belgilanadi. Ummaviylardan farqliroq bosqinchilik siyosatini olib borishni boshlaydi, aksincha Piriney yarim orolida Ummaviylardan Abdor-Raxmon boshchiligidagi davlatdan ajralib chiqadi, Mag‘ribda ayrim xududlar bo‘ysunmay qo‘yadi.

Abbosiylar davrida feodallahuv jarayoni davom etadi, Yerni egasi etib davlat hisoblanadi, shaxsiy yer egalik – mulk, in’om etilgan yerlar – ikta, jamoa va qabila yerlari –

IX asrdan boshlab feodal yer egalikda yangi turi – vaqf yerlari paydo bo‘ladi, ya’ni davlat tomonidan shaxsiy mulk sifatida, yoki machit, madrassa, diniy shaxslarga in’om etilgan yerlar, bunday yerlar soliqdan ozod etilgan.

Bu jarayon ostida ko‘pgina katta yer egalari o‘z yerlarini vaqf tizimiga o‘tkaza boshlashadi, lekin shu yerdan olinadigan ma’lum foydani o‘zlariga qoldirish natijasida davlat xazinasiga tushadigan foyda keskin qisqarib ketadi.

Davlat, vaqf yoki shaxsiy (mulkiy) yerlarda o‘tirgan dexqonlar yuridik jihatdan erkin hisoblangan, lekin hayotda esa qaram dexqon bo‘lgan. Abbosiylar davrida xalifatni turli xududlarida erkin dexqonlar tabaqasi saqlanib qolgan edi.

Misr, Suriya, Palestin va Janubiy Eronda dexqon jamoalari ma’muriy jamoalar bo‘lib davlat oldida solig‘ yig‘ilishiga javob berishgan.

VII-IX asrlarda xalifatda ko‘pchilik saqlanib qolgan edi, ularni asosan xo‘jalik, irrigatsion ishlarida jalb etilardi. Ko‘l bozorlari bo‘lib, ularni asosan Afrikada keltirilardi.

Arab xalifaligida savdo-sotiq yuqori darajaga ko‘tarilgan edi, ya’ni markazlashgan davlat tizimi, arab savdogarlariga turli davlatlar elatlar bilan savdo-sotiq qilib g‘arb va sharq, shimol va janubni bog‘lashardi.

Xalifotdagi yirik shaharlar ko‘p bo‘lib ularni barchasi savdo va xunarmandchilik markazi hisoblangan, to‘qimachilik soxasida alohida o‘rin egallagan (ipakchilik, len (kanop)).

Eron xunarmandlari gilamlari bilan VII asrda Samarqand qog‘ozlari butun dunyoga mashhur bo‘lgan, shunda qog‘oz markazlari VIII asrda Bog‘donna, Tripolida va Suriya paydo bo‘ladi, IX asr oxirida Misrda. Damashq temirchilari o‘z po‘latlari bilan mashhur bo‘lishgan. Xalifotni barcha shaharlar Yevropa shaharlariga qaraganda yirik bo‘lgan, eng yirigi Bog‘dod bo‘lgan.

Shaharlar markazi tomonidan tayinlangan ma’muriy shaxs tomonidan boshqarilgan. Abbosiylar davrida davlat rahbari xolif bo‘lgan, uning yordamchisi vazir

(abbosiylar davrida vazirning o‘rni kuchayadi) bo‘lib unga davlatning muhim tarmoqlarini boshqarish topshiriladi. Harbiy lashkar boshi diniy ishlari bo‘yicha xolif yordamchisi bosh qozi bo‘lgan, uning qo‘l ostida sud va maorif ishlari bo‘lgan. Qonunchilik – sharoit qonunlari asosida olib borilgan.

Musulmon bo‘limgan aholi o‘z diniy rahbariga bo‘ysungan. IX asrdan boshlab ko‘pgina ma’muriy xududlar merosiy bo‘lib amir tomonidan boshqarilgan. Arab qo‘shinlari bir qator tabaqalardan iborat bo‘lgan, ya’ni arablardan, yonlanmalardan va g‘ulomlardan (g‘ulomlar-turk, slavyan va afrikaliklar bo‘lib yoshligidan beshafqat ruxida tarbiyalanganlar).

Vaqt o‘tishi bilan aynan g‘ulomlar xalifalarni shaxsiy qo‘riqchilari bo‘lib davlatni muhim lavozimlarini egallab, xalifalarga katta ta’sir qilishgan.

Abbosiyalar davrida xalq qo‘zg‘olonlari ham jiddiy tus oladi, chunki aynan abbosiyarlari taxtga kelishiga aholining pastki qatlami muhim o‘rin tutadi, lekin abbosiyalar ularni umidlarini oqlamaydi.

**751 yil** – Buxoroda

**755 yil** – Nishopur va Rey

**776-778 yillar** – Mukanna boshchiligidagi qo‘zg‘olon.

**778-779** – janubiy-sharqiy Kaspiy bo‘ylarida .

**815-837 yillarda** Bobek boshchiligidagi qo‘zg‘olon katta hududga kengayadi. Janubiy Azerbayjonda boshlanib G‘arbiy Eron, Isfaxon va kermingacha tarqaladi, qo‘zg‘olonchilarni g‘oyasi xurramitlar diniy oqim g‘oyasi bo‘lib asosan ijtimoiy tenglik jamoa qurish, o‘rnak sifatida dexqon jamoalari bo‘lgan. Qo‘zg‘oltonni bostirishga xolif katta harbiy kuchni sarflashga to‘g‘ri keladi.

**869-883 yillari** Janubiy Eronda Gandjlar qo‘zg‘oloni (afrikalik qullar) qo‘zg‘olonchilar Basra shahrini egallahshadi, ularga beduinlar, kambag‘al dexqonlar, yollanma qo‘shinlar ham o‘tib ketadi. 879 yili zindjlar rahbari Ali ibn – Muxammad o‘zini xalif deb e’lon qiladi va o‘z nomidan tanga zarb qiladi. Zindjlar davlati tizimi Abbosiylar davlat tizimini o‘xhash bo‘lib quldorlikni saqlab qolishadi, sobiq qullar feodal bo‘lib qolishadi.

Zindjlar qo‘zg‘oloni bostirilgach, afrikadagi qullar keltirilishi to‘xtaladi, lekin bu qo‘zg‘olondan so‘ng xalifotda qulchilik asta-sekin yo‘qoladi.

IX-X asrlarda Suriya, Iroq, Baxreyn, Yemen va Xorosonda karomatlar oqimi kuchli bo‘ladi, X asr boshida Baxreynda karomatlar davlati tashkil topib, Suriya va Misr o‘lpox to‘lashga majbur bo‘lishgan.

Karomatlar shiy oqimining bir bo‘lagi bo‘lib ijtimoiy tenglik tarafdoi bo‘lishgan, Baxreynda tashkil etishgan davlatda yirik feodal yer egalikni yo‘q qilishgan, dexqon jamoalari tuzishgan, qulchilikni saqlab qolishgan, hududiy zindjlar davlatiga o‘xshab feodallashuv asosida karomitlar davlati barbod bo‘lgan.

IX-X asrlar davomida Abbosiylar davlati parchalanib ketadi. Buning asosiy sabablari turlicha, avvalambor hudud boshqaruvi merosiy bo‘lib qolishi va vaqt kelib ularni markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaslik (Xorosonda – Toxiriylar; Movarounnaxrda – Somoniylar; Misrda – Gulunidlar; Armanistonda - Bagratidlar).

- 1) Iqtisodiy rivojlanish;
- 2) Etnik;

- 3) Islom dinini tarqalishi  
va hokozo.

IX asrning 60 yillaridan xaliflar shaxsiy soqchilar qullarda dinchok bo‘lib qolishadi, X asrga kelib xolif qo‘lida faqat Iroq va G‘arbiy Eron qoladi.

## **2.5. Rivojlangan o‘rta asrlarda Yevropada davlatchilik rivoji.**

### **Fransiya IX-XI asrlarda.**

Fransiya qirolligiga 843 yil imzolangan Verden bitimi asos soladi, unga ko‘ra Frank qirolligi Lyudovik Xudojo‘y o‘g‘illari o‘rtasida uch qismga taqsimlanadi. Keynchalik Sharqiy Frank davlatidan Fransiya, G‘arbiy qismidan Germaniya va Italiya davlatlariga asos solinadi.

855 yilda Lotarni o‘limidan so‘ng Karl Buyuk davlati bir necha bor chegaraviy hududlari o‘zgaradi, katta ug‘li Lyudovikka imperatorlik unvoni bilan Italiya qirolligi, ikkinchi ug‘li Karlga – janubiy-sharqiy Galliya keynchalik Provans qirolligi, kenja ug‘il Lotarga – LotaringiY.

Frank qirolligi, Buyuk Karl vorislari tomonidan bo‘lib olinishiga qaramay yagona davlat xisoblangan va ubu vorislarni vafotidan so‘ng xududiy chegaralar o‘zaro toknashuvlar natijasida o‘zgarib borgan.

870 yili Karl Kal va Lyudovik Nemis o‘rtasidagi Mersen bitimiga muofiq Sharqiy Frank davlati yana qayta taqsimlanadi va oqibatta 843 yilgi chegaraliriga kaytib XIII asrga qadar saqlanib qoladi.

Etnik jihatdan Fransiya qirolligi xilma-xil bo‘ladi, ya’ni janubiy-g‘arb qismda basklar, shimoliy-g‘arbda yani Bretanda-keltlar; Flandriyada – flamandlar; Senavodiyini X asrda normanlar egalashadi. Qolgan hududlarni ikkita xalq shimoliy va janubiy fransuzlar egalashadi. Ispan markasida hozirgi kataloniyaliklar joylashgan.

Doimiy poytaxt bo‘lman, saroy doim ko‘chib yurib ko‘pincha Lane shahrida bo‘lgan. X asr oxiridan Parijda o‘rnashgan.

Uzoq hududlar boshqarish graflar (comites) yoki ularni o‘rinbosarlari (vicecomites)ga topshirilgan. IX asrga qadar ular davlat xodimlari hisoblangan.

Parchalanishni oldini olish maqsadida Korolinglar viloyat boshliqlarini tayinlashda ushbu hududda mulki bo‘lman shaxslarni qo‘yishgan va ularni qirov revizorlari yoki saroy xizmatchilari nazorat qilgan. Lekin vaqt o‘tishi bilan graflar va vikontlar o‘zi boshqarayotgan hududda o‘z mulklariga egalik qila boshlashgan, mahalliy zodagonlar bilan urug‘-aymog‘chilik aloqalarini ornatira boshlashgan, bu esa qirov xizmatchilari ishini qiyinlashtirgan.

877 yil Karl Kal navbatdagi harbiy yurishda xaloq bo‘lib qaytib kelmagan lekin davlat shaxslarni lavozimini va benefetsiyalarini ularni vorislariiga qolish qonuniga imzo chekadi, bu esa feodal tarqoqlikni tezlashtiradi (lavozim, unvonlar, merosiy bo‘lib qoladi).

IX asr oxirida Korolinglar sulolasiga faqat nomigagina hukm suradi, real hukumat yirik feodallar qo‘liga o‘tadi. 987 yil Parij grafi Robertina urug‘idan bo‘lmish Gugo Kapeta taxtga o‘tkaziladi, asos solingan Kapetinglar sulolasiga Fransiyani 1848 yilgacha boshqaradi.

Lekin kopetinglarni avvaliga faqat nomigagina tan olingan, chunki yirik feodallar sulola vorislariga kimni yordamida taxtga kelganligini doim eslatib turishgan va shuning uchun XII asr boshlariga qadar Kapetinglar bosh vakillari ( Robert Xudoyjox (996-1031), Genrix I (1031-1060), Filipp I (1060-1108)) davrida qirolik vakolatlari ularga tegishli yerlar (domenlar) Parij va Orlean o‘rtasida chegaralanib kolgan va bu yerlar “Il-de-Frans” – (*Fransiya oroli*) deb nom olgan.

Qirol feodallar o‘rtasidagi mojaroda vositachilik qilgan o‘z vassallariga xomiylig qilgan, lekin ularning shaxsiy hayotiga aralashmagan.

IX-XI asrda Fransiya tarixida feodallashuv jarayonini yakunlanishi deb kiradi, ya’ni bu davr ichida erkin dexqonlar asta-sekin feudal qaramog‘iga aylanib qolishiga qaramasdan huquqiy, moliyaviy erkinligini saqlab qolishadi.

XI asr oxirida markaziy hokimiyat zaiflashib boradi, hududiy qonunchilik va boshqaruv mahalliy zodagonlar qo‘liga o‘tib boradi, bu esa qirol mansablarini ishini qiyinlashtiradi va qirol hokimiyatini o‘z mulki bilan ajralib qoladi.

X-XI asrda o‘zaro urushlarga tashqi dushmanlarni bostirib kelishi (arablar, vengerlar va normanlar) ta’riflanadi.

Butun Fransiyada kasrlanish jarayoni yuz beradi ya’ni (**inkastellemento**) deb nom oladi. Natijada hududni katta-kichik feodallari kasrlari ma’muriy, huquqiy va moliyaviy markazga aylanadi va XI asr oxiriga kelib deyarli butun davlatdagi dexqonlar o‘z erkinligini yo‘qotib qaram dexqonlarga aylanadi, lekin Sharqiy Yevropadagi qaram dexqonlardan *krepostnoylarlardan* farqliroq *servlar* - fransuz dexqonlar xo‘jalik, oilaviy ishlarda ancha erkin bo‘lishgan.

### **Italiya VIII-X asrlarda**

VI asr oxirida Shimoliy va Markaziy Italiya (Apenin yarimoroli ) Langobardlar tomonidan ishg‘ol etiladi. Janubiy hudud, Rim dukati va Raven ekzarxat Vizantiya ixtiyorida qolgan edi.

Langobardlar davrida Italiya hududi gersoglikka bo‘linib, ma’muriy va moliyaviy ishlar gersoglar qo‘liga topshirilgan edi, bu esa feudal tarqoqlik jarayonini tezlashtirdi. Langobardlar qirollarini poytaxti Paviyu shahri bo‘lib, ular doimo gersoglarni erkinligiga qarshi kurash olib borishgan. Bunday tarqoqlikdan Karl Buyuk unumliy foydalangan. Franklar davlatida langobardlar davlatini ishg‘ol etadi, lekin kuchli markazlashgan davlatga qo‘shilishi Italiyaga hech qanday foya keltirmaydi, aksincha tarqoqlik jarayoni saqlanib qoladi.

Karl Buyuk Italiyani bosib olib 756 yil Papa davlati (yoki Papa viloyati)ni tashkil qiladi, bosib olingan hududni 20 grafligiga taqsimlaydi.

IX asrda franklar yordamida butun Italiyada katolitsizm hukm o‘rnataladi va asta-sekin sud-ma’muriy ishlar shaharliklardan saylanadigan yepiskoplar qo‘liga o‘tadi.

843 yildan so‘ng Langabardlar davlat sifatida ajralib franklar vorislari tomonidan boshqarilsada, Italiya feodal tarqoqligicha qoldi, bu esa IX-X asrlarda Italiya vengerlar va arablar tomonidan talon-tarojlik yurishlariga qurban bo‘ldi.

X asr ўрталаридан Италияга герман қироллари даъволик қила бошлашди, Шимолий ва марказий Италия Германия империясига кирса ҳам император деярли бу худудда тан олинмасди, бу эса XI-XII асрда герман императорига Италия шаҳарини талашга жуда қўл келарди.

Италияда феодаллашув жараёни Европа давларидан деярли фарқ қилмас эди, Италияда христиан черковни ўрни катта бўлиб феодаллашув жараёнида фоал иштрок эткан .

Италияни бошқа феодал давлатидан ажратиб турадиган хусусияти бу шаҳарлар эди. VIII-IX асрларда собиқ Рим шаҳарларидан ташқари янги шаҳарлар вужудга келади. IX асрда – Асти, Милан, Верона, Равонна, Лукка Пълинца шаҳарлари шарқ мамлакатлари билан савдо қиласиган йирик шаҳарлар ҳисобланарди. Павил шахри XI асргача пойтахт вазифасини бажариб келган. X асрда – Генуя, Пиза, Амальфи шаҳарлари Испания, Тунис, Менор давлатлари билан савдо қилишган.

Италия шаҳарлари ўрта ер денгизидаги савдо – сотикда – араб савдогарлари билан рақобат бўлишган, бу рақобатлик тез-тез ҳарбий тўқнашувларга олиб келган, шунинг учун йирик савдо шаҳарларда савдо флотидан ташқари ҳарбий флотга ҳам эга бўлишган.

### **Germaniya IX-XI asr boshlarida**

843 yili Franklar imperiyasi parchalanishi natijasida “Sharqiy Fransiya” deb nom olgan davlatda birin-ketin Karolinglar sulolasidan bo‘lmish qirollar boshqaradi, xatto 876-888 yillarda “Sharqiy Fransiya” qiroli Karl III “G‘arbiy Fransiya” taxtiga taklif etiladi va Shimoliy Italiyani ishg‘ol etib qisqa vaqt bo‘lsada Franklar davlatini birlashtiradi.

Sharqiy Fransiya boshqa frank davlati qoldiqlaridan ikki jihatni bilan ajralib turardi:

1) Aholi asosan roman emas, german dialektida (shevasida) so‘zlashgan;

2) Xo‘jalik rivojlanishi ancha orqada qolib, feodallashuv jarayoni endi shakllanish davrida edi.

“Sharqiy Fransiyada” davlatchilik shakllanishi ham ancha orqada qolib faqatgina Saksoniya va Bavariya hududi gersoglari boshchiligidagi yagona qabilalar ittifoqi ostida birlashgan, tyuringlar gersogligi saksoniyaliklar tomonidan bo‘ysundiriladi, Shvab – gersogligi doimiy ichki kurash tufayli yagona gersoglikka birlasha olmaydi;

Lotoringiya gersogligi – qabilaviy emas, hududiy birlashma bo‘lib etnik jihatdan aholisi romanlardan edi.

Frankonlar gersogligi – Mayn daryosi bo‘yda shakllanib *aleman* va *bavarlar* bilan aralashuvni natijasida franklar Frankoniya gersogligiga asos solishadi.

Shimoliy hududlarda *friz* qabilalari bo‘lib, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ancha orqada qolgan, Sharqiy Fransiyadagi siyosiy jarayonlarda ishtirok etishmagan, lekin keyinchalik dengizchilik va dengiz – savdosiga asos solib muhim o‘rin tutishgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan Sharqiy Fransiyaning faqat janubi (Lotaringiya) rivojlanib IX-XI asrda feodallashuv jarayoni ancha shakllangan edi, Saksoniya va Frislandiya hududlarida ijtimoiy tabaqalanish yaqqol tus olmagan bo‘lib, feodal tarqoqlikdan ancha uzoqda edi, qishloq xo‘jaligida ham yutuqlar oz bo‘lib, deyarli ikki dalali xo‘jalik hukm surardi. Erkin qishloq xo‘jalik bilan shug‘ullanuvchilar litlar, servlar, kolonlar deb atalib yaqqol bir guruh ajralish XI asrda bo‘lib o‘tadi, ya’ni shu davrda – *nusticus*, Bauen – “dexqon” atamasi paydo bo‘lib, qishloq xo‘jalik bilan shug‘ullanuvchilarni doimo harbiy xizmatdagilarni ajratib berdi.

Ijtimoiy tabaqalanish natijasida qullarni statusi birmuncha ko‘tarildi, ularni joniga qasd qilish ta’qiqlandi (Sharqiy Fransiyaga qullarni asosan Frizlar yetkazib turgan) ularni xristian diniga o‘tishi natijasida XI asr oxiri – XII asr boshida qullar ijtimoiy tabaqa sifatida umuman yo‘qoladi.

911 yili Sharqiy Frank davlatida voris bo‘lmagani tufayli Korolinglar sulolasiga barham berilib ilk bor taxtga Frankon gersogi Konrad I (911-918) o‘tiradi, lekin uning qirolligi qisqa vaqt davom etib yirik mulkdorlar tomonidan qarshilikka uchraydi, uning vafotidan so‘ng bir yo‘la ikkita qirol saylanadi biri Bavariya gersogi ikkinchisi Saksoniya va ularning o‘zaro tortishuvida Saksoniyalik da‘vogar g‘olib chiqib taxtga Genrix I (919-936) o‘tkazilgan qirol bilan Germaniya qirolligini tarixi boshlanadi.

Genrix I Saksoniyalik sulolasiga asos soladi va bu sulola 1024 yilgacha hukmronlik qiladi.

Genrix I davrida Germaniya chegarasini kenngaytirish siyosati amalga oshirish boshlanadi, ya’ni Saksoniya gersogligida erkin dexqonlar ko‘p bo‘lib ularni yerga bo‘lgan ehtiyojini Elba daryosini o‘ng qirg‘og‘iga qaratadi, bu yerdagi slavyan qabilalarni bo‘ysundirishga, ularni xristian diniga o‘tkazadi, hosildor yarlarni tortib olib yirik mulkdorlarga va ayniqsa cherkov va monastirlarga in’om etadi.

G‘arbiy Frank qirolligini zaifligidan foydalanib Genrix I Lotaringiyani tortib oladi. Genrix I davrida tashqaridan xavf keltiradiganlardan faqat madyar (vengrlar) qabilalari edi.

Ularga qarshi Genrix I erkin dexqonlar hisobidan (frilinglar yoki freymanlar) piyoda va otliq askarlar ko‘paytirish va vengerlar bilan chegaradosh yerlarda burglar mudofaa qal’alar qurdirdi (keyinchalik bu burglar yirik savdo-sotiq shaharlarga aylandi).

936-973 yillar Genrix I o‘g‘li Otton I ning taxtga o‘tirgan davri bo‘lib, otasini siyosatini davom ettiradi, 955 yil Ausburg shahri yaqinida vengerlar va ularning ittifoqchilari ustida batamom g‘alaba qozonadi. Bu jangda Genrix I davrida tashkil qilingan og‘ir qurollangan (ritter) otliq askarlar qo‘l keladi.

Otton I german qirollaridan birinchi bo‘lib Axen shahrida qirol tojini kiyish marosimini boshlab beradi, shu bilan qirol hokimiyyati gersoglar va graflar ustidan xukum o‘rnatishga harakat qiladi.

Gersog va graflar ta'sirini kamaytirish maqsadida Otton I cherkovga suyandi, ya'ni do'stona aloqada bo'lib, yepiskoplarga keng miqyosda imtiyozlar berdi, bosib olingan yerlardan katta yerlar in'om etdi. Cherkov yerlardan daromad Rim papasiga emas, qirol xazinasiga tushdi, bu esa german yepiskoplari Rim papasiga emas, german qiroliga bo'ysinishga olib keldi.

Yirik va kuchli otliq qo'shinga ega bo'lgan Otton I sobiq franklar imperiyasini tiklashini o'ziga hayotiy maqsad qildi. 951 yilda Italiyaga ilk bor yurish qildi, bir necha knyazlarni bo'ysundirdi. Provans va Italiya qiroli Lotarning qiziga bevosita o'ylandi va Italiya taxtiga davoligini rasmiylashtirdi.

961 yili Otton I Italiyaga yana harbiy yurish qilib bu safar Rim papasi Ioann XII-ni rim boronlariga qarshi ittifochisi sifatida keladi va natijada 962 yili Otton I Rim imperatori deb e'lon qilinadi va imperatorlik toji kiydiriladi.

Yangi imperiyaga "Muqaddas Rim imperiyasi" deb nom beriladi, XII asrdan "German millatini muqaddas Rim imperiyasi" deb atalib, shu davrdan boshlab German imperiyasining tarixi boshlanadi. Lekin bu vaziyatda Otton I va uning vorislarini arablar va Vizantiya tan olmasdi. Vizantiya bilan munosabatni yumshatish maqsadida Otton I o'z o'g'lini Vizantiya imperiyasi qizi Feofaniyaga uylantirdi.

Otton I keyinchalik uning o'g'li Otton II va nevarasi Otton III tashqi siyosati Italiya bilan bog'liq bo'lib qoldi, bu yerdagi boy va erkin shaharlarni bo'ysundirish uchun doimo harbiy qo'shin ushlab turishni talab etardi, bu o'z o'rnida moliyaviy harajatni talab etardi, natijada Otton I, II va III-lar Italiyadan chiqmay qolishdi.

Otton III o'zini Karl Buyuk va Vizantiya Vasilevalar qonidan bo'lganligini doimo eslatib turardi. Papa taxtiga o'z o'qituvchisi Gerbert Silvestr II nomi bilan o'tkazadi, lekin Otton III tomonidan olib borilgan siyosat na Italiyada, na o'z yurti Germaniya gersog va graflar tomonidan qo'llab-quvvatlanmadni, aksincha qarshi chiqishdi.

1002 yili Otton III vafot etib, vorisi bo'lmanligi bois Saksoniya gersogidan bo'l mish Genrix II saylanadi, Genrix II-ni siyosati Ottonlar siyosatidan katta farq qilardi.

## Angliya XI asr o'rtalarigacha.

V asr o'rtalaridan to VII asrga qadar Britaniya orolini angl-saks qabilalari ishg'ol etilib bir qator varvarlar qirolligi tashkil topadi. Janubiy-sharqiy qismda **Kent** (yutlar) Janubiy, janubiy-sharqiy qismni **Uesseks** va **Sueseks**, **Esseks** g'arbiy, janubiy-sharqiy (sakslar), Sharqda – Sharqiy Angliya; Shimolda Nortumbriya va orol markazida Mersiya bo'lib unda angl qabilalari asos solgan.

Ishg'ol vaqtida qirilib tashlanmagan kelt mahalliy aholi german qabilalari bilan aralashib ketadi va keyinchalik ingliz xalqi shakllanish etnik jarayoniga o'z hissasini qo'shami. Anglo-saks qirolliklarini feodallahuv jarayoni sekin o'tib ikki bosqichdan iborat ya'ni

1. V-VII asrlar;
2. X-XI asrlar;

Orolda feodallashuv jarayoni sust borishining asosiy sabablaridan, aholini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan sobiq Rim axolisi gal va frank qabilalariga nisbatan qoloqligi, qishloq xo‘jaligi asosan rimliklar egallagan va o‘zlashtirgan hududda rivoj topgan.

Rim legionerlari orolni tark etishi bilan mahalliy kelt qabilalari o‘z udumlariga qaytishadi, istilochi angl-saks qabilalari esa rim qoldiqlarini butunlay yo‘q qilishadi.

Britaniya oroliga kirib kelgan angl, sakslar, yutlar va frizlar, franklar, vestgotlar va burgundlarga qaraganda hali ham qabilaviy urug‘ tizimida bo‘lishgan.

VI-VII asr ma’lumotlariga qaraganda bostirib kelgan qabilalarni asosiy mashg‘uloti dexqonchilik, chorvachilik bo‘lgan, ovchilik, baliqchilik va o‘rmon termachilik bo‘lgan.

Qishloq xo‘jalik ikki dalali bo‘lib yerni haydashda 4-8 xo‘kiz ishlatilgan. Anglosakslar paydo bo‘lishiga qadar va undan so‘ng to IX-X asrlarga qadar Angliyada 2 turdag‘ jamoalar bo‘lgan ya’ni:

Katta oilaviy jamoa va bir necha birlashgan qishloqlar jamoasi.

Alovida individual yakka xo‘jalik oilalarni paydo bo‘lishi VII-VIII asr boshlarida paydo bo‘ladi. IX asrga qadar aholini asosini erkin jamoa-dexqonlar – **kerlar** tashkil qilgan, ular o‘z yerlariga – **gaydlarga** egalik qilishgan. Qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlar qattiq loyli bo‘lgani uchun uni haydash uchun 8 tagacha xo‘kiz kerak bo‘lgan. Shuning uchun qishloq xo‘jaliklari tizimi Angliyada uzoq saqlanish sabablaridan biri bo‘lgan, keyinchalik jamoa yerlar – **folkland** (jamoa yog‘ini) deb atalib uni sotishga, meros qoldirishga yoki qiziga meros qilib berib yuborish ta‘qilangan.

VI-VII asrlarda **kerlar** jamoa ishlarida faol ishtirot etishgan, o‘z qurol-yaroqlari bilan xalq drujinasini tashkil qilishgan. VII asrdan boshlab jamoa qabilalari orasida tabaqalanish boshlanadi. Kerlardan tashqari urug‘ boshliqlar – **erllar** va asta-sekin qirol drujinachilari – **gezitlar** tashkil topib ular oddiy aholidan yuqori turishgan hamda qullar va yarim erkin aholi – **letlar** va **uillar** bo‘lib **erl** va **kerllarni** yerlarida o‘tirgan, abrok va boshqa majburiyatlarni bajarib yurishgan.

VII asr oxiridan boshlab Angliyada feodallashuv jarayoni ko‘zga tashlanadi, vayron bo‘lgan kerlar boshqa kerlarga qaram bo‘la boshlaydi, qirollar o‘z drujinalariga va cherkov – manastirlariga yerlarni inom etishi yerga shaxsiy mulkchilik paydo bo‘ladi.

In‘om etilgan yerlarda aholida yig‘ilgan foyda ko‘pincha yer egalarida qoladi, egalik huquqi **boklend** deb ataladi (bok-yorliq, lend-yer) Boklend yerlarida yashovchi aholi boklendga biriktirilgan bo‘lishiga qaramasdan shaxsiy erkin bo‘lgan. *Bokendlarga sud, soliq va ma‘muriy ishlar topshirildi*.

Yirik yer mulkdorlar **glafordlar** keyinchalik – **lordlar** deb atalgan (ya’ni *senyor* yoki xo‘jayin bilan barobar bo‘lgan). Lekin **boklend** va **glafordlar** tabaqasi rivojlanishi bilan IX asrga qadar kerlar qishloq jamoatchilik, qo‘shnichilik tizimini saqlab qolishgan va asosiy ishlab chiqarish kuchi bo‘lishgan.

Feodallashuv jarayoniga cherkov ham o‘z hissasini qo‘sadi, anglosakslarni xristian cherkoviga o‘tishi 597 yilda boshlanib VII asr oxirigacha cho‘ziladi. Mersiy va Nortumbriyada bu jarayon og‘ir kechadi.

Cherkov qiroq hukumatini va uning atrofidagi katta yer mulkdorlarni himoya qilish evaziga in’om etilgan yerlar hisobiga o‘z yerlarini kengaytirishadi. VI-VII asrlarda qiroq mutloq hokimiyatga ega bo‘lmagan, unga ko‘proq qabila boshlig‘i sifatida qaralgan, unga nisbatan mahalliy organ jamoa yeg‘inlar ustivor bo‘lishgan, asta-sekin jamoa yeg‘inlar kengayib birlashishadi va IX asr boshlariga kelib har bir qirollikda yirik hududiy birliklarni tashkil qiladi, ular grafliklar – *skirlar* yoki *shoyrlar* deb atalib unda xalq yeg‘ini *shot* yoki *gemot* deb atalgan.

Grafliklarni asosini kerlar bo‘lsada, asta-sekin yirik yer egaliklarga va gifordlar hukumatni qo‘lga olishadi yoki qiroq hokimiyatining vakillari sheriflar bo‘lib, ular avvalgi xalq yig‘in boshliqlarini o‘rnini bosishadi.

Qiroq hokimiyati kuchayishi bilan harbiy sohada kerl ta’siri pasayadi, ular o‘rniga qiroq drujinalari – *gezitlar* mohiyati kuchayadi, ular asta-sekin eski qabilaviy asl zotlar *erl*-larni ham surib chiqishadi.

Qabilaviy qirolliklarni feodal davlatlarga o‘tishi doimo bosh qiroq taxti uchun doimo to‘qnashuvlarga olib kelgan.

VI asr oxiri VII asr boshlarida **Kent qirolligi** ustivor bo‘lgan.

VII asr o‘rtalarida - **Nortumbriya**

VIII asrda – **Mersiya**

IX asrda **Ueseks.**

829 yili Ueseks qiroli Ekbert butun angl-saks qirolliklarini birlashtiradi, bu jarayonga avvalom bor feodallahuv jarayoni vaqtida yirik mulkdorni markaziy hokimiyatga ehtiyoji va VIII asr oxiri IX asr boshidan normanlarni (asosan daniyaliklarni) Sharqiy Angliyaga va norvegiyaliklarni shimoliy-g‘arbiy hududlariga bostirib kelishi edi.

Istilochilarga qarshi kurashishda butun harbiy kuchni va hokimiyatni birlashtirish kerak edi. Birlashgan qirollikda siyosiy jihatdan *uitenagemot* (donolar kengashi)lar ta’siri kuchaydi. Lekin qirolliklarni birlashishi daniyaliklarni to‘xtata olmadni, ular shimoliy-sharqiy qismini egallay boshlashdi, faqatgina qiroq Alfred Buyuk davrida (871-899 yillar) dexxonlardan tashkil etilgan piyoda va oliy zotlardan otliq hamda yirik harbiy flot yordamida daniyaliklar to‘xtatildi.

Alfred Buyuk daniyaliklar bilan bitim tuzadi. Kelishuvga asosan Angliya ikki qismga ajratiladi, ya’ni janubiy-g‘arbiy qism Alfredga, va shimoliy-sharqiy qism Denlo deb atalib daniyaliklarga qoladi. Alfred Karl Buyuk kabi nafaqat davlat arbobi balki, angliya tarixida marifatchi sifatida nom qoldirgan kirgan.

Monastr va cherkovlarda maktab ochishni buyurgan, qonunlar va urf-odatlarni yozma xolatga keltirish assosida “Alfred haqiqati” tuziladi.

Angliyada birinchi marta aholidan doimo soliq olish joriy etiladi. X asr ikkinchi yarmida qiroq Edgar (959-975) Denlo qismni o‘z qirolligiga qo‘shib oladi va Angliyani birlashtiradi.

Daniyaliklar bilan bo‘lgan urush Angliyadagi feodallahuv jarayonini to‘xtatib qo‘yadi, qolaversa daniyaliklar o‘zlarini ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ancha orqada edi. Ularda jamoatchilik va erkin dexxonlar kuchli edi.

Lekin o‘z navbatida daniyaliklarni istilosи davridа mahalliy aholidan to‘lov va majburiyatлardan tashqari “*daniyaliklar puli*” yig‘ilishi ko‘pgina erkin dexqonlarni vayron qilib, o‘z yerlarini yo‘qotgan dexqonlar katta yer egalariga qaram bo‘lish jarayoni tezlashadi.

X-XI asr boshlarida Angliya janubida yirik *votchinalar* – monorlar paydo bo‘ladi, ularga barshina asosida qaram dexqonlar tomonidan ishlov beriladi.

Qaram dexqonlar uch toifadan iborat bo‘ladi:

**Genitlar** – erkin kerllar avlodidan in’om etilganligi tufayli (boklend) u yoki bu feodalga qaram bo‘lgan, lekin shaxsan erkin bo‘lgan

**Geburlar** – monarchni asosiy ishlab chiqaruvchilar, o‘z xo‘jaligidagi yer va qurolaslaha olishgan va og‘ir sharoitda bo‘lishgan.

**Kotsetli** – kichik yer egalari ijtimoiy jihatdan geburlarga yaqin bo‘lishgan.

IX asrga kelib gezitlar o‘rniga (feodal drujinachilar) **tenlar** kelishadi ular o‘rta va mayda yer egalari bo‘lib kelajakda ritsarlar toifasini tashkil etishadi.

X asr oxirida daniyaliklar bosqini yana boshlanib Daniya qiroli Knut 1016 yili Angliyani bosib olib Angliya, Daniya va Norvegiya qiroli deb e’lon qilinadi, lekin Knuto‘limidan (1035) so‘ng barpo etgan qirollik parchalanib ketadi. Angliya taxtiga Eduard Ipovednik keladi (1042-1066).

## 2.6. Rivojlangan o‘rta asrlarda Osiyo mamlakatlarida davlatchilik an‘analari.

O‘rta asrlarda Xitoy davlatchiligi yuksalishni boshdan kechirdi. XVII asrning 30-40-yillarda Xitoy davlati chuqur tushkunlikni boshdan kechirmokda edi. Soliqlarning ko‘payishi dexqonlarning yersizlanishi, savdo-sudxo‘rlik asoratining kuchayishi, amaldorlarning sotqinligi Xitoy tarixida uzoq davom etgan 1628-1644-yillardagi qo‘zg‘oltonni keltirib chiqardi.

40-yillar boshida qo‘zg‘olon yangidan yuksala boshladи. Qo‘zg‘olonda 2 ta markaz bo‘lib, biri Xubey va Shensi viloyatlarida joylashgan bo‘lsa, ikkinchisi Sichuan viloyatida joylashgan edi. Birinchi guruhdagi qo‘zg‘olonchilarga qishloqdagi dehqon oilasidan chiqqan sobiq cho‘pon va pochta kuryeri Li Szichen [1606-1645], ikkinchi guruhga esa sobiq soldat Chjan Syanchjun [1606-1647] boshchilik qildi.

Qo‘zg‘olonchilar o‘zlarining doimiy qurolli kuchlariga, hokimyat boshqaruv organlariga ega edilar. Ularning asosiy talablari hukmron Min sulolasini ag‘darib tashlash, og‘ir soliq zulmini yo‘q qilishdan iborat edi.

1644-yil 25 aprelda Li Szichen boshliq dehqonlar armiyasi mamlakat poytaxti Pekinni egalladi. Imperator Chju YU-szyan o‘z joniga qasd qilib, halok bo‘ldi. Li Szichen imperator deb e’lon qilindi. Minlar sulolasining hukmronligi tugatildi.

Qo‘zg‘olonchilar Pekinni egallaganidan keyin mamlakatda tinchlik o‘rnatishta harakat qildilar. Turmalardagi mahbuslar ozod qilindi, o‘z shafqatsizliklari bilan nom chiqargan sobiq amaldorlar sud qilindi. Shu bilan birga Li Szichen boshliq yangi sulola bir qator qiyinchiliklarga duch keldi. Qo‘shin va davlat apparatini saqlash uchun mablag‘ kerak edi, bu mablag‘ni esa faqat aholidan soliq olish yo‘li bilan topish mumkin edi. Shuning uchun ham yangi hokimyat yaqindagina bekor qilingan soliq va

majburiatlarni qayta tiklaganligini e'lon qilishga majbur bo'ldi. Bu esa hokimyatlari mustahkamligini xavf ostiga qo'ydi va aholiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Yana bir katta xavf Xitoya shimoldagi Manjurlar armiyasi tomonidan paydo bo'lgan edi. Xitoyning shimolida yashovchi manjur qabilalari birlashib, XVII asr boshlarida Nurxatsi boshchiligidagi o'z davlatini tuzdilar. Nurxatsining o'g'li va vorisi Abaxayxon hukmronligi davrida Sin [sof, yorqin (chistoye,svetloye)] davlati tuzilganligi e'lon qilindi.

Manchjurlar davlati armiyasi otliklardan tashkil topgan bo'lib, u 8 ta bayroqqa [armiyaga] birlashgan edi, shuning uchun ham «8 bayroqli armiya» nomini olgan edi. Xitoya hujum qilish arafasida manjurlar armiyasida 200 mingga yaqin askar bor edi.

Xitoydagi Min sulolasining harbiy qo'mondonlaridan biri U Sanguy qo'zg'olonchilarga qarshi kurashda manjurlardan yordam so'rashga, keynchalik esa mamlakatda o'z hukmronligini o'rnatishga intiladi. Shu maqsadda u 1644 yil bahorida manjur qo'shinlari bilan birgalikda Xitoyni bosib olishga kirishadi, bu bosqinchilik deyarli 40 yil davom etib, 1683 yilda yakunlanadi. 1644 yil may oyida Buyuk Xitoy devori [Shanxayguan] yonida Li Szichen qo'shinlari bilan manjurlar va U Sanguy qo'shinlari o'rtasida katta jang bo'ladi. Qo'zg'olonchilar armiyasi mag'lubiyatga uchrab, Pekinni tashlab ketishga majbur bo'ladilar. Manjurlar Pekinga kirdi, Abaxayxonning o'g'llaridan birini Xitoyning hukmdori deb e'lon qildilar. Shu vaqtdan boshlab Xitoysda 267 yil davom etgan manjurlarning Sin sulolasining hukmronligi boshlandi (1644-1911).

Manjurlar bilan bo'lgan keyingi janglarda qo'zg'olon rahbarlari Li Szichen [1645] va Chjan Syanchjun [1647] halok bo'ladi. Lekin ularning qo'shinlari tarqalib ketmadi. Yangi rahbarlar yetishib chiqdi. Manjurlar Shimoliy Xitoyni egallaganidan keyin Xitoyning markazi va janubiy viloyatlarida keng xalq ommasining juda qattiq qarshiligiga duch keldilar. 1645 yil bahorida Yanchjou shahri uchun juda qattiq janglar bo'ldi. Yuz kun davomida askarlar va shahar aholisi bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Manjurlar shaharni qo'lga kiritgach, 10 kun davomida uni taladilar va 800 mingdan ortiq odamni qirib tashladilar.

Manjurlar Yanchjouni vayron qilgach, Pekindan keyin Xitoyning ikkinchi siyosiy markazi bo'lgan Nankinga qarab yurdilar. Nankin mudofaafiga rahbarlik qilayotgan amaldorlar shaharda ko'p sonli askarlar borligiga qaramay dushmanga jangsiz taslim bo'lib, shaharni topshirdilar

Manjurlarga qarshi kurash olib borayotgan kuchlarning yagona rejasi, rahbarligi yo'qligi, bu kuchlar o'rtasidagi ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlar ularni mag'lubiyatga olib keldi. Natijada 1647 yilga kelib manjurlarning Xitoyni bosib olishining birinchi bosqichi yakunlandi. 1644-1647-yillar davomida Sin qo'shinlari Shimoliy va markazi Xitoyni, shuningdek janubiy Xitoyning asosiy rayonlarini egallab oldilar. Lekin ular bosib olingen hududlarda mustahkam o'rashib qola olmadilar. 1648 yildan boshlab ko'pchilik viloyatlarda qurolli qo'zg'olonlar boshlanib ketdi. Bu qo'zg'olonlarni bostirish 1650 yilgacha davom etdi va bu davrni manjurlarning Xitoyni bosib olishining 2-davri deb hisoblash mumkin.

Xitoyning bir qator asosiy rayonlarida manjurlar hukmronligi qayta tiklangach ham qarshilik ko'rsatish harakati to'xtamadi. Li Dingo boshliq dehqonlar otryadi 1662 yilgacha kurash olib bordi.

Janubiy-sharqiy Xitoyda savdogar oilasidan chiqqan Chjen Chengun kuchli flot tashkil qilib, 50-yillar davomida manjurlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordi. Manjurlar unga qarshi kurashish uchun kuchli flot tashkil qildilar va sohil bo‘yida yashovchi aholini qit‘a ichkarisiga ko‘chirib yuborib, Chjen Chengunni aholi madadidan mahrum qildilar. Yuzaga kelgan bunday holatda Chjen o‘z qo‘shinini kemalarga yuklab, ilgari gollandlar tomonidan egallab olingan Tayvanga jo‘nab ketishga majbur bo‘ladi. 1662 yilda Chjen Chengun gollandlarni Tayvandan haydab chiqarib, bu yerda manjurlarga qarshi kurashayotgan davlat tashkil qildi. Bu voqeani manjurlarning Xitoyni bo‘ysundirishining 3-bosqichining yakuni deb hisoblash mumkin [1650-1662].

Chjen Chengun tomonidan Tayvanda tashkil qilingan davlat harbiy-siyosiy jihatdan kuchli davlat bo‘lib, u 1683 yilgacha faoliyat ko‘rsatdi.

Chjen hukmronligi davrida orol iqtisodiyotini ko‘tarishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi, yangi yerlarni o‘zlashtirish, baliqchilik va boshqa sohalarni rivojlantirish rag‘batlantirildi.

Bir vaqtlar o‘z vataniga xoinlik qilib, manjurlarga Xitoyni bosib olishga yordam bergan xitoylik harbiy sarkardalarning qo‘zg‘oloni manjurlarga qarshi kurashni yangidan boshlashga so‘nggi urinish bo‘ldi. Bu qo‘zg‘olon tepasida Xitoyning janubiy hududlarida o‘z hokimyatini o‘rnatishga qaror qilgan U Sanguy turardi. Bu kurash 1681 yilgacha davom etib qo‘zg‘olonchilarning mag‘lubiyyati bilan yakunlandi.

Shu vaqtidan boshlab manjurlarga qarshi kurashning asosiy tayanchi Tayvan bo‘lib qoldi. Manjurlar tomonidan barcha qo‘zg‘olonlar bostirilgach, Tayvanda hokimyat tepasiga kelgan xitoyliklar guruhi Sin hukumatiga taslim bo‘lishga qaror qilishdi. Orolga manjur qo‘shinlari kiritildi va bu bilan Xitoyni bosib olishning oxirgi, 4-bosqichi yakunlandi [1662-1683].

XVII asr o‘rtalarida mamlakat ichkarisida ichki nizolar va o‘n yillar davom etgan xalq qo‘zg‘olonlari natijasida Min hokimyatining kuchsizlanib qolishi Xitoyning mag‘lubiyyatga uchrashining asosiy sababi edi. Manjurlarga qarshi kurashda Xitoy yagona kuch bo‘lib birlasha olmadı, Xitoy hukmron sinflari vakillarining bir qismi esa xoinlik yo‘liga o‘tib, bosqinchilarni qo‘llab-quvvatladı. Manjur hukmdorlarining Xitoyda olib borgan ustamonlik siyosatini ham mag‘lubiyyat sabablaridan biri deb hisoblasa bo‘ladi. Shimoliy Xitoyda ular tomonidan yerlarni musodara qilish mahalliy aholi tomonidan qattiq qarshilikga uchragach, ular agrar munosabatlarga uncha aralashmadilar va avvalgi yer egalarining huquqlarini tan oldilar. Qo‘riq va egallanmagan yerlarni ekish rag‘batlantirildi, Sin saroyi Minlar tomonidan joriy qilingan ba’zi bir eng og‘ir soliq va majburyatlarni bekor qildi. Bu tadbirlar yangi hokimyat bilan mamlakat aholisi o‘rtasidagi ziddiyatlarni ancha yumshatdi.

Manjurlar bosqini Xitoy xalqiga juda katta musibatlar keltirdi. Mamlakat aholisi bir necha o‘n millionga qisqarib ketdi. Bir vaqtlar gullab-yashnab turgan shaharlar vayronaga aylandi, ekin maydonlari tashlab ketildi. Endilikda Xitoy xalqini iqtisodiy jihatdan asoratga solish milliy zulm bilan qo‘shilib ketdi .

Sin davlatining davlat tuzilishi.

Sin Xitoyi siyosiy tizimiga ko‘ra Sharq mustabid hokimyati edi. Mustabid hukmdor ( bog‘dixon) cheklanmagan hokimyatga ega edi. Xitoy an‘analariga ko‘ra u

osmon farzandi bo‘lib, osmon bilan odamlar o‘rtasida turuvchi muqaddas shaxs hisoblanardi .

Bog‘dixonlar qonunchilik hokimyatini 2 ta maslahat organi: imperator kotibiyati va harbiy kengashga asoslanib amalga oshirardi. Kotibiyat manjurlar va xitoylik maslahatchilarning teng sonidan tashkil topgan edi. Harbiy kengashda esa manjurlar ko‘pchilik edi. Shu yo‘l bilan Xitoyni bosib olish vaqtida 700 ming kishidan iborat bo‘lgan manjurlar XVII asrnig 2-yarmida 150 million aholi ustidan o‘z hukmronligini o‘rnatdilar. Manjurlar hokimyati 6 ta boshqaruv idoralari yordamida amalga oshardi, bularga amaldorlar idorasi, soliqlar, tantanalar (seremoniya), sud, harbiy ish va jamoatchilik ishlari idoralari kirardi.

Mamlakat ma’muriy jihatdan 18 ta provinsiyaga bo‘lingan bo‘lib, uni gubernator boshqarardi. Ba’zan bir necha provinsiyalar hokimlikka birlashib, unga hokim rahbarlik qilardi. Har bir provinsiya 10 ta viloyatga bo‘linib, 180 ta viloyat tashkil qilingan edi. Viloyatlar o‘z navbatida uezdlarga bo‘linib, XVIII asrda ularning soni 1,5 mingga yetgan edi. Uezdlar katta-kichikligiga qarab, uning ma’muryati 200 kishidan 2000 kishiga yetardi. Qishloq joylarida har 10 hovli (xo‘jalik) jamoaga birlashgan bo‘lib, ular bir-biri uchun javobgar edilar va unga oqsoqol rahbarlik qilardi. XVIII asr oxiriga kelib deyarli 300 mln. aholiga ega bo‘lgan Sin davlatini 27 ming amaldor, shu jumladan 20 ming fuqaro va 7 ming harbiy amaldor boshqarar edi. Olimlik darajasini olish, shu jumladan amaldor bo‘lish uchun Xitoy aholisi 3 bosqichli imtihondan (uezd, provinsiya va poytaxt) o‘tishi kerak edi. Sin dinastiyasi davrida ana shunday 1-imtihon 1679 yilda bo‘lib o‘tdi.

Xitoyda amaldorlik unvoniga ega bo‘lgan shaxslarga yer-mulk berilmasdi, ularga uncha katta bo‘limgan maosh belgilanardi, natijada amaldorlar orasida poraxo‘rlik avj olgan edi.

Xitoyda davlat boshqaruving asosiy meyorlari qonunlar to‘plami yordamida belgilanar edi, lekin bu qonunlar amaldorlarning o‘zboshimchaligini va sotqinligini bartaraf qila olmas edi.

Sin jamiyatining ijtimoiy tarkibi o‘zidan oldingi davrlarga nisbatan uncha o‘zgarmadi. Faqat bu yerda aholining bosqinchi-manjurlardan iborat yangi imtiyozli qatlami tashkil topdi. Aholining teng huquqli guruhiga shenshilar (amaldorlik va olimlik darajasi uchun imtihon topshirganlar), yer egalari (nunlar), hunarmandlar (chunlar), savdogarlar (shanlar) kirardi.

Manjurlarning Sin sulolasi Xitoyni o‘ziga bo‘ysundirgach, Xitoya qo‘shti bo‘lgan davlatlarni bosib olishga kirishdi. Ular Koreya va sharqiy Mo‘g‘ilistonga o‘z ta’sirlarini o‘tkazdilar.

1691 yilda Xalxe (Shimoliy Mo‘g‘iston) Sin davlati tarkibiga qo‘shib olindi. Jung‘orlar davlati 1755 yilda o‘z mustaqilligini yo‘qotib, Sin davlatiga bo‘ysundi. 1757-1759 yillardagi urushdan keyin Qashg‘or (Sharkiy Turkiston) ham mag‘lubiyatga uchradi. Qashg‘or bilan Jung‘oriya yangi provinsiya sifatida Sin hokimyatiga qo‘shib olindi va Sinszyan («Yangi chegara») deb ataldi .

1750 yildan Tibet ham Xitoya qaram bo‘ldi.

1768 yilda Sin hukmdorlarining Hindi-Xitoyga qilgan yurishlari muvaffaqiyatsiz chikdi. Shu yili xitoyliklar Birmada qattiq mag'lubiyatga uchradilar. Birma faqat nomigagina Xitoyning suzerenitetini tan oldi.

1788-1789 yillarda Xitoy Vyetnamga qarshi yurish qilib, qisqa vaqtga uni egallab turdi, lekin keyinchalik mag'lubiyatga uchrab, chekinishga majbur bo'ldi.

XVIII asrda olib borilgan bosqinchilik siyosati va urushlar natijasida Sin davlatining hududi ancha kengaydi. Lekin shu bilan birga bu urushlar mamlakat xazinasini bo'shab qolishiga, iqtisodiyotning izdan chiqishiga olib keldi.

Sin xukumati dastlabki davrda xitoy xalqining chiqishlarini bostirishda G'arb davlatlari yordam beradi degan fikr bilan yevropalik missionerlarning Xitoyga kirib kelishlariga hayrixoxlik bilan qaradilar. Sin hukumati chet el kemalarining Guanchjou (Kanton), Syamin, Ninbo, Dinxay portlariga kirishga va u yerda savdo qilishlariga ruxsat berdi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida portugal, fransuz va ingliz savdogarlari Pekinga kirib kela boshladilar. Xitoyga ko'plab xristian missionerlari kelib, xristianlikni targ'ib qila boshladilar. Imperator Kansi hukmronligi davrida ular imperator saroyiga ham o'z ta'sirlarini o'tkazgan edilar. Bir qancha missionerlar imperator maslahatchisiga aylanib, ularga diplomatik topshiriqlar yuklatilgan edi.

Chet ellik missionerlarning faoliyati xalq ommasi norozilagini kuchaytirdi. Ikkinci tomondan hukmron doiralar ichida ham uzoq Yevropadan kelishi mumkin bo'lган mavhum, noma'lum xavf-xatarlar ham qo'rquvni yuzaga keltirayotgan edi. Manjurlar o'z hokimyatlarini mustahkamlab olishgach, ularning yevropaliklarga bo'lган munosabatlari o'zgardi. Manjurlar 1716 yilda chet elliklarning Xitoyga kirib kelishini cheklovchi dastlabki tadbirlarni amalga oshirdilar. Imperator Yunchjen 1724 yilda 300 ta xristian cherkovini yopish haqida farmon chiqardi va deyarli barcha xristian missionerlari Portugaliyaning Makao mustamlakasiga chiqarib yuborildi. 1757 yilda imperator Syanlun Kantonдан (Guanchjou) tashqari barcha portlarda chet elliklarning savdo qilishini taqiqlab qo'ydi. Yevropaliklarning faktoriyalari yo'q qilindi va chet elliklarning Xitoyga kelishi taqiqlandi.

Shu davrdan boshlab Sin hukumati Xitoyni G'arbdan ajratib qo'yish siyosatini olib bora boshladi. Yevropaliklarga Xitoyga kelish ta'qiqlandi. Ularning kemalariga faqat Guanchjouga kelishga ruxsat qilindi, bu yerda ular hokimyat vakillari nazorati ostida faqat "Gunxan" (Yevropa adabiyotlarida "Koxong") kompaniyasi bilan savdo qilishlari mumkin edi. Ularning Guanchjouda mahalliy aholi bilan muloqotda bo'lishlari taqiqlandi. Xitoy hukumati tomonidan maxsus ajratilgan savdogarlar ularni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlardilar, portugallar bu savdogarlarni kompradorlar deb ataganlar.

Sin hukumati mamlakatni yopib qo'yish siyosati ular hukmronligini mustahkamlaydi deb o'ylardi. Xitoy feodallarida Yevropa mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatilishidan bevosita iqtisodiy manfaatdorlik yo'q edi. Xitoy hukmdorlari Yevropa davlatlari umuman Xitoy yaqinidagi boshqa davlatlarning taraqqiyoti haqida ham juda yuzaki tasavvurga ega edilar. Shu bilan birga ular o'z fuqarolariga xitoyliklarning alohida mavqega ega ekanliklari, Xitoyni esa qoloq, "varvar"

mamlakatlar o‘rtasida joylashgan “Dunyo markazidagi ulkan imperiyadir” degan an’anaviy g‘oyalarni singdirishga urinardilar.

Ajratib qo‘yish siyosati Xitoya chet ellik mustamlakachilarning kirib kelishini ancha kechiktirdi. Lekin feodal tartiblarning mustahkamlanishi va Sinlar hukmronligining saqlanib qolishi bu siyosatning asosiy natijasi bo‘ldi. Sin hukumati tashqi savdoni cheklab qo‘yish orqali mahsulotlari tashqi bozorlarga chiqarilib turgan hunarmandchilik ishlab chiqarishi va manufakturalar taraqqiyotiga to‘g‘anoq bo‘ldi.

## **2.7. O‘rta asrlarda davlatchilik masalasi va din tushunchasining uyg‘unlashuvi va Buyuk geografik kashfiyotlar**

O‘rta asrlarda Yevropada katolik dini, Osiyoda esa asosan islom va buddaviylik e’tiqodi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘rta asr so‘ngida Usmoniylar o‘z tarkibiga Yevropa (Bolqon yarim oroli, Qrimning Qora dengiz va Azov dengizi bo‘ylari), Osiyo (Kichik Osiyo, Arabiston, Iroq, Suriya, Falastin, Kavkazortining bir qismi) va Shimoliy Afrikani qo‘sib olgan ulkan Usmoniylar imperiyasining markazi edi. Islom dini esa turk davlatining boshqaruv tizimida muhim ahamiyatga ega edi.

Feodal turk davlatining barcha tuzilmalari bosqinchilik urushlari olib borish manfaatlariga bo‘ysundirilgan edi. Kuchli armiya tuzgan turklarning harbiy g‘alabalariga halqaro vaziyatning qulayligi, ya’ni mo‘g‘illar davlatining parchalanib ketishi, Vizantianing inqirozga yuz tutishi, o‘rta asr Yevropasi davlatlari o‘rtasidagi ziddiyatlar ham yordam bergen edi. Lekin turklar tomonidan tuzilgan bu katta imperiya hech qachon mustahkam iqtisodiy, milliy asosga ega emas edi. Bu imperiyada hukmron halq bo‘lgan turklar ozchilikni tashkil etardi. XVI asr oxiri XVII asr boshlarida Usmoniylar imperiyasida uzoqqa cho‘zilgan inqiroz boshlandiki, bu inqiroz yevropalik mustamlakachilarni Turkiyaga va uning hukmronligi ostidagi boshqa davlatlarga kirib borishini osonlashtirdi.

Ulkan imperianing turli joylaridagi agrar munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lsa ham agrar munosabatlar turklarda XIV asrda shakllangan harbiy-len tizimiga asoslangan edi. Qoidaga ko‘ra, turklar tomonidan bosib olingan yerlar 3 toifaga ajratilgan:

1. Har bir bosqinchilik yurishidan keyin qo‘lga kiritilgan yerlarning yarmini tashkil qiluvchi lenlar.

2. Barcha yerlarning 1/5 qismini tashkil qiluvchi taxtga tegishli yerlar.

3. Barcha yerlarning 1/5 qismini tashkil etuvchi vaqf yerlar.

Bosib olingan yerlarning 1/10 qismi shu yerdagi garnizonlarni saqlashga ajratilgan. Bulardan tashqari xususiy yerlar ham mavjud bo‘lib, lekin ular oz mikdorda edi.

Sultonning otliq armiyasida xizmat qiluvchi turk feedallari - sipohiylar len yerlariga ega bo‘lardilar. Sipohiylar urush davrida o‘z lenlaridan oladigan daromadiga qarab, muayyan miqdorda askar yetkazib berishlari shart bo‘lgan. Taxtga qarashli yerlarning bir qismi davlat apparatidagi yuqori mansabdagi amaldorlarga len tariqasida berilardi. Bir necha lenlarni bir odam qo‘lida to‘planishi taqiqlangan. Len egasining o‘g‘li harbiy xizmatni o‘tayotgan bo‘lsa, sultonning maxsus farmoni bilangina len otadan o‘g‘ilga o‘tkazilgan. Usmoniylar iperiyasi tashkil topgan dastlabki asrlarda turk

feodallari o‘z xo‘jaliklarini yuritmaganlar, balki o‘z lenidagi dehqonlardan renta - soliq olish bilan cheklanganlar. Ular sulton armiyasida xizmat qilib, harbiy o‘ljalar, hadyalar, nullarni qo‘lga kiritib, boyib borishgan.

Lekin usmoniyarning bu shakldagi harbiy - len yer egaligi uzoq saqlanib turmadi. XVI asrda bir necha lenlarning bir kishi qo‘lida to‘planishini cheklovchi ta’qiq bekor qilindi. XVII asrda yirik feodal - pomeshchik yer egaligi shakllandi. Ko‘pgina sipohiylar harbiy ishni tark etib, o‘z xo‘jaliklarini yurituvchi pomeshchiklarga aylandilar. Harbiy xizmatga hech qanday aloqasi bo‘lmagan sulton saroyidagi amaldorlar, mahalliy feodal zodagonlar, sudxo‘rlar ham lenga ega bo‘la boshladi.

Shu bilan birga vaqf yerlari ko‘paydi. Ko‘pincha xonavayron bo‘lgan len egalari va mayda yer egalari o‘z yerlaridan batamom ajralib qolishdan qo‘rqib, o‘z yerlarini ijaraga olish huquqini saqlab qolgan holda, o‘z yerlarini muslimon ruhoniylariga berardilar. XVIII asr oxiriga kelib muslimon ruhoniylari qo‘lida barcha ishlov beriladigan yershingan 2/3 qismi to‘plangan edi.

Turk dehqonlari huquqiy jihatdan erkin hisoblanardi. Usmoniyalar imperiyasi tashkil topgan dastlabki asrlarda len egalari dehqonlardan natural soliq - ushur olganlar. Dehqonlar o‘z chek yerlarini meros qoldirish huquqiga ega bo‘lganlar. Len yer egaligining xarakteri o‘zgara borgan sari turk dehqonlarini asoratga solish keskin kuchaygan. Pomeshchiklar o‘zboshimchalik bilan yangi majburiyatlar joriy qilishgan. Qochib ketgan dehqonni 10 yil mobaynida qaytarib kelish tartibi o‘rnatalgan. Agar dehqon biror sababga ko‘ra o‘z chek yerini 3 yil mobaynida ishlolmasa, pomeshchik bu yerni tortib olishi mumkin bo‘lgan.

Dehqonlarni asoratga solishning kuchayishi ko‘p sonli soliq va majburiyatlarni joriy qilish bilan birga bordi. Uy hayvonlariga, asalariga va boshqa narsalarga soliq joriy qilindi. Hatto maxsus tish solig‘i o‘rnatildi. Dehqonlar shu yerdagi amaldor va askarlarni boqishga majbur edi. Turklar tomonidan asoratga solingan boshqa halqlarning ahvoli nihoyatda og‘ir edi.

Turklar bosib olgan Bolqon yarim orolidagi mamlakatlarda pomeshchiklar zulmi milliy va diniy zulm bilan qo‘shilib ketdi. Bolqon dehqonlari yuqori mikdordagi yer solig‘ini to‘lash va ko‘p sonli majburiyatlarni o‘tashdan tashqari alohida jon solig‘i ham to‘lashlari shart edi. Sultonning muslimon bo‘lmagan fuqarolari tahqirlanib, «rayya» (poda) deb atalgan. «Rayyalar» davlat xizmatiga kirish, sud himoyasida bo‘lish, quroq taqish huquqiga ega emas edilar. Ularning kiyimi muslimonlar kiyimidan farq qilishi kerak edi.

Islom diniga e’tiqod qiluvchi Arabiston yarim oroli, Iroq, Falastin, Suriya, Misr, Liviya, Tunis va Jazoir aholisi ham ikki tomonlama - ham turklar, ham o‘z feodallari tomonidan ezilardi. Usmoniyalar imperiyasi tashkil topgan dastlabki asrlarda shakllangan siyosiy ustqurma tez orada turk halqi va imperiya tarkibidagi boshqa halqlarning taraqqiyoti uchun asosiy to‘siqqa aylandi. Mamlakatning mutloq hukmdori mustabid hokimiyatga ega bo‘lgan sulton hisoblanardi. Sultan imperiyaning dunyoviy hukmdori bo‘libgina qolmay, barcha muslimonlarning diniy rahbari - xalifa ham hisoblanardi. Sultan vazirlar va hokimlarni tayinlar, qurolli kuchlarning oliy bosh qo‘mondoni hisoblanardi, bu esa sultonning o‘z fuqarolarining hayoti va mol-mulkulari

ustidan cheksiz hokimiyatini ta'minlardi. Sulton saroyi va haramidagi qullar, xodimlar, amaldorlarning soni 12 ming kishiga yetardi.

Usmoniyalar imperiyasi viloyatlar va vassal yerlarga ajratilgan edi. Bunday yerlar va viloyatlar noiblari - amirlar va poshsholar o'z qo'llarida harbiy va fuqaro hokimiyatini birlashtirgan edi. Musulmon ruhoniylarining yuqori qatlami imperiyani boshqarishda katta rol o'ynardi. Sud ishlari diniy qonunlar asosida olib borilardi. Sulton biror tadbirni amalga oshirish uchun ruhoniylar boshlig'i shayxulislomdan fatvo olishi kerak edi. Sulton shayxulislomni ishdan olishi mumkin edi, ammo fatvoni bekor qila olmas edi. Diniy feodallar vaqf yerlaridan katta daromadlar olishardi. Turk dehqonlari va asoratga solingan boshqa xalqlarning har qanday chiqishi shafqatsizlik bilan bostirilar edi. Mamlakatda qonli mustabid tartib o'rnatilgan edi. Imperianing siyosiy ustqurmasi kapitalistik munosabatlarning rivojiga to'sqinlik qilmokda edi.

Usmoniyalar imperiyasi XV asrda, ayniqsa XVII asrda chuqur ichki krizis holatida edi. Harbiy-len yer egaligi xarakterining o'zgarishi, dehqonlarni asoratga solishning kuchayishi mamlakatda ishlab chiqaruvchi kuchlarning inqiroziga olib keldi. Son-sanoqsiz soliq va majburiyatlar natijasida xonavayron bo'lган dehqonlar o'z oilasini boqishga ham imkon topmasdi. Ko'п minglab dehqonlar o'z yashash joylaridan qochib ketardilar. Butun-butun qishloqlar aholisiz qolib, ekin maydonlari chakalakzorlarga aylanardi. Xalq ommasining feodallarga qarshi kurashi kuchaydi. 1630 yilda Istanbulda sobiq dengizchi Patron-Xalil boshchiligidagi shahar aholisining qo'zg'oloni bo'ldi. Qo'zg'olonchilar sultonning eng shafqatsiz amaldorlarini qatl qilinishini talab qilishdi. Shahar bir necha hafta davomida qo'zg'olonchilar qo'lida bo'ldi. Qo'zg'olon mag'lubiyatga uchrasa ham Usmoniyalar imperiyasi asoslariga qattiq zarba berdi. Patron-Xalil qo'zg'oloni bostirilgach, imperianing turli hududlarida asoratga solingan dehqonlarning bir qator chiqishlari bo'lib o'tdi. Dehqonlarning feodallariga qarshi chiqishlari milliy va diniy zulmga qarshi chiqishlar bilan qo'shilib ketdi.

Len yerlarining meros mulkka aylanishi amalda turk feodallarining sultonning markaziy hokimiyatiga nisbatan qaramligini susaytirdi. Asta-sekin mahalliy hokimlar va poshsholar sulton hokimiyatini nomigagina tan ola boshladi. Bolqon viloyatlarining hukmdorlari mustaqil knyazlarga aylandi, ulardan ba'zilari hatto o'z tangalarini zarb qildilar. Arabiston, Suriya, Iroq, Falastin, Shimoliy Afrikada sulton oliy hukmdor sifatida tan olinsada, ular Usmoniyalar imperiyasiga soliq to'lash va askar yuborishni to'xtatib qo'yishdi. Xususan Turkiya hududi - Anatoliya (Kichik Osiyo) bir necha nomdor oilalar hokimiyati ostida edi. Markaziy hukumat yirik mahalliy feodallar qo'llab-quvvatlagan takdirdagina biror siyosiy qarorni qabul qila olardi.

Usmoniyalar imperiyasining iqtisodiy tushkunligi XVII asr o'rtalaridan uning siyosiy va harbiy qudratining tushkunligiga olib keldi. Sipohiyarlarning ilgarigi soni va jangovarlik qobiliyati susaydi. O'z vaqtida turk armiyasida sipohiylardan ham muhimroq rol o'ynagan yanicharlar korpusining xarakteri o'zgardi. Yanicharlar ilgari professional jangchi bo'lganlar. Ularning saflari islom diniga o'tkazilgan sog'lom xristian bolalarini majburiy ravishda xizmatga olish bilan to'ldirilgan. Ular yoshligidan harbiy ishga o'rgatilgan va musulmon fanatizmi ruhida tarbiyalangan. Yanicharlarga o'z oilasiga ega bo'lish, hunarmandchilik yoki savdo-sotiq bilan shug'ulanish taqiqlangan. Professional jangchi sifatida tarbiyalangan, yuqori maosh oluvchi va ko'п imtiyozlarga ega bo'lgan

yanicharlar bosqinchilik urushlarini olib borishda va bosib olingen hududlardagi aholini shafqatsizlik bilan asoratga solishda Usmoniyalar imperiyasining tayanchi hisoblanardi. Lekin vaqt o'tishi bilan yanicharlar korpusining xarakteri o'zgardi. Yanicharlar o'z oilalariga ega bo'lib, savdo bilan shug'ullana boshladilar. Yanicharlarning saflari keyinchalik yanicharlarning bolalari bilan to'ldirila boshlandi. Imtiyozlarga ega bo'lgan yanicharlik patenti oldi-sotdi predmetiga aylandi. Yanicharlar saroy to'ntarishlari o'tkazib, o'zlariga yoqmagan vazir va sultonlarni taxtdan tushirardi. Ular tartib intizomga bo'ysunishni hohlamas, armiyadagi yangilik va qayta qurishlarga qarshi chiqishardi. Ularning ilgarigi jangovorlik qobiliyati yo'qolgan edi. Turk armiyasining puturdan ketishi Usmoniyalar imperiyasi olib borayotgan ko'p sonli urushlarga o'z ta'sirini o'tkazdi. 1664 yilda vengrlar va avstriyaliklar Sentgortxart (Vengriya) yonida turklarni mag'lubiyatga uchratdilar. Turklar 1683 yilda Venaga hujum qilganlarida avstriyaliklar bilan polyaklar qo'shinidan yengildilar. Bu harbiy mag'lubiyatlar Usmoniyalar imperiyasida boshlanib ketgan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozning natijasi edi.

Turkiyaning Vena yonidagi mag'lubiyatidan keyin unga qarshi Avstriya, Polsha va Vengriyadan iborat harbiy ittifoq tuzildi, Rossiya ham bu ittifoqqa qo'shildi. Ittifoq qatnashchilari turklarni yana bir necha marotaba mag'lubiyatga uchratdilar. Turk bosqinchilari Vengriyadan haydab yuborildi. Bu esa Usmoniyalar imperiyasi inqirozni yanada keskinlashtirdi.

Usmoniyalar imperiyasi ko'p millatli davlat bo'lsada, u sharqiy Yevropadagi davlatlardan tubdan farq qilardi. Usmoniyalar imperiyasi uning tarkibiga kirgan xalqlarning birgalikdagi mudofaa ehtiyojlaridan yuzaga kelgan emas edi. Aksincha, bu imperiya usmonli turklarning bosqinchilik yurishlari natijasida tashkil topdi. Turklar o'sha davrda ilg'or va madaniyatli xalqlar bo'lgan bolgarlar, serblar, vengrlar, ruminlar, greklar va armanlarni bosib olib asoratga soldilar. Turk sultonlari madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan arablarni mustaqillikdan mahrum qildilar. Usmoniyalar imperiyasi davlatida turklar bilan imperiyadagi boshqa xalqlar o'rtasida iqtisodiy va madaniy jihatdan yaqinlashish deyarli bo'lmagan.

Turklar bosib olgan mamlakatlarda turklarga qarshi ozodlik harakatlari avj oldi. Bu o'z navbatida Usmoniyalar imperiyasining zaiflashishiga va inqirozning chuqurlashishiga sabab bo'ldi.

### Geografik kashfiyotlarning boshlanishi

Ispaniya va portugaliyaliklar buyuk geografik kashfiyot olaming yorqin yulduzlarini bo'ldilar. Portugaliya arablar hukmronligidan xalos bo'lganidan sqng, XIV-XV asrlarda Shimoliy Afrikada arablar bilan urushlarni davom ettirib yaxshigina dengiz flotini tuzishga erishdi, O'rta Yer dengizidan Shimoliy va Boltiq derigizlariga boradigan muhim savdo yo'li Portugaliya qirg'oqlari yaqinidan o'tardi, Shu sababdan Portugaliya portlariga turli mamlakatlardan kemalar kelib turardi. Dengiz kemalarida xizmat silish va baliq ovlash sohil bo'yida yashovchi ko'pchilik ahoiining asosiy mashg'uloti edi. Keyinchalik ulardan dovyurak va tajribali dengizchilar ham yetishib chiqdi.

Kashfiyotlarning birinchi davrasida, shahzoda Genrix Dengizchi (1418- 1460-

yillar)ning iste'odi, tashkilotchiligi natijasida nafaqat savdogarlar, balki dvoryanlar ham ishtirok etishdi. Natijada XV asrning 20-30-ylaridayoq portugaliyaliklar Madeyra, Kanar va Azor orollarini ocliishdi. Afrikaning g'arbiy qirg'oqlari bo'y lab janubga siljiy borgan dengizchilar Boxador burnini chetlab o'tib, 1434-yil Gvineya qirg'oqlariga, Yashil Burun orollariga va 1462-yili Syerra-Leonega yetib bordilar. Portugallar bu joylarda mahalliy aholidan rangdor lattalar, shisha marjonlar, kichkina oynachalar kabi mayda chuyda buyumlarga oltin aralashgan sum va fil suyaklarini almashtirib olardilar. Keyinchalik boshlangan sul savdosining markazi ham xuddi shu yerda bo'lgan. Kartalarda saqlanib qolgan Qullar qirg'og'i, Oltin qirg'oq, Fil Suyagi qirg'og'i kabi rasmiy nomlar bejiz paydo bo'lmasagan.

Portugallarning Bartalomeo Diash boshchiligidagi ekspeditsiyasi 1486-yili Afrikaning janubiy nuqtasini aylanib o'tib, Hind okeaniga chiqdi. Lekin uzoq davom etgan og'ir yo'l mashaqqatlaridan toliqqan dengizchilar safarni davom ettirishdan bosh tortdilar. Afrika qit'asining eng janubiy nuqtasini, portugallar Hinditsonga boradigan yo'lni yaqin orada ochilishini umid qilib Yaxshi Umid burni deb atadilar.

*Kolumbning Amerikani kashf ilishi.* Olimlarning Yer shar shaklida bo'lishi haqidagi taxminlari XV asrda dengiz sayyoohlarining qiziqishini yanada oshirdi. Italiyalik olim, atsronom Paolo Toskanelli bu g'oyadan keiib chiqib dunyo kartasini tuzdi. Kartada Osiyo qit'asi Atlantika okeanining g'arbiy qirg'oqlarida tasvirlangan bqlib, olimning eikricha, Yevropa qirg'oqlaridan doimo g'arbga suzib Hinditsonga borish mumkin bqladi, Italiyalik olim Yer ekvatori uzunligini xato tasavvur silib, 12 ming kilometrga yanglishgan, Keyinchalik bu xato - buyuk kashfiyotlarga olib keldi.

XV asr oxirida Ispaniya ham yangi dengiz savdo yo'llarini axtara boshlagandi, Ispaniya siroli Ferdinand va sirolicha Izabellaga qzining Toskanelli tasdislagan Hinditsonga G'arbiy dengiz yo'lini ochishi loyihasini topshirgan Xritsofor Kolumb (1451 -1506-yillarda yashagan) Italiyaning Genuya shahrida tqsuvchi oilasida tug'ilgan. Xristofor 15 yoshiga qadar yaxshigina ma'lumot olgan edi. Keyin oilaviy sharoiti tufayli dengizchilikka yollanib, kemalarda matrosdan kapitanga sadar bqlgan lavozimlarda xizmat qildi.

Nihoyat, 1492-yili Ispaniya siroli sayohatga ruxsat berdi. Palos portidan 1492-yil yozida Kolumb qzining 90 kishilik komandasini bilari uchta kemada: "Ninyaye", "Pinta" va "Santa-Mariya"larda dengizga chisdi. Orсадан esayotgan shamol kemalarni g'arb tomonga tez haydab borardi, Kunlar ketidan kunlar, haftalar ketidan haftalar qtdi, lekin yer hamon kqrinmasdi. Saragossa dengiziga yetganda suv qtłari yerning yasinligi xayolini tug'dirdi. Passat shamollari yo'nalishidagi kemalar ildam oldinga suzardi. Yana bir necha kun o'tgandan keyin dengizchilarda sqrsuv paydo bqlidi. Oradan ikki oy qtgandan sqng dengizchilar talabi bilan kemalar janubi-g'arbga tomon yo'l oldi. Nihoyat, 1492-yil 12-oktabr kuni kechasi kemalardan binning machtasi utsidan matrosriing "Yer!\*", "Yer!" deya basirgan ovozi eshitildi,

Yertasiga kemalar kichik bir orol yoniga kelib to'xtadi. Kolumb qirg'oqqa Ispaniya bayrog'ini tikib, orolni qiroq mulki deb e'lon qildi Ekspeditsiya a'zolari bu yerdan oltin izlab janonga yo'l oldilar va Kuba hamda Gaiti orollarini kashf sildilar. Gaiti qirg'oqlarida o'zining eng katta kemasidan ayrilgan Kolumb

dengizchilarning bir sismini yangi surilgan Navidad fortida qoldirib, o‘zi Ispaniyaga qaytdi. Keying! yillarda Kolumb g‘arbgan yana 3 marta sayohat qildi U Karib dengizidagi kqplab orollarni kashf etdi. Lekin omad unga kuiib bosmadi, u o‘zi izlagan Hindistonning oltin-boyliklarini topa olmadni, Yangiqit'a kashf silinganini Kolumb umrining oxiriga qadar bilmagan. o‘zi kashf qilgan joylarni Hindiston, u yerlar aholisini "hindular" ("indeyetslar") deb atadi. Shu sababdan Amerikaning ko‘plab tillarda gapplashadigan, turli nomdagagi xalqlari va qabilalarini adabiyotlarda "indeyetslar" deb atash rasmiy bo‘lib ketdi. Kolumbdan keyin 1498-yili g‘arbda sayohatda bo‘lgan Amerigo Vespuuchchi Kolumb kashf qilganerlarning "yangi qit'a" ekanligi hasidagi fikrlarini o‘z fikrasi nemis kartografi Valdzemyullerga yozib yuborgan. Xuddi shu nemis olimining taklifi bilan yangi qit'a Amerika deb atala boshlandi. Xritsofor Kolumbning nomi Kolumbiya davlatiga, Amerika Qo‘shma Shtatlari okruglaridan biriga, ko‘plab shaharlarga, universitetga, tog‘, daryo va hatto fazoni tadqiq etish loyihalaridan biriga qo‘yilgan.

*Vasko de Gamatiing Hindistonga sayohati.* Ispaniyaliklar tomonidan Amerikaning kashf qilinishi va uni G‘arbiy Hindiston deb atalishi ovoza bo‘lib, portugaliyaliklarni ham harakatga solib qo‘ydi. Portugaliya qiroli Hindistonga boriladigan dengiz yo‘lini topish uchun Vasko de Gama boshchiligidagi (1497-1499-yillar) ekspeditsiya jo‘natdi. Ekspeditsiyaga juda puxta tayyor-garlik ko‘rilgandi. Vasko de Gama eng yaxshi kemalar, asboblar va kartalar bilan ta’milnib, ekspeditsiya tarkibidagi dengizchilar ham tajribali bo‘lgan.

Safar boshlangandan to‘rt yarim oy o‘tgach, sa-yohatchilar Yaxshi Umid burnini aylanib o‘tib, Afrikaning sharqiy sohiliga chiqdilar. Shundan keyin Hind okeani bo‘ylab shimolga suzgan de Gama ekspeditsiyasi Mozambikning - Malinda portiga keldi. Arab lotsmani\* Ahmad ibn Majid yordamida portugaliyaliklar 1498-yilning may oyida 10 oylik sayohatdan so‘ng Kalikut shahriga yetib keldi. Vasko de Gamani hind rojasি qabul qildi Portugallar kemalariga ziravorlarni yuklab orqaga qaytdilar. Ikki yilga cho‘zilgan safar paytida dengiz-chilarning 2/3 qismi halok bo‘ldi. Keltirilgan ziravorlardan ekspeditsiya uyushtirishga sarflangan mablag‘dan 60 marta ortis foyda olindi.

*Dunyo bo‘ylab birinchi sayohat.* Amerigo Vespuuchchining Kolumb kashf qilganerlar yangiqit'a ekanligi hasidagi farazi Fernan Magellanning 1519- 1522-yillardagi dunyo aylana birinchi sayohatida tola tasdislandi. Yangi ochilgan yerdan mo‘ljallangan boyliklariga erisha olmagan ispan hukmdorlari Fernan(Lotsman - dengizda yo‘l ko‘rsatuvchi kishi.) Magellanning Hindistonga G‘arbiy dengiz yo‘lini ochish loyihasini qo‘llab-quvvatladilar.

Jasur va tajribaii dengizchi, bag‘oyat irodali Magellan o‘zining 5 ta kemandan iborat flotiliyasini 1519-yilning 20-sentabrida San-Lukar portidan dengizga chiqardi. Ekspeditsiyada qatnashgan: "Trinidad", "San-Antonio", "Konsepsion", "Viktoriya" va "Sant-Yago" kabi 105-154 tonna yuk sig‘imli kichik kemalarda ikki yilga yetadigan oziq-ooqatlar g‘amlab olingandi. Ustiga-ustak Magellanga berilgan kemalar ta‘mirlashdan keyin ham talabga to‘liq javob beradigan holda emasdi. Portugaliyaning Ispaniyadagi elchisi o‘z qiroliga Magellan ekspeditsiyasi muvaffa-siyatsizlikka uchrashi

muqarrar deb yozgan edi. Magellan kemalarga portugaliyalik hamyurtlaridan ruxsat berilgan 5 o‘rniga 37 kishi olishga muvaffaq bo‘ldi. Sayohatning boshidayos juda og‘ir sinovlarni yengib, 60 kunlik tinimsiz yomg‘irlardan so‘ng kemalar 1519-yil 13-dekabrida Rio de Janeyro ko‘rfaziga kirdi. Yana bir oylik sayohatdan keyin hozirgi Urugvayning poytaxti Montevideo joylashgan yerda to‘xtashdi. Bu joyning ikki okeanni bog‘lovchi qaltis ekanligi hasidagi faraz tasdislanmadi. Qishlovga to‘xtagan ekspeditsiyada birinchi marta isyon ko‘tarildi. Unda uchta kemaning kapitanlari satnashdi. Kapitanlardan biri isyonchilar bilan toqnashuvda halok bqlidi, Ikkinchisi - kapitan Mendosa isyon botsirilishi bilan qatl qilindi, uchinchi kapitan Kartaxena fitnada ishtirok qilgan ruhoni bilan kqrfazning sirg‘og‘iga tashlab ketildi, Isyon boshlanishiga sabab Magellanning oziq-ovqat miqdorini kamaytirishi bolgandi. Ekspeditsiya a’zolarining orsaga saytishni talab qilishlariga javoban Magellan "Qit'a janubidagi bqq‘ozni topib qz va’damni bajaraman, bu yo‘ldan meni fasat o‘lim qaytaradi", - deb aytdi. Kqrfazning ochilishi arafasida "Sant-Yago" kemasasi halokatga uchradi. Magellan ekspeditsiyasi 1520-yil 21-oktabrida janubiy kenglikning 52-gradusida keyinchalik uningnomiga sqyilgan sqltissa kirdi. Ekspeditsiyang Janubiy dengizga yo‘l olgan kemasida 1-noyabr kuni etsevan Gomes boshchiligidagi Kjr guruh zabitlar isyon kqtarib, Magellanning sodis safdoshi "San-Antonio" kapitani Alvaro de Meskituni sqlga olib asosiy ozisa zaxirasi bilan Ispaniyaga yo‘l oldilar. Qaytib kelganlar Magellanga tuhrnat-bqhtonlar yog‘dir-dilar. Qirol hukumati esa bunga ishonib Magellanning saynotasi va xotinini sazoyi qildi.

Bu paytda jasur Magellan qz massadi tomon ishonch bilan bormosda edi. Kqrfazdan bir oya yasin suzgan kemalarning chap tomonida doim hindular gulxanlari olovi va tutuni kqrinib turgan. Natijada dengizchilar bu yerlarni "Olovli yer" deb atadilar, Okeanga chissan kemalar shimolga sarab suzishdi. Tqrt oy davomida hech sanday dovullarsiz olg‘a yurildi. Okeanning ularga qilganmumvvati evaziga sayohatchilar uni "Tinch okean" deb atadilar. Hujjatlarda yozilishicha, sayohatchilar keying! 110 kun davomida surtlagen non ushoslarini, sassis suvni ichishgas majbur bqlidilar. Kemalarda kalamushning narxi yarim dukat bqlgan, dengizchilar kemaning charm soplangan joylarini olib saynatib ichishgan. Sayohatchilarining kqpi singa kasaliga chalinib qla boshladi, Nihoyat, 1521-yilning 6-martida ekspeditsiya a’zolari Marian arxipelagi orollaridan biriga tushdilar. qn kundan sqng kemalar yasinlashgan arxipelag Ispaniya shahzodasi, bqlajak sirol Philipp sharafiga Filippin deb ataldi. Xuddi shu orollarda rqy bergen bir vosea sayyoohlarning qilganishlari sanchalik buyuk ekanligini kqrsatdi. Magellanning sachonlardir Malay orollaridan olib chisib ketilgan xizmatkori enrike mahalliy aholi bilan gaplashib bir-birlarini tushunganlar. Demak enrike 0 z yurtidan shars tomonga chisib unga g‘arbdan saytib keldi. Sebu orollari aholisini hazrati oliylari, Ispaniya siroli vassallariga aylantirish uchun silingan urushda, 1521-yil 27-aprelida Magellan halok bo‘ldi.

Molukk orollaridan ziravorlarni ortgan dyeskato bosh-chiligidagj ekspeditsiyang solgan a’zolari San-Lukar-ga saytib kelganda "Viktoriya" kemasida 18 kishi solgan edi.

Dunyo bo‘ylab birinchi sayohat Yerning shar shaklida ekanligini uzil-kesil isbot

sitib berdi. Sayyohlar Yer kurrasining anchagina sismini tadsis etdilar. Endjiikda okean yo‘Harini qzlashtirish boshlandi. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida Yer yuzidagi aholi hasida ma’lu-motlar kqpaya bordi.

Mustamlakalarni istilo qilishda kimlar qatnashdi. Pireneya yarimorolidan arablarning haydab chisarilishida faol ishtirok qilgan minglab ritsarlar urushdan so‘ng bekor qoldilar. Ularning kopchiligi qashshoqlashgan dvoryanlar vakillari edilar. Osonlikcha boylik orttirish yo‘lini axtargan ming-minglab kishilar Ispaniya va Portugaliya sayyohlarining kashfiyotlari haqida xabar yetishi bilan hech qiynalib o‘tirmasdan yangi qit’alarga jo‘nay boshladilar. Dengiz ekspeditsiyalarini safarlarga tayyorlashda va jihozlashda savdogarlar va kema egalari ham faol satnashdilar. Ularning maqsadi savdo-sotuvdan, qemalarni talashdan boylik orttirish edi. Amerikaqit‘asini istilo qilishda xristian dini vakillari, ruhoniylar va rohiblar ham ishtirok etdilar. Ular mahalliy aholini xritsian diniga qtkazish bilan shug‘llandilar. Mustamlakalarda o‘ljalardan xristian cherkovi ham quruq qolmadi.

Shunday qilib, Yevropaliklar bosib olingen mamlakatlarni mustamlakalariga aylantirdilar. Mustaqilligini yoqotib, ttsilochilar zulmida ezilgan hududlar mustamlakalar deb atala boshlandi.

### **Nazorat savolar:**

1. Ilk O‘rta asrda qanday formatsion o‘zgarishlar bolib utkan?
2. Yevropa va Osiyo maalakatlaridagi “feodalizm ” jarayonlarda kanday farqlardan iborat?
3. Franklar davlatida qirol xukumatining shaklinashi.
4. Sharqiy Rim imperiyasning G‘arbiy imperiyadan ko‘proq davom etkanligining sababi?
5. Vizantiya madaniyati.
6. Vizantiya sulolari.
7. Xitoy ilq o‘rta asrlarda.
8. Hitoy davlat tizimi.
9. Ilk o‘rta asrlarda Hindiston.
10. Ilq o‘rta asrlarda Xindistonda feodal munosabatlar.
11. IX-XI asrda Fransiya tarixida feodallahuv jarayonini yakunlanishi.
12. Langobardlar davrida ItaliY.
13. Germaniya IX-XI asr boshlarida.
14. Angl-saks qirolligini paydo bo‘lishi.
15. O‘rta asrlarda Xitoy davlatchiligi yuksalishi.
16. Buyuk geografik kashfiyotlar sabablari.

### **Adabiyotlar:**

1. Alayev L.B. Imperiya fenomen ili etap razvitiya? // Voprosi istorii 2000. № 4-5.
2. Alferova M.V. Istorija Drevnego Rima. SPb., 2002

3. Grinin L.YE. O stadiyax evolyusii gosudarstva. Problemi teorii // Istorya i sovremennoe. № 1.
4. Terner V. Simvol i ritual. M., 1983.
5. Feoklistov G.G. Imperiya kak tip strukturnogo deleniya mira Opit klassifikatsii // Feoklistov G.G. Obshestvennye nauki i sovremennost. M., 2000.
6. Adams R. N. Energy and structure Austin; London, 1975.
7. La Barre W. Materials for a history of studies of crisis cults // Current Anthropology. 1971. Vol. 12. № 1.
8. Sanders W., Webster D. The Mesoamerican urban tradition // American Anthropologist. 1988. Vol. 90.

### **3-Мавзу: ЯНГИ ДАВР ДАВЛАТЛАРИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ**

**РЕЖА:**

- 3.1. Янги давр давлатларининг пайдо бўлиши.
- 3.2. Янги даврда Европа, Америка, Осиё ҳамда Африка мамлакатларда давлатчилик анъаналари.
- 3.3. Абсолют монархиянинг инқирози.
- 3.4. Деспотик давлатлар.
- 3.5. Миллий принциплар асосланган давлатнинг ташкил топиши.
- 3.6. Миллий давлатларнинг турлари.

**Kalit so‘zlar:** Imperiya, totalitarizm, despotiya, mafkura, SSSR, Uchinchi Reyx.

#### **3.1. Yangi davr davlatlarining paydo bo‘lishi.**

Dunyo mamlakatlarining eng yangi tarixi insoniyatning XVII asrning 40-yillarida boshlangan yangi tarixining davomi, umumiy tarixning so‘nggi, eng murakkab va

muhim qismi hisoblanadi. 1914-1918 yillarda bo‘lib o‘tgan birinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng halokatli urushlardan biri bo‘lib, bu urushning tugashi insoniyat tarixida yangi davrning yakunlanishi va eng yangi davrni boshlanishiga olib keldi.

Sobiq sovet davlati davrida hukmronlik qilgan mafkura bo‘yicha eng yangi tarixning boshlanishi sifatida 1917 yilda Rossiyada amalga oshirilgan oktabr to‘ntarishi qabul qilingan edi. Bu to‘ntarish natijasida hokimiyat tepasiga kelgan kuchlar Rossiyada mehnatkashlar hokimiyati o‘rnatilganligini, xususiy mulkchilik bekor qilinganligini va sotsialistik davlat barpo qilinganligini e’lon qildilar. Rossiyada ro‘y bergen bu davlat to‘ntarishi jahon tarixida alohida o‘rin tutadi. Shu davrdan boshlab tarixda ma’lum bir iz qoldirgan sotsialistik tizim shakllana boshladi. Natijada dunyo bir-biriga qaramaqarshi bo‘lgan 2 guruhga – sotsializm va kapitalizm guruhlariga ajraldi va bu ikki guruh o‘rtasida goh ochiq, goh yashirin ziddiyatlar, to‘qnashuvlar sodir bo‘lib turdi. Rossiyadagi davlat to‘ntarishi butun dunyoda ishchilar harakatiga va milliy-ozodlik harakatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bir qator mamlakatlarda sotsialistik davlatlar tashkil topdi. E’lon qilingan sotsialistik g‘oyalar, maqsadlar qanchalik yuksak, oliyjanob bo‘lmisin, haqiqatda ular amalga oshmaydigan sarob bo‘lib chiqdi. Natijada XX asrning 90-yillariga kelib sotsializm tarix sahnasidan tushib ketdi.

Shuning uchun ham eng yangi tarixning boshlanishini 1917 yildagi oktabr to‘ntarishidan boshlash mantiqan noto‘g‘ri hisoblanadi. Dunyo amaliyotida eng yangi tarixning boshlanishini birinchi jahon urushining tugashi bilan bog‘lash keng yoyilgan bo‘lib, buning uchun bir qator asoslar bor. Birinchi jahon urushidan keyin AQSH va Yevropadagi rivojlangan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotida bir qator muhim xususiyatlar paydo bo‘ldiki, ular ikkinchi jahon urushigacha bo‘lgan tarixning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu xususiyatlar qatoriga quyidagilar kiradi:

#### *Iqtisodiy sohada:*

- Iqtisodiy inqirozlarning takrorlanib turishi.
- Iqtisodiyotning militarlashtirilishi.
- Ishsizlar sonining ko‘payishi.
- Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning (davlat-monopolistik kapitalizmi) kuchayishi.
- Xo‘jalik integratsiyasining kuchayishi.

#### *Ichki siyosatda:*

- Parlamentarizm inqirozining yuzaga kelishi.
- Boshqaruvning fashistik va yarim fashistik uslublarining qo‘llanilishi.
- Ishchilar harakatining o‘sishi, siyosiy partiyalar ta’sirining oshishi.

#### *Tashqi siyosatda:*

- Xalqlarning imperializm agressiyasiga, uning boshqa mamlakatlar ichki ishlariga aralashishiga qarshi kurashning o‘sishi.
- Mustamlakachilik tizimi inqirozining kuchayishi.
- Imperialistik davlatlar va guruhlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishi.

Insoniyat bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot yo'li bir tekis kechmagan, eng yangi tarix ham bundan istisno emas. Kapitalistik davlatlar bilan SSSR o'rtasidagi ziddiyatlar va kapitalistik davlatlarning o'zlari o'rtasidagi ziddiyatlar insoniyat tarixida eng halokatli hisoblangan ikkinchi jahon urushini keltirib chiqardi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyodagi siyosiy vaziyat keskin o'zgardi. Dunyo avvalgidek bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan kapitalistik va sotsialistik lagerga ajralganicha qolgan bo'lsa ham endilikda dunyoda tinchlikni saqlash, mustamlakachilikni tugatish, atrof-muhitni muhofaza qilish, inson huquqlarini himoya qilish kabi masalalar barcha davlatlar uchun muhim masalaga aylandi.

Yangi tarixda bo'lgani kabi eng yangi tarixda ham "G'arb davlatlari" nomi bilan ataluvchi mamlakatlар guruhi (Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya (SSSR), Italiya, Ispaniya, AQSH, Kanada va b.) katta rol o'ynadi. Boshqacha qilib aytganda dunyo yevrotsentristik yoki keng ma'noda yevro-amerikanotsentristik ko'rinishda edi. Boshqa xalqlar, mamlakatlarni G'arb tarixi bilan bog'liq holda ko'rib o'tish mumkin edi.

Haqiqatan ham XX asrning birinchi yarmida aynan G'arb jahon taraqqiyotining asosiy yo'li, yo'nalishlari va vositalarini belgilab berdi va u o'z doirasiga butun bir regionlar, xalqlar va mamlakatlarni tortdi. Yevropa hozirgi zamon dunyosiga ilg'or ilmiy fikrlar va insonparvarlik g'oyalarni, yer yuzining odamlar yashaydigan hududlarini bir butun qilib birlashtirishni boshlab bergen buyuk geografik kashfiyotlarni, bozor iqtisodiyotini, vakillik demokratiyasi institutlarini, huquq an'analarini, cherkovni davlatdan ajratish tamoyillariga asoslangan dunyoviy davlatni va shunga o'xshagan ko'plagan narsalarni berdi.

Eng yangi tarixning asosiy qismini tashkil etuvchi XX asrda insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotida juda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. 20-yillarda boshlangan ilmiy-texnikaviy inqilob hayotning barcha sohalarida tub o'zgarishlarga olib keldi. Kosmosni o'zlashtirish, atom energiyasi, gen muhandisligi, elektronika, fazoviy televideniye, transportning eng yangi turlari paydo bo'ldi.

Shu bilan birga bu asrda insoniyat oldida juda murakkab masalalar –oziq-ovqat, atrof-muhitni muhofaza qilish, yadroviy va oddiy qurollarni qisqartirish, xavfli kasalliklarni davolash, qoloq mamlakatlarga yordam berish, inson huquqlarini uchun kurash, xalqaro huquq mezonlarini qaror toptirish, kosmosdan tinch maqsadlarda foydalanish, dunyo okeani boyliklaridan birgalikda foydalanish kabi muammolar paydo bo'ldi.

XX asrda fan va texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, ularning eng ilg'or yutuqlarini tezlik bilan ishlab chiqarishga joriy qilinishi jahon ijtimoiy hayotida bir qator yangi tamoyillarni paydo bo'lishiga olib keldiki bu tamoyillar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. **Insonparvarlik.** Fan va texnika sohasida ro'y bergan barcha yutuqlarning sababchisi inson, shaxsdir. XX asr tarixida inson omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi va barcha tarixiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. XX asrda shaxsning o'zi ham tubdan o'zgardi. Dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida yalpi o'rtta ta'limning joriy etilishi, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, ommaviy madaniyatning paydo bo'lishi insoniyat umumiyligi madaniyat darajasining yuksalishiga olib keldi.

2. *Demokratlashtirish.* Eng yangi davrga kelib yalpi saylov huquqi va inson omilining tarixiy jarayonlarga hal qiluvchi ta'sir kuchiga ega bo'lishi jahon siyosiy hayotini o'zgartirib yubordi. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida xalq vakillari siyosiy hayotga faol aralasha boshladilar, partiya va davlat, jamoatchilik harakatlari va tashkilotlari rahbarligiga keldilar. Ular o'zlarini bilan keng xalq ommasining mafkurasini ham olib keldilar. Aholining turli qatlamlari ichidan yetishib chiqqan professional siyosatchilar paydo bo'ldi, davlatni boshqarishda turli qatlam vakillarining ishtiroki kuchaydi. Ommaviy axborot vositalarining siyosiy hayotga ta'siri kuchaydi (to'rtinchi hokimiyat). Bularning hammasi birgalikda halqaro munosabatlarga ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi.
3. *Globallashuv.* Birinchi jahon urushidan keyin dunyoda iqtisodiy integratsiya jarayonlari tez suratlar bilan davom etdi. Davlatlarning bir-birlariga yaqinlashishi, hamkorlik qilishga intilish kuchaydi. Sof siyosiy g'oya sifatida paydo bo'lgan Yevropani "Yevropa Qo'shma Shtatlari" shiori ostida birlashtirish, dunyo iqtisodiy hayotining integratsiyasi hozirgi kunda voqelikga aylanib bormoqda. Bu jarayon davlatlararo birlashmalar va muassasalar barpo etish, xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish, ishlab chiqarish va ilmiy kooperatsiyani rivojlantirishga yordam bermoqda. Integratsiya asta-sekin turli mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotini bir-biriga yaqinlashtirish va tenglashtirish, o'zaro manfaatli savdo, iqtisodiy va valyuta-xo'jalik aloqalarini kengaytirishga yordam bermoqda.

Yangi davrda bo'lganidek eng yangi davrda ham AQSH va Yevropa davlatlarining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi katta bo'ldi. Ikkinci jahon urushidan keyin bu davlatlarda ko'ppartiyaviylik yanada mustahkamlandi, demokratiya jarayoni yanada kuchaydi, parlamentlarning roli o'sdi. Umuminsoniy qadriyatlar birinchi o'ringa chiqa boshladi. Mustamlakalar ba'zan tinch yo'l bilan, ba'zan urushlar orqali ozodlikka erisha boshladi. Iqtisodiy sohada, harbiy-siyosiy sohada integratsiya jarayoni kuchaydi.

XX asrda dunyoda juda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu o'zgarishlarning miqyoslari va teranligi jahon tarixida hali ko'rilmagan edi. Bu o'zgarishlar natijasida dunyo avvalgiga nisbatanadolatliroq va demokratikroq bo'lib qoldi. Odamlarning turmush darajasi oshdi, umri uzaydi, kishilar erkinroq bo'lib qoldilar. Siyosiy tuzumlar o'zgardi. Fashistik va totalitar tuzumlar deyarli tugatildi. Dunyo davlatlarining ko'pchiligi respublikaga aylandi. XX asr insoniyatning yangi sifatga o'tish asridir.

#### Eng yangi tarixni bosqichlarga ajratish mezonlari.

Eng yangi tarix umumiylarining so'nggi, yakunlovchi bo'limi hisoblanadi. Tarixning bu bo'limi insoniyat jamiyatini taraqqiyotining birinchi jahon urushi tugagan vaqtidan to hozirgi kungacha bo'lgan davrini o'rganadi va bizga ijtimoiy hayotda yuz bergen voqealarni tushunib olishimizga yordam beradi.

Eng yangi tarixni davrlashtirish ancha murakab masala hisoblanadi. Jumladan sobiq Sovetlar davlati davrida eng yangi tarix 1917 yildagi Rossiyada ro'y bergan davlat to'ntarishi voqeasidan boshlanardi va 3 davrga bo'linardi, bular quyidagi davrlardan iborat edi:

Birinchi davr 1917-1939 yillarni o'z ichiga olardi. Bu davrda sotsializm bir davlatda qaror topgan deb hisoblanardi.

Ikkinchi davr ikkinchi jahon urushining boshlanishidan boshlanib to 50-yillarning o‘rtalarigacha davom etardi. Bu davrda sotsializm bir davlat chegarasidan chiqib, jahon tizimiga aylangan deb baholanardi. Bu davrda imperializm mustamlakachilik tizimining yemirilish davri ham boshlangan edi.

Uchinchi davr 50-yillar o‘rtalaridan boshlanib 80-yillarning o‘rtalarigacha davom etgan bo‘lib, bu davrda SSSRda rivojlangan sotsializm bosqichiga kirdi va xalq demokratiyasi mamlakatlarida sotsializm uzil-kesil g‘alaba qozondi, deb e’lon qilingan edi.

Lekin haqiqatda 80-yillarning oxiri – 90-yillarning boshiga kelib jahonda sotsialistik tuzum inqirozga yuz tutdi. Dastlab Sharqiy Yevropada, keyinchalik dunyoning boshqa mamlakatlarida, shu jumladan SSSRda ham sotsializmdan orqaga qaytish yuz berdi. Bir vaqtlar “millatlar do‘stligi” namunasi sifatida ko‘klarga ko‘tarib maqtalgan ko‘p millatli davlatlarda (SSSR, Yugoslaviya, Chexoslovakiya) milliy nizolar avj olib, ular o‘rnida bir qator mustaqil davlatlar tashkil topdi.

Hozirgi vaqtida ham jahon eng yangi tarixini quyidagi 3 bosqichga ajratib ko‘rsatish mumkin:

*Birinchi bosqich.* 1918 yildan 1945 yilgacha bo‘lgan davr. Bu bosqichda dunyon qayta taqsimlab olishga, yangi dunyo tartiboti o‘rnatishga qaratilgan juda ko‘p mojarolar bo‘lib o‘tdi. Birinchi jahon urushidan keyin dunyoda demokratik harakatlar kuchaydi. Kapitalizmning ijtimoiy-iqtisodiy inqirozi jahonni 2 ta lagerga – demokratik hamda fashistik lagerga bo‘lib yubordi. Ikkinchi jahon urushi birinchi jahon urushiga qaraganda tamomila boshqacha xarakterga ega edi. Bu urush demokratik lager tomonidan umumdemokratik xarakterdagi, fashistik davlatlar tomonidan esa tajovuzkorlik, bosqinchilik urushi edi. Ikkinchi jahon urushida demokratik davlatlar g‘alaba qozondi.

*Ikkinchi bosqich.* Sovuq urush davri. Bu davr 1945 yilda 1991 yilgacha ya’ni SSSR parchalangunga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr sirtdan qaraganda dunyodagi ikki ijtimoiy-iqtisodiy tuzum – kapitalizm va sotsializm o‘rtasidagi yoki 2 buyuk davlat – AQSH va SSSR o‘rtasidagi o‘zaro qarshi turish va kurashdan iborat kabi ko‘rinsada, aslida u aksilinsoniy tizimlar va tuzilmalarni tugatish uchun umumjahon kurashi edi. Bu davrda jamiyatni insonpavvarlashtirish uchun kurash avj oldi. Inson huquqlari uchun kurash, mustamlakachilik va irqchilikni tugatish sovuq urush davrining asosiy mazmuniga aylandi.

*Uchinchi bosqich.* Bu davr yangi demokratiya davri hisoblanib, u SSSRning parchalanishi bilan boshlanadi. Bu davrda jahon miqyosida globallashuv jarayoni kuchaydi. Dunyo siyosiy xaritasida bir qator yangi davlatlar paydo bo‘lib, ular taraqqiyotning demokratik yo‘lini tanladilar.

### **3.2. Yangi davrda Yevropa, Amerika, Osiyo hamda Afrika mamlakatlarda davlatchilik an’analari.**

Insoniyat tarixining yangi davrini yoxud yangi tarixning asosiy mazmunini bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatni karor topishi va rivojlanishi tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti jamiyatni taraqqiyotiga xos bo‘lgan bunday o‘zgarishlarni xozirgi vaqtida

bizning mamlakatimiz o‘z boshidan kechirmokda. Xo‘jalik tarakqiyotining tarixiy tajribalaridan bugungi kunda ijodiy foydalanish, yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslik mamlakatimizda buyuk jamiyat qurishni va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashimizni tezlashtiradi. Shu boisdan Prezidentimiz I.A.Karimov "Biz turli mamlakatlar iqtisodiyotining o‘ziga xos taraqqiyotini katta diqqat-e’tibor bilan o‘rganamiz-jahon amaliyoti va jahon tafakkurida to‘plangan eng yaxshi tajribalarni o‘zimizda qo‘llashni or bilmaymiz, aksincha bunday intilishni har jihatdan rag‘batlantiramiz" - deb ta’kidlaydi.

Yangi davr ishlab chiqarish usulining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri mustamlakalarni egallab olish **va** ularni ekspluatatsiya qilishning boshlanishidir. Mustamlakachilik boskinchiliklari natijasida Yevropaning sarmoyador buyuk davlatlari Sharq xalklari ustidan o‘z hukmronliklarini o‘rnatdilar. Bozor iqtisodiyeti, tovar pul munosabatlariga asoslangan jamiyatning G‘arbiy Yevropada qaror topish bosqichi Osiyo va Afrika mamlakatlarini mustamlakachilik asoratiga solish davrini ham boshlab berdi.

Yangi davrning ko‘plab sotsiologlari go‘yoki yangi davr boshlarida Osiyo va Afrika xalqlari qoloqlik va turg‘unlik xolatida bo‘lib, "sivilizatsiyalashgan" Yevropaning ta’sirsiz muayyan progressiv rivojlanish layoqatiga ega emas edilar deb ta’kidlaydilar. Lekin yuqori darajada rivojlangan moddiy va ma’naviy madaniyatni yaratgan Shark xalqlarining uzoq davrlik tarixi bunday qarashlarni inkor etadi. Tabiiyki Osiyo va Afrikada alohida mamlakat va xalklarning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot sur’atlari turli sabablarga ko‘ra bir xil darajada bo‘lmagan. Tarixning bir bosqichida muayyan olingan mamlakatlar ilg‘orlik holatida bo‘lsalar, boshqa bir bosqichida yana muayyan davlatlar shu holatga erishganlar, lekin bu hech kachon "sara xalqlar"ning imtiozi bo‘lmagan edi.

Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish sur’atlari ham bir xil kechmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Pul-tovar xo‘jaligi italyan shaharlari va Niderlandiyada boshqa mamlakatlarga nisbatan oldinrok qaror topgan bo‘lsa, yangi davr boshlariga kelib, Angliya sarmoyadorlik munosabatlarida yanada kuchliroq rivojlangan mamlakat bo‘lib qolgan edi. Angliyada burjua inqilobi g‘alaba qozongan vaqtida Yevropaning aksariyat mamlakatlarida feodal-absolyutistik tartiblar hukmronlik qilardi.

Ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha Osiyo va Afrika qit’alarida yanada ko‘proq tafovutlar kuzatiladi. Agar yangi davr boshlarida Hindiston, Xitoy, Yaponiyalar rivojlangan feodal davlatlar ko‘plab tropik va janubiy Afrika xalqlari esa ibridoij jamoa tuzumining turli boskichlarida edilar. Ko‘pgina tarixchilar mustamlakalashtirish arafasida Osiyo va Afrika mamlakatlarining ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot darajasini belgilash bilan bog‘lik masalalarga, bozor iqtisodiyotiga asoslangan tizimni o‘sib chikish xususiyatlari masalalariga katta e’tibor karatadilar.

Tadqiqotchilar Osiyo va Afrika mamlakatlarida kapitalistik ukladning shakllanishiga to‘sinqinlik qiluvchi turli-tuman omillarni ko‘rsatib o‘tadilar. Sharqning bir qator mamlakatlarida yerga feodal mulkchilikning hukmron shakli davlat-feodal mulkchiligi edi. Hindistonda o‘z qobig‘iga o‘ralgan biqik qishloq jamoasi hunarmandchilikni qishloq xo‘jaligidan ajralishiga yo‘l ko‘ymas, ko‘pgina Osiyo mamlakatlarida Yevropada o‘rtalarda bo‘lganidek, shahar qishlok bilan yaqin

iqtisodiy aloqalarga ega emas edi. Ba’zi hollarda Sharkning feodal davlatlari tarakkiyoti ko‘chmanchilarning istilosini yoki kuchlirok dushman tomonidan bosib olinishi natijasida orkaga uloqtirib tashlangan, ayniqsa vayronalik keltiruvchi urushlar sug‘orish tizimlarini buzilib ketishiga sabab bo‘lganki, irrigatsiya tizimlarisiz ko‘plab Shark mamlakatlarini xo‘jalik taraqqiy etishi mumkin emasligini ta’kidlash lozim. Kapitalistik ukladni shakllanishiga to‘sinqilik qiluvchi omillardan biri sudxo‘rlikdir. Afrika xalqlarining taraqqiyoti qul savdosi tufayli uzoq vaqtlar davomida to‘xtab qolganligini e’tiborga olish joiz.

Shunga qaramay, yangi davr boshlariga kelganda Sharkning bir qator rivojlangan mamlakatlari Hindiston, Xitoy, Yaponiyada sarmoyadorlik munosabatlarining ilk elementlari paydo bo‘lganidi. Manufakturna dunyoga kelgan, mayda tovar ishlab chiqarishini sudxo‘rga bo‘ysundirilishi kuzatiladi. Osiyo va Afrika mamlakatlarining tabiiy rivojlanishi, garchi G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan anchagina sekinrok borayotgan bo‘lsada, sarmoyadorlik munosabatlarining kurtaklari kapitaliktik ukladni vujudga kelishiga va pirovardida feodal ishlab chiqarish munosabatlarini bozor munosabatlari bilan almashinuviga olib kelgan bo‘lar edi. Birok endigina boshlangan bu jarayon Osiyo va Afrika mamlakatlariga chet el mustamlakachilarini suqulib kirishi bilan asosan izdan chikdi.

Yevropaning ilg‘or mamlakatlarida bozor xo‘jaligini gurillab rivojlanishi ishlab chiqaruvchi kuchlar va texnika tarakkiyotini tez o‘sishi uchun shart-sharoitlarni yaratib berdi. Yevropaning buyuk mamlakatlarini yangi zamonaviy qurollar bilan kurollangirilgan armiyalari va harbiy dengiz flotlari Shark mamlakatlari qurolli kuchlariga nisbatan beqiyos ustunlikka ega bo‘ldi. G‘arbning buyuk davlatlari zambaraklar yordamida butun Osiyo va Afrika qit’alarini bo‘ysundirishga erishdilar. Chet el mustamlakachilarining sukulib kirishlari, xorijiy sarmoya tomonidan xalqlarni asoratga solinishi Osiyo va Afrika mamlakatlarining yangi davrda iqtisodiy, madaniy qolokni kuchayishi va mustahkamlanishini asosiy, xal qiluvchi sabablaridan biri bo‘lib koldi.

Sharq mamlakatlari jaxon kapitalistik xo‘jaligiga uning agrar xomashyo ko‘shimchasi sifatida majburan jalb qilindilar. Buning natijasida esa Osiyo va Afrikada kapitalistik munosabatlar bir yoqlama rivojlandi va mustamlakachilarining iqtisodiy extiyojlariga moslashtirildi.

Shunga qaramay, jaxon kapitalistik xo‘jaligiga Osiyo va Afrika mamlakatlarining tortilishi bu mamlakatlarda milliy kapitalizmni shakllanishiga sezilarli darajada turkti bergen edi, birok mustamlakachilik zulmi va bu mamlakatlarda saqlanib kelayotgan feodal sarqitlari uning tarakkiyotini kiyinlashtirar edi.

Aynan mustamlakachilarining sukulib kirishi va mustamlakachilik zulmi Sharq mamlakatlarining yangi davrdagi qoloqligini mustaxkamlanishini hal qiluvchi sababi ekanligini Yaponiyaning tarixi yaqqol isbotlaydi. O‘rta asrlar va Yangi tarix boshlarida Yaponiya ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha Osiyoning yetakchi davlatlaridan prinsipial jihatdan farq qilmas edi. Keyinchalik u ham boshqa Osiyo mamlakatlari qatori mustamlakachilik tajovuziga uchradi. Amerika zambaraklari xavf ostida bu mamlakat chet el sarmoyasi sukulib kirishi uchun ochilgan edi. Lekin bir qator ichki va tashqi omillar tufayli mustamlakachilar Yaponiyada mustaxkam o‘rnashib ololmadilar.

Yaponiya Osiyodagi kapitalistik bosqichda mustaqil rivojlanish yo‘liga chiqa olgan va qisqa vakt ichida imperialistik davlatlar qatoridan o‘rin olgan yagona mamlakat bo‘lib qoldi.

Shunday qilib, kapitalistik mamlakatlarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatni qaror topishi, sanoatning rivojlna borgani sari Osiyo va Afrikaning yangidan-yangi xalqlari mustamlakachilik asoratiga solishning obyekti bo‘lib bordilar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Osiyo va Afrikaning Yaponiyadan tashqari barcha xalqlari mustamlaka davlatlar tomonidan mustamlaka va yarim mustamlakalarga aylantirildilar.

### **3.3. Absolyut monarxiyaning inqirozi.**

#### **3.5. Milliy prinsiplar asoslangan davlatning tashkil topishi.**

90-yillar xalqaro hayotda ko‘p millatli davlatlarning parchalanishi va milliy davlatlarning vujudga kelishi bilan ham ajralib turadi. Chunonchi, Chexoslovakiya va Yugoslaviya bo‘linib ketdi. Chexoslovakiya 1993-yilning 1-yanvarida Chexiya va Slovakiya davlatlariga ajraldi. Yugoslaviya bo‘lin-guniga qadar 6 respublikadan iborat edi.

1991-yil iyun oyida Xorvatiya, Sloveniya va Makedoniya o‘z mustaqil-ligini e’lon qildilar. 1992-yilning yanvar oyida Bosniya va Gersegovina ajralib chiqdi. Serbiya va Chernogoriya esa Yugoslaviya Ittifoqi (YUI) Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tashkil etilishi davlatini tuzdilar. Yugoslaviyaning parchalanish jarayoni yana davom etdi. Xususan, Chernogoriya YUI tarkibidan ajrab chiqdi. Kosovoda yashovchi albanlar esa mustaqil Kosovo davlati tuzilganligini e’lon qildilar.

### **Yaqin Sharqdagi vaziyat**

Yaqin Sharq muammosining asosiy masalasi — Falastin arab davlatini tashkil etish va Isroil bosib olgan arab yerlarini qonuniy e galariga qaytarib berish hamon hal etilmay kelinmoqda.

Falastin arab davlatini tashkil etishga quyidagi uchta katta muammo g‘ov bo‘lib turibdi:

- 1,5 mln dan ortiq arab qochoqlarini avvalgi yashash joylariga qaytarish;
- Falastin davlatining poytaxti muammosi;

— Falastinliklar Quddus shahrini o‘z davlatining poytaxti bo‘lishini istay-dilar. Isroil esa uni o‘z davlatining poytaxti, deb e’lon qilgan. Uzoq muzokaralardan so‘ng bu shaharni ikkiga bo‘lishga kelishildi, Isroildagi o‘ta o‘ng kuchlar va Falastinning ekstremist tashkilotlari shaharning bo‘lini-shiga aslo rozi bo‘lmayotirlar va bunday bo‘linishiga butun choralar bilan qarshilik ko‘rsatmoqdalar;

— Isroildagi o‘ta o‘ng millatchi va Falastindagi ekstremistik kuchlarning barcha muammolarni kuch yordamida hal etishga urinayotganliklari. Ularning ikki tomonlama har qanday kelishuvga qarshiligi. Shu tariqa Yaqin Sharq muammosi hamon o‘z yechimini to‘la topganicha yo‘q. Lekin 2005-yilga kelib G‘azo sektoridan 8,5 ming yahudiylarning ko‘chib ketishi vaziyatni biroz iliqlashtirdi.

### **Afg‘oniston muammosi**

Afg'onistondagi turli etnik, siyosiy-diniy kuchlar o'rtasida hokimiyat uchun kurash uzoq davom etdi. 1996-yilda Afg'onistonning katta qismida tolibonlar hokimiyati o'rnatildi. Ular Afg'onistonni islom davlatiga aylantirdilar. Toli-bonlarga qarshi kuchlar «Shimoliy alyans» (ittifoq)ga birlashdilar. Tolibon va Shimoliy alyans o'rtasida qirg'inbarot urushi olib borildi.

Pokiston va Saudiya Arabiston tolibonlar hokimiyatini tan oldilar va unga keng ko'lamli yordam ko'rsatdilar.

